RUSTAM JUMAYEV

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

MONOGRAFIYA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**RUSTAM JUMAYEV**

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

**MONOGRAFIYA**

**“Durdona” nashriyoti**
**Buxoro – 2023**

**UO'K 378.091.33:32**
**74.58**
**66**
J 87
Jumayev, Rustam.
Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari [Matn] / R. Jumayev .- Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona , 2023.-176 b.

**KBK 74.58**
**66**

Ushbu monografiya talabalarda integrativ yondashuv asosida fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish metodikasiga bag‘ishlangan. Unda qo‘yilgan muammoning o‘rganilish darajasi bo‘yicha tahlillar amalga oshirilib, bu boradagi yondashuvlar umumlashtirilgan. Monografiyani tayyorlashda mavzuga oid chop etilgan adabiyotlar, maqolalar va risolalardan foydalanilgan. Monografiya ta’lim sohasidagi islohotlar, fuqarolik pozitsiyasiga ega siyosatshunos kadrlarni tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tayyorlandi.

Monografiya oliy ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari, siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishining bakalavriat va magistratura bosqichlarida ta’lim olayotgan talabalar va shu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**
N.Q. Jo‘rayev – siyosiy fanlar doktori, professor

**Taqrizchilar:**
A.R. Hamroyev – Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.
F.M. Bafoyev – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.

**Ushbu monografiya Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2023-yil 31-martdagi 3-sonli qarori bilan tomonidan nashrga tavsiya etilgan.**

**ISBN 978-9943-9580-5-0**

© R.G‘. Jumayev, 2023
© «Durdona» nashriyoti, 2023

# KIRISH

Jahonda zamonaviy dinamik ijtimoiy-madaniy sharoitda kuchli sarmoyaviy resurs – inson salohiyatidan maksimal darajada foydalanish zarurligini anglab yetmoqda. Ushbu tendensiya bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish muammosini dolzarb qilib qo‘yadi. Chunki fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasiga ega mutaxassisgina ta’limning yangi sifatiga erishish uchun shart-sharoitlarni taklif etishi, ilmiy faoliyatni rivojlantira oladi. Mazkur jarayonda eng muhim birinchi navbatda integrativ yondashuv asosida talabalarida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish darajasini nazarda tutadi. Chunki pedagog kadrlarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasi takomillashtirish kelajak avlodning o‘quv-tarbiyaviy istiqbollarini belgilaydi, jamiyatning ilg‘or rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyoda integrativ ta’limning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o‘zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo‘nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta’lim oldiga qo‘ygan talablarini qondirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya jarayonining samarasini ta’minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. O‘qituvchilarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajasidagi ta’lim muassasalari, jumladan, Garvard Oliy ta’lim maktabining “Project Zero” tadqiqotchilari turli xil sharoitlarda fanlararo aloqadorlikni o‘rganib kelmoqda. Bu esa star-wiki.ru saytida o‘z ifodasini topadi. Ular fanlararo bog‘liqlik zamonaviy fikrlaydigan talabalar uchun juda muhim ekanligini ta’kidlab o‘tishadi. Shuningdek, “UC Berkeley Web Research Environment” (WISE) bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa dunyo ta’lim tizimi oldida talabalar tafakkurini rivojlantirish, ularning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ham zamonaviy taraqqiyot ta’lim sohasiga jiddiy e’tibor berib, yuqori talablar qo‘ymoqda. Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayoni metodik raqobatni yuzaga keltirmoqda. Shunga bog‘liq ravishda mehnat bozorida raqobatbardosh pedagog kadrlarga, erkin fikrlashga qadriyatli – mazmunli munosabatga,

axborot-kommunikatsion texnologiyalar hamda boshqa yondosh fanlardan akademik bilim, koʻnikmalarga ega pedagog kadrlarga ehtiyoj yuzaga keldi. Bu esa boʻlajak mutaxassislarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini jahon standartlari talablari darajasiga yetkazishni taqozo qilmoqda.

Mazkur jarayonda ushbu talabni hal qilishning mumkin boʻlgan usullaridan biri - bu talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayoniga integral yondashuvdir. U boʻlajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasi hamda shaxsiy sifatlarini yaxlit pedagogik jarayonda samarali aloqadorligini taʼminlash talabi va shaxsning boʻlajak mutaxassis sifatida amalga oshirishga tayyorligi uchun zamin tayyorlashning yetarli amalga oshirilmaganligi oʻrtasidagi yetakchi qarama-qarshilikni hal qilishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ-4139 qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” PF-60-son farmoni, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3151-sonli va 2018 yil 5 iyundagi “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3775-sonli Qarorlari hamda boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Taʼlim jarayonini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy taʼlim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSh (Princeton university), AQSh (Association for Educational Communications and Technology – AECT), Germaniya (Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang

University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta'lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaponiya (Miyagi pedagogika universiteti)da olib borilmoqda[1].

Integrativ yondashuv asosida talabalarida siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: talabalar o'quv jarayonini loyihalash faoliyatiga tayyorlash jarayoni kreativ faollikni rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan (Belfield pedagogical university); pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini integratsiyalash, ma'naviy-axloqiy bilimlarni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo'llashni optimallashtiradigan pedagogik-psixologik treninglar tizimi yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari fanlararo aloqadorlikni qo'llash asosida ishlab chiqilgan (Chonbuk National University); talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirish orqali ta'limni didaktik loyihalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi), ta'lim jarayonlarida pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirish texnologiyasi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan (Strasburg universiteti); shaxs ma'naviyatini shakllantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish shaxsga yo'naltirilgan muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida takomillashtirilgan (Miyagi pedagogika universiteti).

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini tashxislash va korreksiyalash asosida takomillashtirish; talabalarning kreativ faoliyatini takomillashtirish; pedagogik jarayonlarni loyihalash ko'nikmasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; darsda o'qituvchi va talabaning imkoniyatlarni

---

[1] Мазкур қисм қуйидаги манбалар асосида ёритилган: Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies.–New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California.–Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. – P.176-188.

integratsiyalash asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish faoliyatiga tayyorlashni modellashtirish.

Respublikamizning pedagog va psixolog olimlari M.Quronov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, N.Ortiqov, S.Nishonova, J.Hasanboyev, B.Xodjayev, E.Yuzlikayeva, Sh.Olimov, E.G‘oziyev, Sh.Barotov, N.Tohirovalar tomonidan fuqarolik tarbiyasi, shaxs ma’naviyati va pozitsiyasi, komil inson tarbiyasi yo‘nalishlarida tadqiqot ishlari olib borilib, risolalar chop etilib izlanishlar olib borilgan. Hususan, fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik, fuqaroviylik mezonlarining ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari A.Jalolov, M.Sharifxo‘jayev, M.Qirg‘izboyev, A.O‘tamurodov, R.Hasanov, X.Boboyev, Z.G‘afurov, M.Jo‘rayevlar tomonidan tahlil qilingan va o‘rganilgan. Monografiya mazmunining ijtimoiy-falsafiy tomonlarini yoritishda yuqorida qayd qilingan tadqiqotlarning g‘oyalaridan foydalanildi.

MDH mamlakatlari faylasuf, sotsiolog, pedagog va psixolog olimlari tomonidan fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik pozitsiyasi K.S.Gadjiyev, V.M.Mexedov, G.Ya.Grevseva, L.V.Zaretskix, V.A.Karakovskiy, A.M.Knyazev, B.T.Lixachev, S.L.Rubenshteyn, A.V.Petrovskiy, V.A.Razumniy, V.A.Slastyonin, G.N.Filonov, O.V.Omelechkinlarning bayon etgan fikrlari, yozgan asarlari ahamiyatga molik bo‘lib, tadqiqot ishimizning ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik asoslarini ta’minlashga yordam berdi.

MDH olimlari V.Bespalko, M.Klarin, V.Slastyonin, G.Selevko, B.Lixachyov, B.Farberman va boshqalarning risolalari, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklaridan foydalanildi.

Jumladan, xorijiy davlatlar olimlaridan Ch.Lokxart, N.Ekstayna, G.Almond, S.Verb, S.Heller, E.Shilz, M.Xokeymerlar kabilarning tadqiqot muammosi doirasida olib borgan izlanishlari, yaratgan ta’limotlari, yozgan ilmiy – nazariy asarlari alohida e’tirofga loyiq.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar va oliy ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya jarayonini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, respublikada yosh avlod ta’lim va tarbiyasi bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilgan va amalga oshirilmoqda. Ammo, barkamol avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi ilmiy muammo sifatida tadqiq qilinmagan. Holbuki, mamlakatda

amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish va rivojlantirish g‘oyasi hamda har bir talaba-yoshda, yoki muayyan ijtimoiy guruh a’zolarida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talablari, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish his-tuyg‘ularini yoshlarda rivojlantirish muammosini metodik zaruriyatga aylantirdi.

# I BOB. SIYOSIY TA’LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Siyosiy falsafiy ta’limotlarda integratsion yondashuv mazmuni

Pedagogik faoliyatda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri - bu fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladigan umumta’lim va maxsus fanlarning tizimli birligi hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilayotgan bir qator tadqiqotlarda ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati qayd etilmoqda. Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirish ularda pedagogik bilim va mahoratning shakllanishi bilan birgalikda ta’lim jarayonida fanlarning alohida bo‘limlariga tegishli bo‘lgan aloqadorligini o‘rganishga ham yordam beradi. Pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitiladigan fanlarning alohida bo‘limlari o‘rtasidagi bunday integratsiyalashuv pedagogik faoliyat nazariyasi va amaliyoti haqidagi yaxlit tushunchalarni hamda sub’ektlararo mohiyatni aks ettiradi.

Siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan, integratsiya - bu elementlarning bir butunga oddiy birlashishi emas, balki uning rivojlanishi, ilgari bu elementlarga xos bo‘lmagan yangi xususiyatlarning paydo bo‘lishiga, shuningdek, ularning faollashishiga yordam beradigan tizim, o‘zaro aloqadorlikdir. O‘zaro bog‘liqlik esa o‘zaro ta’sir demakdir. Zamonaviy tadqiqotlarda integratsiyani bir tomondan, ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun ichki zaxira rolini belgilaydigan, ikkinchi tomondan, integratsiya – bu fanlarning o‘zaro rivojlanishining sifat jihatidan yangi turi, fanlarning tarkib topishining zamonaviy sharoitlari uchun xosdir deb hisoblaydilar.

“Integratsiya ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq” ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, integratsiya – fanlarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash omili sifatida ham e’tirof etiladi [106; 276-b.]. Bizningcha, mazkur fikrlarning bu diapazoni ko‘p funksiyali hodisa bo‘lib, qo‘llanilish sohasiga qarab mazmunan farqlanib boradi.

Bu faqat fanlararo darajada hal qilinishi mumkin bo‘lgan murakkab muammolar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq. Didaktik jarayonning yaxlit qurilishi katta texnologik imkoniyatlarga ega. Integrativ yondashuvga asoslangan ta’limni tizimli amalga oshirish bo‘yicha mavjud tajriba oliy ta’lim muassasalari amaliyotida hali keng joriy etilmagan. Shuningdek, talabalarga mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida idrok etish asosan, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarning cheklangan doirasiga moslashtiriladi. Bu esa stereotip fikrlash tarziga moyillik yaratish bilan birga, talabalarning yaxlit bilim olish imkoniyatini, nazariy-metodik-ijodiy faolligini cheklab qo‘yadi.

Zamonaviy ta’limni bugungi kunda keng qamrovli kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariy-metodik muammolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini axborotlashgan ta’lim muhitida integratsion yondashuv asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanlararo bog‘liqlik ijodiy faoliyatga qodir malakali mutaxassisni shakllantirish uchun asos bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta’lim mazmunini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

Zero, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida bo‘lajak mutaxassislarning qobiliyatini ochib berish, hayotga va nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash, raqobatdosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabaning o‘z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo‘yishi va ularga erishishi, turli xil nazariy-metodik vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlashi kerak. Bunga esa pedagogik jarayonga integratsion yondashuv asosida erishish maqsadga muvofiq.

Hozirgi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda bozor iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar talablariga javob beradigan ta’lim tizimida samaraga erishish har qachongidan ko‘ra dolzarbdir. Chunki bugungi kundagi ta’lim oluvchiga bevosita taqdim qilinayotgan axborotlarning keng ko‘lami ularni integrativ yondashuv asosida o‘qitish ehtiyojlarini ham yuzaga keltiradi.

Biz uni quyidagicha ifodaladik: ta’lim mazmunining integratsiyasi deganda mazmunlar orasidagi mustahkam aloqa, ularning bir-birlariga oʻtish jarayoni va ularga mos natijalar hamda ushbu jarayondagi bilimlar sintezi, faoliyat turlari va qobiliyatlarning yaxlit tizimidir.

Integratsion yondashuv ta’lim jarayonida integratsiyalash ishlarini tashkil qilish, kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid koʻnikma va malakalarni shakllantirishni tizimga solish, sintez qilingan bilimlarni oʻz ichiga olgan.

Bu yondashuv talabaning bilimini kutilmagan sharoitlarda qoʻllash qobiliyatini rivojlantiradi.

“Integratsiya” atamasi ensiklopedik va ilmiy adabiyotlarda turli jinsdagi qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bogʻlangan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi. Matematik fanlar integratsiyasi, xususan, ularning tarkibi bir-biriga oʻtishi va oʻzaro aloqasini anglatadi. Maktab matematika fanlari integratsiyasiga oid muammolarning tahlili, asosan ichki va fanlararo aloqalarni amalga oshirish deb tavsiflanadi.

Pedagogik atamalar lugʻatida “Integratsiya” – oʻquv fanlarining oʻzaro aloqadorligi; lotincha “integratio” soʻzidan olingan boʻlib, qayta qurish, tiklash, toʻldirish; “integr” - toʻliq, butun, yaxlit degan ma’noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga oʻzaro singdirish, bir-biri bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan yaxlit gʻoyani hosil qilish ma’nolarini ifoda etganligi bilan ahamiyat kasb etadi [67; 29-b.].

Pedagogika ensiklopediyasida Integratsiya (lot. integratio – tiklash, toʻldirish, integer – butun soʻzidan) – 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining oʻzaro bogʻliqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va oʻzaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini oʻzaro muvofiqlashtirish va birlashtirish tarzida talqin qilingan. (Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000).

Integratsion tarzda tashkil etilgan darslar fanlararo bogʻliqlikni oʻzida jamlagan holda talabalar dunyoqarashini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni an’anaviy ta’lim tizimi

doirasida ham, zamonaviy o‘quv-tarbiya jarayonida ham amalga oshirib borish mumkin. O‘zaro aloqadorlik jarayonining o‘ziga xosligi esa - integrativ tizimning har bir komponenti mohiyatiga ko‘ra sifatli o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

Demak, integratsion dars odatdagi darslardan:

- aniqligi, ixchamligi, o‘kuv materialining zich ko‘lami;
- darsning har bir boskichida integratsiyalanayotgan o‘quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;
- berilayotgan o‘quv materialidagi keng ko‘lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

(Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. - T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005. http:// library.ziyonet.uz/ru/book/33810.)

Pedagogikadagi integrativ yondashuv muammolari ko‘plab tadqiqotchilarning asarlarida turli ko‘rinishda ko‘rib chiqilgan.

Farididdin Attor o‘zining tubandagi fikri bilan o‘zaro aloqadorlikni o‘z zamonasida quyidagicha ta’riflaydi: “Bu ro‘yi zaminda mayda narsaning o‘zi yo‘q, hamma narsa bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi” [17; 5-6-b.].

Demak, bizningcha, har bir fan bir-biriga bog‘liq va uning negizi – tabiatdir.

Didaktikaning asoschisi Ya.A.Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida: “O‘zaro aloqadagi jamiki narsa, xuddi shu aloqada o‘rganilishi kerak” deb ta’kidlagan edi [74; 54-b]. Bundan ko‘rinadiki, o‘rganiladigan har qanday bilim albatta aloqadorlik asosida amalga oshirilishi, bog‘lanishi lozim. Shundagina tabiat + inson bir butunligini anglab yetish mumkin.

I.G.Pestalotssi o‘quv fanlar o‘zaro bog‘lanishlarining turli tumanligini ochishda: “O‘z ongingda mohiyatiga ko‘ra, barcha o‘zaro bog‘langan fanlarni ular tabiatda haqiqatdan qanday aloqada bo‘lsa, aynan shunday aloqaga keltirish kerak” - degan fikrni ilgari suradi.

Bir qator turkum fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanib, talabalarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda ta’lim oluvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog‘ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o‘zaro aloqadorlikda o‘rganishlari zarur [113; 38-b].

Olib borilgan izlanishlarda metodikaning boshqa fanlar bilan

o‘zaro aloqadorligi muammosi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mazkur jarayonda har bir fanning o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda bog‘liqlik elementlari ham tavsiflangan [88;175-b].

O‘quv-tarbiya jarayonida integratsiyalashni ta’lim mazmuniga singdirish, o‘zaro aloqadorlikka erishish imkoniyatlarini ochib berish, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv, talabaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda barcha omillarni birlashtirish muammolari ko‘pchilik tadqiqotlarning muammosi hisoblanadi [46; 360-b].

Tadqiqotlar tahlili natijasida olimlarning pedagogikada integrativ ta’limning bir qator kategoriyalarini ajratib ko‘rsatganligini keltirib o‘tamiz: integrativ tizim, integratsiya jarayoni, integratsion yondashuv, integratsiya tamoyillari, integrativ omillar, integratsiya shakllari. Mazkur kategoriyalar mazmunan quyidagicha ifodalanishi qayd etiladi.

Integratsiya tamoyillari – o‘quv jarayonining barcha komponentlarining o‘zaro aloqadorligini, tizimlar orasidagi bog‘liqlikni nazarda tutadi. Shuningdek, ta’lim maqsadini belgilashda, o‘qitishning mazmuni, uning shakllari va usullarini aloqadorlikda tashkil etishda birlamchi hisoblanadi.

Integrativ yondashuv – bu pedagogik jarayonning istalgan komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni ko‘zda tutadi va pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi.

Integral jarayonlar – bu tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimni sifatli o‘zgartirish jarayoni.

Bizningcha, manbalarni tahlil qilish har qanday turdagi tadqiqot maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun zarur shartdir. Lekin, birinchi navbatda, bu “voqelik haqidagi bilim” va “bilim haqidagi voqelik” ka ega bo‘lgan nazariy va uslubiy tadqiqotlarga tegishli. Shunday ekan, integratsiyalashgan yondashuv muammosiga doir ko‘rib chiqilayotgan manbalarni quyidagi guruhlar ko‘rinishida yoritish mumkin:

1) integratsiyaning nazariy masalalarini yoritadigan va tahlil qiladigan guruhi;

2) fanning ayrim tarmoqlari va mavzulari orasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi guruhi.

Egelgardning “Integratizm – hayot hodisalarini bilishda soddadan murakkabgacha bo‘lgan yo‘l” nomli maqolasida qismlar va yaxlit integratsiyaning uch bosqichi ajratiladi (tizimning paydo bo‘lishi). Bunda integratsiya – qismlar orasidagi aloqa; butun tarkibga kirganda,

ularning o‘ziga xos xususiyatlarini elementlari yo‘qolishi (bir butunlilik); qismlarning xossalari tufayli hamda bo‘linmalararo aloqalarning paydo bo‘lishi sababli ham yangi xususiyatlarning yuzaga kelayotgan yaxlitligining namoyon bo‘lishi deb tavsiflanadi [108; 103-115-b].

Har qanday integratsiya bo‘linish jarayonini o‘z ichiga olganligini anglash, o‘qituvchilarni integratsiyaga “mutlaq yaxshilik”, “farqlash” esa “mutlaq yomonlik” sifatida qaramaslik kerakligi va bu fikrlarni tushunish muhimlik kasb etadi. Chunki integratsiyaning ko‘p o‘lchovli ko‘rinishi ta’lim jarayonida integratsiya va tabaqalanish jarayonlarining o‘ziga xosligini, differensiatsiya va differensial munosabatlarining mazmunini yoritib berish integratsiyani anglab-tushunishga yordam beradi [65; 27-b].

Shuningdek, “integratsiya”, “jarayon”, “integratsiya va innovatsiya” terminlari fanga kiritilganligi bilan ahamiyatli. Bu esa “eskilarning parchalanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak, shu bilan birga yangi tizimning integratsiyasi kun tartibida” degan pozitsiyani yuzaga keltiradi. Shuningdek, integratsiya, assimilyatsiya va dissimilyatsiya munosabatlari, moslashuvning integratsion tomoni, integratsiyaning birlashgan butun va turli bosqichlari, tushunchalarning o‘zaro ta’siri haqidagi mulohazalar ta’lim jarayonida integratsiyaning mohiyatini tushunishga katta hissa qo‘shadi. [65; 27-b]. Bizningcha, mazkur taklif etilgan g‘oyalar zamonaviy ta’lim berish sharoitida integratsiyaning o‘zgarmas xususiyatlarini ko‘rib chiqishda qo‘llaniladi.

Ilmiy adabiyotlarda integratsiyaning genetik jihatlari ham tahlil qilinadi. Ayniqsa, integratsiyaning turlari, asoslari, darajalarini aniqlashga yondashuvlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Ikkinchi guruh vakillari esa o‘z navbatida integrativ soha yo‘nalishlarini ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy bilimlarning aloqadorligi hamda texnik-ijtimoiy fanlarning uyg‘unligiga ahamiyat qaratishi bilan ifodalanadi. “Bu yerda asosiy narsa o‘zaro hamkorlik, aloqadorlik munosabatlarining mazmun-mohiyati orqali yoritib beriladi [105; 108-b].

Gumanitar fanlarning tabiatshunoslik rivojiga o‘zaro ta’siri muammosini yoritish, shuningdek, texnik va ijtimoiy fanlar o‘rtasidagi munosabatlarning ob’ektiv asoslarini ochib berish mazkur guruh vakillarining tadqiqot muammosi hisoblanadi [45; 272-b].

Ko‘pgina olimlar texnologiya va uning ta’lim samaradorligini

oshirishga samarali ta’siri haqida fikr bildirib, dastlab texnologiyani “insonga moslashtirmasdan” taklif etish va foydalanish mumkin emas edi, ammo bu keyinchalik “antropomorfik” xarakterga ega bo‘lgan bir qator atamalarni o‘z ichiga olgan konseptual apparatning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi va shu tariqa “inson va texnika mavjudligining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi” haqida qarashlar paydo bo‘ldi [104; 33-b]. “Ijtimoiy va texnik fanlarning o‘zaro ta’sir etish yo‘llari” deb nomlangan asarda umumiy fanlar va xususan, ijtimoiy va texnik fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik munosabatlarining asoslari haqida fikr bildirib o‘tiladi. Hamda o‘zaro bog‘liq bu munosabatlarning asosiy mohiyatiga e’tibor qaratiladi [104; 132-b].

Falsafiy va ilmiy, psixologik manbalarni hisobga olish integratsiyaning pedagogik aspektlarini anglashga imkon beradi. Bu guruhga tegishli tadqiqotlarda yaxlit tasavvurni shakllantirishning ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, “yakuniy izolyatsiya va o‘z-o‘zini izolyatsiya qilish, fanlarning “men”ni talab qilishi zararli bo‘ladi, chunki u nazariy-metodik faoliyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi” [45; 272-b].

Pedagogik tadqiqotlardan ma’lumki, XX asr oxirida odamni o‘rganish va tavsiflashda yaxlit yondashuvga e’tibor kuchaydi. Mahalliy faylasuflarning asarlarida inson faoliyatining ratsional va irratsional tomonlarini birlashtirishga urinishlar kuzatiladi [105; 349-b].

Falsafiy va ilmiy adabiyotlarda pedagogik integratsiyaning muammolari va uning yechimiga doir har xil qarashlar mavjud. Bu borada inson tafakkuri turli fanlarning kelib chiqishi haqidagi bilimlarning ko‘payishi bilan to‘yinganligi bois ularni sintetik idrok etish imkoniyatini beradigan samarali qarshi choralar ko‘rishni o‘rganish vazifasini qo‘yadi. Shunga ko‘ra chora-tadbirlar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

a) o‘quv jarayonida amaliy muammolarni ham, ilmiy-nazariy muammolarni ham fanlararo aloqadorlikda hal qilish;

b) o‘quv jarayonida kibernetik mashinalarning keng qo‘llanilishiga ahamiyat berish;

v) ta’limning barcha bosqichlarida bilimlarni aloqadorlikda mustaqil egallash ko‘nikmalarini singdirishni ta’minlaydigan usullardan foydalanish va h.k. [104; 132-b].

Integratsion tendensiyani kuchaytirish L.S.Vigotskiyning “Fikrlash va nutq” asarining mazmunini tashkil etib, asarda bolalik davrida uning rivojlanishidagi hissiy va aqliy komponentlarning aloqadorligi, insonning yaxlit bir butun tuzilma ekanligi uning dastlabki va keyingi rivojlanishida ratsional va mantiqsizlikning ajralmasligidan dalolat berdi. Falsafiy qarashlardan ma’lumki, dunyo va odamni tushunish va tushuntirishning ratsionalistik va irratsional paradigmalari paydo bo‘lishi bilan olimlar oldida ularning o‘zaro aloqadorlikda ta’sir etish imkoniyatlarini aniqlash vazifasini paydo qildi. Bu bir qancha sabablarga ko‘ra muhim [44; 224 -b].

Mazkur sababning birinchi ko‘rinishi turli shakllar orasidagi bo‘lingan bir necha tushuncha, g‘oyalar, yaxlit bilimlar doirasida turli fanlarning asosiy g‘oyalari shakllantirilganligi bilan ahamiyatli. Chunki bunday tushunchalarga umumiylik, doimiylik hamda o‘zgaruvchanlik xosdir [14; 60-66-b].

O‘zaro aloqadorlikda ta’sir etish imkoniyatlarini aniqlash vazifasining ikkinchi sababi, tabiat va jamiyat dastlab bir butun: ular ikkala ratsionalistik hamda irratsional komponentni birlashtiradi. Ularning o‘zaro aloqadorligini anglamaslik o‘zlashgan tushunchalarni kutilmagan vaziyatlarda foydalanish imkonini bermasligi mumkin. Bu holat bilimlarni qisman, faqatgina bir tomonlama samarasiz qo‘llashga sabab bo‘ladi. Shu boisdan shaxsni o‘rganish klassik hamda zamonaviy mantiq usullarining o‘zaro bog‘liqligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Mantiqsiz dunyoni odatiy rasmiy mantiq usullari bilan o‘rganish mumkin emas. Chunki u “yengilgan” va “tasodifiy” deb topilgan.

Inson mohiyatini anglashda aqlli va irratsional sintez masalasi falsafiy tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ratsional va mantiqsizlikning ochiq birlashuvi orqali mumtoz falsafiy tafakkur qayta tiklanadi. U o‘z navbatida ilmiy g‘oyalar tiliga asoslanadi, shu bilan bir qatorda qat’iy cheklovlardan xoli bo‘ladi [77; 208-b].

Ma’lum darajada, sinergetik paradigma shaxsga integratsiya kategoriyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ratsionalistik va irratsional yondashuvlar o‘zaro ta’sirining qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi. Demak, “hozirgi vaqtda har qanday chinakam ijodiy jarayon an’anaviy va noan’anaviy bilimlarni birlashtirish bilan bog‘liq. Aynan ularning bo‘g‘inida yangi sohalarga katta yutuqlar kiritiladi,

ko‘pincha eng murakkab muammolarni yorqin va o‘ziga xos yechimlari taklif etiladi” [77; 208-b].

An’anaviy va noan’anaviy yondashuvlarning o‘zaro aloqadadorligini sinkretik bilimlar doirasida ko‘rib chiqish shaxsning yaxlit tushunchasini yaratishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, “integratsiyaning” tarixda ratsional va irratsional komponentlar deb atalganligi, hodisalarning “element” va sub’ektiv qatlamlar darajasida ifodalanganligini, ularning aloqadorligini aniqlashda sinergetik paradigma orqali amalga oshirish muhim hisoblanadi” [ 77; 192-b].

Fanlararo aloqadorlikning pedagogik-psixologik jihatdan hamda ushbu muammoning metodik jihatdan tadqiq qilinishi “Shaxsning integratsion konsepsiyasi”ning mazmun-mohiyatini ko‘rsatadi. Bu konsepsiya inson hayotining turli jihatlari va sohalarini tavsiflashning umumiy tamoyillari asosida amalga oshirilishi mumkin: elementlarning xilma-xilligi, kombinatsiyasi (uyg‘unlashuvi) va hokazo. Bir-birini to‘ldirish va kompensatsiya qilish yanada ortadi [77; 208-b]. Shunday qilib, integrativ yondashuv inson uchun uning ijodiy tabiatini tan olib, ratsional chegaralarini uzoqlashtiradi. Irratsionalistlar shu tariqa ma’lum va noma’lum sohaning doimiy izlash istiqbollarini belgilaydilar. Bunda har bir yo‘nalishning o‘z xususiyatlarini saqlanib qolishiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Ekzistensial falsafa insonning o‘zidan boshqa odamlardan begonalashuvi muammosini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, olam va odam mavjudligining qonuniyatlari va tamoyillarini izlash idrokning refleksiv tarzida har xil turdagi tafakkur hukmronligi orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi.

Uzoq yillardan buyon fanlararo aloqadorlikning ta’lim jarayonida o‘rganilishi integratsion yondashuvlarning yanada rivoj topishiga hamda fanlarararo alokadorliklarni amalga oshirish talab va imkoniyatlarini belgilashga yordam beradi.

Bilamizki, ta’limning rivojlanishi o‘qishning barcha shakllarini birlashtirish imkoniyatini yaratadi. “Nazariy muammo - amaliyotda joriy etish” siklini o‘zlashtirishning yagona tizimi paydo bo‘ladi [103; 45-b]. Mazkur jarayonda avvalo, muammoli o‘qitishdan foydalanish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda muhim samaradorlikka erishishni ta’minlash bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi munosabatlarning yangi

shakli yuzaga kelishini belgilaydi. Ikkinchidan, turli vaziyatlarni simulyatsiya qiladigan konstruktiv o‘yinlar kiradi. Bunda avvalo, o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

darsning maqsadini to‘g‘ri tanlash;

dars jarayonida beriladigan bilimlarni tizimlashtirish, umumlashtirish;

beriladigan materialning taqdim etish usullari, turlari va texnikasini aniqlash;

fanlar ichida va fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash;

mavzular mazmunidan “integral qism” elementlarini ajratib ko‘rsatish;

ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirish imkonini yaratish;

integrativ darslar talabalarning faoliyatni mustaqil tanlashlarini nazarda tutganligi sababli pedagogik jarayon komponentlari uchun qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida integratsiyalashgan darslar muammosining vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirishda nazariy-metodik bilimlarning aloqadorligidan amalda qo‘llash;

didaktik jarayonni qulaylashtirish;

talabalar qobiliyatiga asoslangan holda ularning kognitiv faoliyatini rivojlantirish;

Bunda “pedagogikadagi integratsion jarayonlarni tahlil qilishning dastlabki qoidalari” ham [14; 60-66-b].

fanning alohida mavjud qismlarini yaxlit kompleksga birlashtirishni ta’minlaydi;

bilim berish va almashinishning turli vositalardan foydalangan holda amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi;

integratsiyalashgan darslar shaxsni rivojlantirishga xizmat qiladi, shu sababli ta’lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash bilan bog‘liq.

O‘qitish jarayonida o‘quv fanlarining integratsiyasidan foydalanishga yetarlicha e’tibor berish lozim. Shu sababli fanlarni integratsiyalashda fanlararo yondashuv optimal yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Fikrimizcha, ta’lim jarayonida “integrativlik” termini faoliyatda faol qo‘llaniladigan “yaxlitlik”, “butunlik”, “nazariy va metodik

bilimlarning birligi”, “muvozanatlashish” kabi ta’lim tamoyillari mazmunida o‘rganilgan. Bu esa “oddiydan murakkabga o‘tish mexanizmlarini ochish, qismlarni birlashtirish natijasida sodir bo‘ldi” [104; 372-b].

Fanda integratsiyaning muhim-kategorik xususiyatlari ham o‘rganilgan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlik (sub’ektlararo aloqa) ekanligi tushuntiriladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, muvofiqlashtirish pedagogik tizim qaysi maqsad uchun tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha maqsadlarga mos munosiblik darajasini aniqlashdir. Bir sharoit uchun erishilgan muvofiqlik hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun muvofiqlashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi. Muvofiqlashtirish umumiy bo‘lishi mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi mumkin. Muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini ajrata bilish zarurdir. Muvofiqlashtirish tushunchasining sinonimi nazariy asosda muqobillarni hisoblash, chamalab ko‘rish, taqqoslash va solishtirishdir. Muvofiqlashtirish amaliy yo‘nalishda yangilik kiritish, qayta tashkil etish, qayta qurish, unga qo‘yilgan masalalarni yechish, eng qulay holga keltirishdir [62; 11-b]. Shuningdek, integratsiya uzviy bog‘liqlik yaratish jarayoni va natijasi sifatida tavsiflanadi. Shunga e’tibor berish kerakki, bir tomondan muvofiqlashtirish padagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o‘zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayon moslashishini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo‘q, chunki bu ikki jarayon bir biri bilan bog‘liq holda davom etadi. Agar bugun sharoitga moslashsak, bu bizga bog‘liq bo‘lmagan vaziyat bilan bog‘liqdir [51; 160-b].

“Differensiatsiya bilan bir qatorda pedagogika fanida, shuningdek, inson, jamiyat, tafakkur va boshqa tabiiy fanlar bilan integratsiyalashuv zarur”. Fan va taraqqiyotning rivojlanishi bir tomondan, “tabaqalashtirilgan” davrlar, boshqa tomondan “integratsiya” davrlari mavjudligini tan oladi. Shunday qilib, integratsiya va tabaqalashtirish vaqt o‘tishi bilan parchalanib ketganga o‘xshaydi va shuning uchun ularning alohida mavjudligiga yo‘l qo‘yiladi. “Aslida, ular nafaqat o‘zaro bog‘liq, balki birlashishi mumkin” [39; 5-b].

Integratsiyaning mazmun-mohiyatida “ta’lim predmeti” – shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridan olishga e’tibor qaratiladi. Shu

maqsadda “yaxlitlik”, “uyg‘unlik” atamalarini va ulardan hosilalarni – “barkamol (yaxlit ) shaxs”, “uyg‘un fikrlash”, “umumiy pedagogika” va boshqa terminlar faol ishlatiladi. “Butunlik”, “uyg‘unlik” va “integratsiya” tushunchalari bitta semantik tugunga bog‘lanadi [98; 93-b].

Integratsiyani “so‘zning keng ma’nosida ham, tor ma’nosida ham ko‘rib chiqish muhim”. Birinchi holda, “integratsiya” – bu ta’lim mazmunini ilmiy-texnik, ijtimoiy-texnik, psixo-fiziologik xususiyatlar asosida birlashtirilgan zamonaviy ishlab chiqarish va kadrlar tayyorlashda mavjud bo‘lgan keng ko‘lamli kasblarga tayyorlash uchun yagona didaktik shaklga keltirish demakdir [40; 43-b].

Ilmiy adabiyotlarda “integratsiya” zamonaviy bilim va mutaxassislar tayyorgarligining holati, tendensiyasi, namunasi, jarayoni, omili, natijasi sifatida qaraladi. Fanlararo aloqadorlikning asosiy mazmun-mohiyatini atrof-olam haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va tizimlashtirish aks ettiradi. Bunda integratsiyaning rivojlanish xususiyatlariga asoslangan holda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi. Bular:

integratsiyalashgan tendensiyaning differensiatsiyadan ustunligi;

har bir fanning ortib borayotgan murakkablik darajasi uning predmeti, tuzilishi va vazifalarining murakkabligi bilan bog‘liq holda integratsiyalashuvi;

integratsiya jarayonlarining tezligi va sifatining ortib borishi.

Integratsiya ob’ektlarining o‘zaro ta’sirini o‘rnatish jarayoni sifatida integratsiyaning asosiy o‘zak qismini aynan bog‘lanishlar tashkil etadi. Masalan: o‘quv materiali mazmuni ichidagi, material bloklari orasidagi va darsning rejasiga mos bog‘lanishlardir. Bog‘lanishning mazmun-mohiyatini integratsiyalashgan darsda beriladigan ma’lumotlarni o‘rganish, uzatish va o‘zlashtirishning ketma-ketlikka asoslanishi tashkil etadi.

Fanlararo integratsiya – umumiy tushunchalar orqali bilimlarni birlashtirish hamda tizimni tashkil etuvchi asosiy omillarni aniqlash orqali kuzatiladi.

Akademik fanlar integratsiyasi – bir nechta turdosh fan uchun umumiy g‘oya, ko‘p o‘lchovli, murakkab muammolar asosida amalga oshiriladi. Integratsion tendensiyalar nazariy va metodik tadqiqot maydonini yaxlit taqdim etish va qurishda namoyon bo‘ladi.

Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya. Konsentrizm tamoyiliga asosan o‘rganilgan mavzu yangi material (yangi mavzu)ni to‘ldiradi. Taftologiya asosida takrorlangan materiallarni bartaraf etish maqsadida dasturlarda mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan. Zamonaviy sharoitda o‘quv rejasida o‘quv predmetlarining soni ko‘pligi tufayli bunday turdagi dasturlar yaratishga kuchli ihtiyoj sezilmoqda. Dastur va darsliklarni o‘rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, muayyan dasturlarni uyg‘unlashtirish lozim. Mavzulararo integratsiyada bir fan doirasida beriladigan o‘quv materiallari boshqa bir fan doirasidagi mohiyatan yaqin bo‘lgan matereallar uyg‘ulashtiriladi.




**1.1-rasm. Integratsion pedagogik tushunchalar guruhlari.**

Zamonaviy pedagogikada bu muammoga katta e’tibor berilmoqda. Masalan, “atrof-muhitning yaxlitligi” deganda “insonning hayotiy ehtiyojlari, munosabatlari, moyilligi, rivojlanishining barcha darajalarida hayotini ta’minlaydigan o‘zaro ta’sirlar, shuningdek, amalga oshirilishini ta’minlaydigan shartlar majmui tushuniladi. Bu esa ijtimoiy faoliyat sub’ektining o‘zini-o‘zi anglashi, ijtimoiy ehtiyojlar darajasida namoyon bo‘lishini ta’minlaydigan shartlardir” [104; 372-b].

Tarbiya nafaqat ta’lim potensialini, balki uni amalga oshirish yo‘llari, qarama-qarshiliklari hamda insonni hayot tarzi bilan yaxlit, aloqadorlikda amalga oshirishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, tarbiya “muayyan fanlarning nazariy tushunchalarini birlashtiradi hamda ularni didaktik jarayonga qo‘llash imkonini beradi”. Bu esa pedagogik vazifalarni hal qilish, ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirish, uni ommaviy amaliyotga joriy etish” imkoniyatini beradi [14; 60-66-b].

Integratsiyalashgan ta’limning o‘ziga xos konsepsiyasi – ta’limning yaxlitlik konsepsiyasidir. Ta’limning yaxlitlik konsepsiyasining markazida maqsad o‘z ifodasini topadi. Shu bilan

birga ta’lim berish va ta’lim olish, tarbiyaviy va assimilyatsiya jarayonlarini birlashtirgan pedagogik maqsad muhim rol o‘ynaydi. Belgilangan tarbiya va o‘quv jarayonlari o‘zaro bog‘liqlikda talabaga bevosita aloqador jihatlarni aks ettirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonining yaxlitligining bir qismini tashkil qiladi [70; 170-b].

Bo‘lajak siyosatshunos kadrlarning ilmiy-uslubiy bilimlarini o‘zlashtirishi mohiyatida fan va ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ko‘zga tashlanadi. Bu esa turli sohalarning o‘zaro bog‘liqligi, muhim jihatlari, o‘ziga xosligi, aloqadorligini ochib beradi [99; 8-9-b].

G.I.Ibragimov zamonaviy voqelikda sodir bo‘layotgan asosiy tendensiyalarni batafsil tahlil qiladi: dars shakllarini tanlashda integratsiya tamoyillarini mustahkamlash; ma’lum bir fanni o‘qitishni tashkil etishning murakkab shakllaridan foydalanish (“gorizontal” bo‘ylab integratsiya), ta’lim jarayonining tarkibiy bo‘linmalari - darsdan tashqari ta’limni tashkil etish tizimining asoslanishi – “ochik eshiklar kuni”, “fan o‘quv haftaligi” (“vertikal” integratsiya) kerakligini o‘rganib chiqadi [57; 227-b].

Shuningdek, golografik proyeksion usul bilan vitagenik o‘rganish konsepsiyasi nihoyatda kuchli integratsion salohiyatga ega hisoblanib, bunga quyidagi holatlar sabab bo‘lgan:

birinchidan, vitagenik tarbiya inson tajribasini, uning intellektual va psixologik salohiyatini tarbiyaviy maqsadlarda amalga oshirishga asoslanadi;

ikkinchidan, vitagen konsepsiyasining ajralmas tabiatini o‘rganish lozim, chunki uning boshqa asosiy kategoriyasi ham mavjud bo‘lib, u-golografiyadir. Bu atama holos (gr.) – butun, yaxlit ildiz so‘zidan kelib chiqqan holda ma’no kasb etgan. Xuddi shu ildiz “yaxlitlik” tushunchasi – yaxlitlik falsafasining markaziy kategoriyasi asosida yotadi, uning integratsion tabiati asosiy formulasida “butun uning qismlari yig‘indisidan kattaroqdir”;

Integrativ yondashuvning boshlang‘ich ontologik asosini pedagogik faoliyat tashkil etadi, uning integratsion tabiati turli xossalarda ifodalanadi. Bu esa juda ko‘p xilma-xil komponentlarning mavjudligini bildiradi.

Geterogenlik pedagogik faoliyat tarkibida turli xil kelib chiqishi xilma -xil bo‘lgan elementlarning ifodalanishini anglatadi [41; 12-b].

Bilamizki, pedagogik jarayon o‘z tarkibiga ta’lim muassasalari, o‘quv – tarbiya, o‘quv-tadqiqiy hamda ma’muriy komponentlarni statikligi (bir vaqtda) mavjudligini qayd etadi. O‘quv faoliyatining geterogenligi algoritmlash, modellash, bilish, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlarning kombinatsiyasida ham namoyon bo‘ladi. Pedagogik bilimlarning ko‘p tizimli tabiati, u “ko‘plab turli tartibli tizimlar chorrahasida” joylashganligi bilan bog‘liq.

K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek, qaysidir ma’noda pedagogik bilimlar bilan aloqa qilmaydigan guruhlar, insonning bilish tarmoqlari deyarli yo‘q. “Faktlar va ularning munosabatlari taqdim etiladi va guruhlanadi, bunda ta’lim predmetining, ya’ni shaxsning xususiyatlari ochib beriladi” [104; 372-b].

Integrativ yondashuvga asoslangan konsepsiyalarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish ushbu xulosalarga olib keladi:

Hozirgi vaqtda pedagogikada ko‘rib chiqilayotgan manbalar guruhlarida aks ettirilgan umumiy integral yondashuvni to‘ldiruvchi juda ko‘p miqdordagi integral-pedagogik tushunchalar va tizimlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Biroq chindan ham yaxlit tasvirni yaratish, tushunchalar ichida (manbalar), tushunchalar o‘rtasida (manbalar o‘rtasida) va tushunchalar va manbalar o‘rtasida sintezni chuqurlashtirish sohasidagi integratsion ishlarni kuchaytirishni talab qiladi. Bu holda, albatta, integrativ yondashuv haqidagi qarashlarning nisbiy xususiyatini hisobga olish zarur.

## 1.2. Siyosiy ta’limni integratsiyalash turlari va didaktik tamoyillari

Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o‘quv jarayonini bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonining serqirra va o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, bo‘lajak siyosatshunoslik sohasida kadrlar tayyorlashda metodik fanlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi.

Turli fan elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o‘ziga xos o‘rganish predmetini o‘z ichiga olgan holda fanlarni xususiyatlariga ko‘ra bog‘lovchi kurslar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi.

Pedagogikada integratsiyalashgan kurslar tasnifini turli xususiyatlariga ko‘ra amalga oshirish mumkin: kursning maqsad va muammolariga ko‘ra; tabiiy-ilmiy tizimdagi fanlarning umumiy vazifalariga ko‘ra; fan tarmoqlarining o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra; o‘quv predmetlarining integratsiyalash usullari va yo‘llariga ko‘ra; fanlarning o‘quv rejasidagi o‘rniga ko‘ra; o‘quv predmetlari yoki mavzularini o‘rganish uchun ajratilgan vaqtga ko‘ra; beriladigan bilimlarning murakkablik darajasiga ko‘ra va h. k.

O‘quv predmetlarini tasniflashda va ulardan foydalanishda shuni e’tiborga olish kerakki, bu kurslarni tashkil etuvchilar odatda bir qancha maqsad va vazifalarni qo‘yadilar.

Shu sababli kurslar integratsion kursning maqsad va vazifalari tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirilishiga ko‘ra tavsiflanadi. Bilimning o‘quv rejasidagi o‘rni, ajratilgan soatlarning hajmi, shu kursni to‘la o‘zlashtirish vaqti, talabalarning o‘zlashtirish darajasi – ko‘p maqsadli va xilma-xilligi, ko‘p tarmoqliligi hamda ko‘p funksionalligi bilan tavsiflanadi.

Didaktik tizimda integrativ darslar bir nechta yo‘nalishlarda ifodalanadi:




**1.2. -rasm. Integrativ darslar yo‘nalishlari**

●*fanlararo integratsiya* – bunda ikki yoki undan ortiq asosiy fanlar g‘oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;

• ***yondosh fanlar integratsiyasi*** – o‘zaro yaqin aloqada bo‘lgan fanlarni integratsiyalash asosida yangi fanlarni vujudga keltirish. Buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;

• ***fundamental fanlar integratsiyasi*** – zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo‘luvchi fanlar va ushbu fanga tegishli bo‘lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

• ***yaxlit bir butun tizim bo‘lgan kompleks ob’ektlarni o‘rganish***. Bunda “koinot, “jamiyat”, “inson”, “muhit”, “tabiat” kabilarga oid bilimlar integratsiyalashtirib o‘rganiladi;

• ***mahalliy (tabiiy – ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar*** – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o‘rni haqidagi qarashlar integratsiyalashtirib o‘rganiladi;

• ***tabiat va jamiyat qonuniyatlaridagi yaxlitlikni tushunish va yaxlit shaxsiy munosabatni shakllantirish uchun tashkil etiladigan integratsiya***;

• ***ko‘rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar*** – evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar, antomimika, sahna ko‘rinishlari, namunali qiroat bilan o‘qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish topshiriqlarni o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llash;

• ***tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni*** hamda yaxlit integratsion asosda faoliyatni tashkil qilish zaruriyatini anglashga o‘rgatish;

• ***o‘quv rejasidagi o‘rganilishi belgilangan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-amaliy va texnik fanlarni mazmunan o‘zaro ta’sirini inobatga olgan holda integratsiyalash***;

• o‘quv jarayonini samarali rivojlantirishning eng maqbul usuli muammoni (o‘rganiladigan mavzuni) taqdim etishning innovatsion yondashuvlarini sifatli qo‘llay olish;

• ta’lim jarayonida tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni o‘zaro bog‘lashda o‘quv faoliyatini insonparvarlashtirish;

• tabiat-jamiyat tizimining ob'ektiv o'zaro munosabatlarni o'zlashtirishi bilim oluvchilar shaxsini shakllantirishni nazarda tutuvchi integratsion mashg'ulotlar tashkil etish;

• bilim oluvchilarda integratsion bilim, ko'nikma, malaka, tasavvurlarni hosil qilish;

• har bir o'quv materialini o'zlashtirishda talabalarda motivatsiyaning hosil qilinishi ushbu materialning o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, o'quv materiali haqida yaxlit tushuncha hosil bo'ladi va xotirada mustahkam saqlanadi, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurining rivojlanishiga olib keladi.

Integratsion kurslarning tashkil etilishi talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligi davomida quyidagi tafakkur shakllarini hamda nazariy-metodik malakalarni tarkib toptirishga yordam beradi:

• tabiiy ob'ektlar haqida ma'lumot berish orqali talabalarning shaxsiyatini shakllantirish;
pedagogik – psixologik tizimda fanlararo o'zaro aloqani shakllantirish;

• o'quv materiallarini anglash, jarayonga moslashish ko'nikmasini shakllantirishda yangi materialni tushuntirishda manbalarni turli fanlar kontekstidan izlash;

• mutaxassislik fanlarini o'qitishda integrativ kurslarni tizimli yo'lga qo'yish;

mutaxassislik fanlarini o'qitishda talabalarning kompleks bilimlarini shakllantirish integrativ usul va vositalar orqali amalga oshirib borilishini ta'minlashga erishish. Bu esa integrativ bilimlarni mustahkam o'zlashtirish va hissiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. [14; 60-66- b].

### *Ko'p predmetli integratsiya*

Siyosiy ta'lim fanlari metodikalarini integratsiyalash jarayonini universal yoki bir necha asosiy metodik kurslarni birlashtiruvchi umumiy kurs deb ham atash mumkin. Metodist olimlar ta'kidlashlaricha, bu an'anaviy pedagogik ta'limda ham metodik fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar siyosiy ta'lim metodikasiga faqatgina umumiy metodika asoslarini birlashtirib o'qitish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Metodik fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ularni integratsiyalab o'qitish

hamda umumlashtirilgan kurslarni tashkil etish muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday kurslar talabalarga kasbiy bilimlarni o'rganishga motivatsiya beradigan integrativ ma'ruza-amaliy mashg'ulotlari kiradi.

***Yondosh fanlar integratsiyasi asosida tuzilgan kurslar***

Integratsiyali ta'lim talabalarning o'rganilgan predmetlar mazmunidagi g'oyalar, tushunchalarni bog'lovchi yangi integrativ-amaliy kurslarni tashkil etilishiga sabab bo'ladi [14; 60- b].

Siyosiy ta'lim fanlarining metodikasini kuzatish davomida har bir metodikada o'zaro aloqador mavzular, umumiy tushunchalar kiritilgani ko'rinadi.

***Fundamental fanlar asosida tuzilgan kurslar.***

Bunday kurslar zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fundamental fanlar asosida tuziladi. Fundamental fanlar tarkibiga bir-biriga bog'liq pedagogika, psixologiya, fiziologiya kabilar kiradi [14; 60- b].

Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan sistemalarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilanishi. Bu pedagogik ta'limdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

***Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar***

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: "materiya", "harakat", "modda", "maydon", "energiya" va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli tabiatni saqlash qonuni, odamlarning ish faoliyatlari tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy-ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovushmaganligi va ma'lum ketma-ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi.

Fan evolyutsiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar tashkil qiladi.

Yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tatbiq etishga katta imkoniyatlari bor. Bunday kurslar bo'lajak

siyosatshunoslarga kelajakdagi faoliyatida qo'llanuvchi materialning va o'qitish uslubining murakkabligi va samaradorligi bilan farqlanadi.

Ushbu kurslar ma'lum bir ma'noda tabiiy fanlar samarasiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi hamda kursda bir ob'ekt turli fan nuqtai nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida o'qitish jarayonida keng qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, ammo bugungi kunda bunday integrativ kurslarga yana ehtiyoj paydo bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim fanlari doirasida talabalar ongiga o'rganiladigan ob'ekt to'g'risida yaxlit tushuncha berilishiga erishiladi. Ushbu bilimlarni berish jarayonini ham metodik nuqtai nazardan umumlashtirishga bo'lgan talab talabalarga kompleks metodik bilimlar berishni taqozo etadi.

***Turli muammolar asosidagi integrativ kurslar***

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tatbiq etishga doir juda ko'p izlanishlar olib borilgan. Metodik kurslarni intgeratsiyalashda metodik bilimlarning lokal, ya'ni faqat bitta fan metodikasiga tegishli va global, ya'ni bir nechta fanlarni o'qitish metodikasiga aloqador muammolar farqlanadi. Metodik integrativ kurslarni tashkil etishda ushbu muammolarning har tomonlama yechimini tadqiq etishga e'tibor qaratiladi. Bunday kurslar savod o'rgatish davridagi muammolar yoki sinflar kesimida umumiy muammo yechimiga qaratilgan integrativ kurslar tarzida tashkil etilishi mumkin.

Umumiy metodik muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ladi.

***Pedagogik faoliyat mazmuni birligi asosidagi integrativ kurslar***

Bo'lajak siyosatshunoslik sohasi kadrlarining o'quv-uslubiy ko'nikmalarini rivojlantirishda bevosita ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishiga bog'liq. Shu sababli ham pedagogik faoliyatning umumiy yaxlitligiga asoslangan, ammo shu bilan birga uning har bir elementlari haqidagi ma'lumotlarni tanishtirishga mo'ljallangan umumiy kursni tashkil qilish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. Ushbu integrativ kurslar ta'lim jarayonida qulay samaradorlikka ega va natijaga erishishda, ortiqcha kuch sarf qilish muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bunday metodik integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik

fanlarni o‘zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda beriladigan ko‘p sonli metodik fanlar tizimi bo‘lajak siyosatshunoslarda nazariy-metodik kompetensiyalarni shakllantirishga yuqori darajadagi natijalarga erishishga yordam bermayapti.

Metodik tamoyillar ta’lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o‘qitish tamoyillaridir. Bu tamoyillar esa pedagogik tizimning asosini hamda dastlabki vaziyatni belgilab berishga xizmat qiladi.

Har bir o‘quv predmeti jamiyat hayotidagi mavjud narsa-hodisa hamda jarayonlarning ilmiy qonuniyatlarini asoslab berishga xizmat qiladi. Bu ta’lim oluvchilarga tabiat va ijtimoiy taraqqiyotning mohiyatini anglashga imkon beradi. Mazkur tamoyillar boshlang‘ich ta’limning mazmun-mohiyatini ham aniqlab beradi.

Taklif etilgan didaktik tamoyillar hech qachon o‘z tuzilishini, muntazamligini va tasnifini bir xilda saqlab qola olmaydi. Ular davr, ijtimoiy taraqqiyot va ta’lim tizimiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablarga qarab o‘zgaradi va shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan ba’zi prinsiplar ahamiyatsiz bo‘lib qoladi, boshqalari esa takomillashtiriladi va yangilanadi.

Binobarin, didaktik tamoyillar o‘qitiladigan fanlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan birga, jamiyat talabi asosida yangilanib boradi.

Zamonaviy sharoitda taklif etilgan tamoyillar ta’lim oldidagi jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablarni qamrab oladi va ta’lim tashkilotining xususiyatlariga javob beradi. U didaktik jarayonda komponentlar bog‘liqligini nazarda tutadi.

Yuqorida tilga olingan didaktik g‘oya va tamoyillar ta’lim jarayonini jamiyat talablaridan kelib chiqib tashkil etish imkonini beradi. Bu esa integratsiyaning ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga integrativ pedagogika tamoyillaridan tizimli foydalanish shart-sharoitlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

“Siyosatshunoslik” fani mavzulari mazmuniga geosiyosat, siyosiy tahlil, xalqaro xavfsizlik, xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar tushunchalari integrativ holda qo‘llanilsa, o‘quv-tarbiya jarayonida hamda talaba bilish faoliyatida rivojlanish kuzatiladi. “Siyosatshunoslik” fani mavzularini integratsiyalash jarayonida bir

qator ta'lim tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq. Mazkur tamoyillar:

1. Ilmiylikka asoslanganlik tamoyili;
2. Nazariya va amaliyotning birligi;
3. O'qitish va tarbiyalashning muntazamligi;
4. O'qitishda tarixiylik tamoyili;
5. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili;

Yuqoridagi tamoyillarga ko'ra o'quv fanlari metodikasi aloqadorligini ta'minlashda ularni quyidagi tarzda tatbiq etishga harakat qildik:

Ilmiylikka asoslanganlik tamoyili – mazkur tamoyil o'z mohiyatiga ko'ra yangi o'zlashtiriladigan mavzuning yutug'i nafaqat ta'lim mazmunida namoyon bo'lishi, balki u yoki bu fanning asosiy qismini, fanning o'ziga xos xususiyatlarini va talabalar bilimini rivojlantirishni hisobga olgan holda tashkil etishi kerak. Didaktik jarayonda o'rganishni faoliyat natijasi sifatida emas, balki faoliyat jarayoni sifatida qabul qilish kerak.

O'qitishning ilmiy prinsipiga ko'ra, talabalarga faqat ilmiy jihatdan to'g'ri va ularni chalkashtirmaydigan ma'lumotlar, ya'ni o'rganilgan faktlar, hodisalar, qonunlar, qoidalarning haqiqati, ularning fanning eng so'nggi yutuqlari bilan uyg'unligi haqida ma'lumot berilishi kerak. Ilmiylik tamoyili o'z navbatida:

- o'rganilayotgan materialdan chiqarilgan xulosalarning asosliligi va isbotlanganligi;
- dasturning har bir savolini umumiy nazariy va umumilmiy mafkuraviy pozitsiyadan o'rganish;

Darsning barcha bosqichlarida mavzu mazmunidagi eng muhim savollarga alohida e'tibor berilgan holda talabalarda umumiy bilim, ko'nikmalarni shakllantirish masalalari to'liq amalga oshirilishi kerak. "Siyosatshunoslik" fani mavzulari bo'yicha bilimlarini o'z tajribalarida sinab ko'radilar va fanlararo kontekstda mumkin bo'lgan sharoitlarda qo'llaydilar. Xuddi shu tizimli faoliyatga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning ilmiy xarakteri namoyon bo'ladi. Bu tamoyilga ko'ra, har qanday talabaning og'zaki yoki yozma javoblarida yo'l qo'yilgan xatolar hech qachon o'qituvchi e'tiboridan chetda qolmasligi va darhol tuzatilishi kerak.

***Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili***. "Siyosatshunoslik" fani doirasida talabalarning o'zlashtirilgan bilimlari o'z-o'zidan emas,

talabalarning nazariy bilimlarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish orqali erishiladi. Shunday ekan, talabalar har bir fan doirasida nazariy-metodik ko'nikmalarni rivojlantirib borishlari maqsadga muvofiq. Bu nazariya va amaliyotning birligini ta'minlashning yagona yo'li. Amaliy harakatlar talabalarga dunyoni yaxlit va tizimli tushunish ko'nikmalarini o'rgatadigan bilimlarning funksional tomonlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Amaliy topshiriqlar bir qator afzalliklarga ega bo'lib, siyosatshunoslik fanio'quv predmetlarining o'zaro bog'liqligi asosida mavzular mohiyatidan kelib chiqib tizimli foydalanish imkonini yaratadi. Shu boisdan, bu jihatlarni talabalar o'quv faoliyatiga rasmiy ravishda kiritish orqali qo'llab bo'lmaydi. Fanning mazmuni ma'lum talablar bajarilgan taqdirdagina turli fanlarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizningcha, amaliy faoliyat olib borish o'quv jarayonida sezilarli vaqtni oladi. Shuning uchun uni bajarish davomida samaradorlikka erishilganda nazariy materialni o'zlashtirganlik darajasiga ijobiy baho berish mumkin bo'ladi.

***Ta'lim-tarbiyaning muntazamligi tamoyili***. Har bir ishda mantiqiy bog'liqlik bo'lishi kerak. Shuning uchun o'qitishda chalkashlikka hech qachon yo'l qo'ymaslik lozim, ya'ni o'zlashtiriladigan o'quv materialining har bir keyingi bosqichi oldingi materialning mantiqiy davomi bo'lishi kerak, shundagina talaba o'zining oldingi bilimlaridan sezgir tarzda foydalanishi mumkin. Yangi materialni tushunish va o'zlashtirishga ehtiyoj sezadi. Bu talabning bajarilishini ta'minlash uchun o'qituvchi ichki va predmetlararo tashqi aloqalarni amalga oshirishi kerak. Buning uchun o'rganilgan bilim, ko'nikmalarning talabalar tomonidan qo'llanilishini doimiy nazorat qilib borish zarur.

***O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili***. Berilgan shartlar asosida o'qituvchi va talabalar uchun minimal vaqt va kuch sarflagan holda talabalarning ta'lim, bilim va rivojlanishida maksimal mumkin bo'lgan natijani ta'minlovchi o'qitish variantini oqilona tanlashdan iborat.

***O'qitishda tarixiylik tamoyili.*** O'rganilayotgan o'quv materialini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Siyosatshunoslik ta'lim mazmunini tanlashda tarixiylik tamoyiliga amal qilinsa, o'rganilayotgan o'quv materiali

boyitiladi, talabalar tomonidan yangi mavzuning puxta o‘zlashtirilishiga erishiladi. O‘qitishda tarixiylik tamoyili didaktshunos olimlar tomonidan XX asrning 50-yillarida umumdidaktik tamoyillar tasnifiga kiritilgan.

Siyosatshunoslik fanlari o‘z mohiyatiga ko‘ra talabaning bilim o‘zlashtirishlari, dunyoqarashini rivojlantirish, shuningdek, shaxs sifatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir-biri bilan aloqador o‘quv predmetlari tabiiy va ilmiy hodisalar, voqealar, jarayonlar to‘g‘risida kompleks tushunchalarga ega bo‘lishadi. Mazkur bilim, ko‘nikmalarni egallashda o‘qitishning tarixiylik tamoyiliga asoslanadi. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida fanlararo aloqadorlik asosida matematika bilan bog‘liq tarzda o‘tmishdagi buyuk shaxslarning tug‘ilgan va yashab o‘tgan vaqti, asarlari yozilgan sanalar, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ilmiy merosi va axloqiy qarashlari bilan talabalar tanishtiriladi. Bunda talabalar xotirasi, his-tuyg‘usiga ta’sir ko‘rsatishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashida matematik tushunchalarning o‘rni beqiyosdir.

Didaktikada dars jarayonida yangi mavzuni tez va sifatli o‘zlashtirish taqozo etiladi. Zero, ***o‘quv jarayonini jadallashtirish tamoyili*** qisqa va mazmunli dars o‘tishga borib taqaladigan didaktik hodisadir. Fanlararo aloqadorlik asosida har bir dars jarayonida bir necha darslarning o‘xshash mavzularidan misollar keltirib, foydalanish ko‘p vaqtni talab qiladi. Biroq ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv predmetidan dars beradigan o‘qituvchi bir soatlik dars jarayonida o‘rganilayotgan mavzuni nihoyatda vaqtni tejagan holda, tez va mazmunli tarzda talabalar ongiga yetkaza olishi, ular xotirasida o‘tilgan mavzuning asosiy komponentlarining saqlanib qolinishiga erishishi lozim.

Dars jarayonida hosil qilinadigan motivatsiya murakkab pedagogik hodisa bo‘lib, u talabalarning xulqi, intilishlari, qiziqish va mayllariga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarining o‘rganilishida ushbu tamoyildan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi dars jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalangan holda motivatsiyaning quyidagi uchta-uyg‘otuvchi, yo‘naltiruvchi, fikr uyg‘otuvchi vazifalaridan foydalanadi. Bunda matematik tushunchalarning qo‘llanilishi talabalarda o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi,

fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘rganilgan mavzuning xotirada saqlanishiga imkoniyat yaratadi.

Matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini bir-biri bilan o‘zaro bog‘lash, ularning mantiqiy aloqadorligi va mazmundorligi taqdim etilayotgan o‘quv mashg‘ulotining mohiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Bir qator o‘quv fani doirasida o‘zlashtirilgan g‘oyalar, tushunchalar har bir fan mohiyatini ifodalovchi xususiyatlar, vositalar, qonuniyatlar, o‘zaro aloqadorlik jihatlarini hisobga olinishi lozim. Talabalar topshiriqlarni bajarish davomida fanlardan olingan bilimlarini qo‘llay olishlari kerak. O‘quv materiallari hajmini belgilashda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu albatta, talabalarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jismoniy va aqliy mehnat o‘quv materiallarini idrok etish jarayonining rag‘batlantiruvchi omili ekanligini hisobga olishi lozim. Shuning uchun o‘quv jarayonini talabalarning yoshi va fiziologik imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Ularda o‘quv materialiga nisbatan qiziqish uyg‘otish va diqqatini o‘zlashtirishga jalb etish darkor. Talabalarning idrok etish imkoniyatlari muntazam murakkablashib, o‘quv va amaliy masalalarni yechish jarayonida kengayadi. Ushbu murakkablashish ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlari bo‘yicha darslarda o‘quv fanlariaro aloqadorlik matematika asosida amalga oshiriladi. O‘qitishning fanlararo aloqadorlikka asoslangan tizimi talabalarni kasbga yo‘naltirish bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘qitish jarayonida ushbu tamoyillarni amalga oshirish uchun faqatgina nazariy bilimlarning muayyan hajminigina emas, balki uning ilg‘or sohalari, asosiy kasblar, o‘qitish texnologiyasini rivojlantirish tendensiyalari, iqtisod va mehnatni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi bilan mos ravishda tashkil etish asoslari haqidagi bilimlarni ham taqdim etish zarurdir. Talabalarga turli kasblar haqidagi ma’lumotlarni birgina fan o‘qituvchisi yetkazib bera olmaydi. Bu muammoni hal etishda barcha o‘quv fanlarining o‘qituvchilari birgalikda fanlararo aloqadorlikni ta’minlagan holdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Falsafiy, umumpedagogik, didaktik, psixologik va metodik manbalar tahlili asosida siyosatshunoslik fani o‘quv predmetlarini

o‘qitish metodikalarini integratsiyalab o‘qitish talabalarning pedagogik tayyorgarligida quyidagi funksiyalarni amalga oshirishini aniqladik:

- pedagogik turkumdagi fanlar tizimi asosida metodik fanlarning umumiy asoslarini belgilash va tizimlashtirish funksiyasi;
- metodik fanlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini o‘rganish va faoliyatda foydalanish funksiyasi;
- fanlardagi aloqadorlik jihatlarni integrativ kursda foydalanish orqali o‘rganiladiga material to‘g‘risida yaxlit tasavvurni hosil qilish funksiyasi;
- fanlarning uslubiy xarakterini o‘rganish asosida bo‘lajak siyosatshunoslik fanio‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini tizimli ta’minlash funksiyasi;
- integrativ kurslar asosida talabalarning metodik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga hissiy-axloqiy va shaxs sifatlarini ham rivojlantirish jarayonini jadallashtirish [14; 66- b].

## 1.3. Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyaning o‘ziga xos aspektlari

Ma’lumki, nazariy-metodik tayyorgarlik ma’lum bir faoliyat sohasidagi vazifani bajarishga samara beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bo‘lib, ba’zi adabiyotlarda ma’lum bir ishni, vazifalar guruhini bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatish jarayoni sifatida talqin etiladi. Pedagogning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda uning nazariy-metodik tayyorgarligini oshirib borishi muhim hisoblanadi.

Nazariy-metodik tayyorgarlik o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, albatta. Nazariy-metodik tayyorgarlik negizidan o‘qish-o‘rganish, jamoaviy-individual izlanish, tajribalarni o‘zlashtirish, qo‘shimcha o‘zlashtirish, o‘zini tarbiyalash kabi jarayonlar o‘rin olgan.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan bo‘lajak siyosatshunoslik sohasida kadrlar nazariy-metodik tayyorlash samarali tashkil etilgan ta’lim jarayonining barcha shakllarida yuqori natijalarga erishish, mehnat munosabatlarining barqarorligi va ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shartdir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurish va fuqarolik pozitsiyasining mustahkam poydevorini shakllantirish

O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan strategik maqsad sanaladi. Bu maqsad O‘zbekistonni fuqarolik pozitsiyasini barpo etish yo‘lidan dadil olib bormoqda. Fuqarolik pozitsiyasi – bu insoniyatning azaliy orzusi, istak-xohishi va uning nodir kashfiyotidir. Bunda jamiyat a’zolari o‘rtasida qonun ustuvorligi, erkin va mustaqil yashaydigan, ijtimoiy adolat qaror topgan, inson manfaatlarini ko‘zlab ish tutishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi. Shu bois, bu jamiyat halqning maqsadi, orzu-istaklarini o‘zida mujassamlashtirgan, insoniyatga kuch-qudrat, iymon-e’tiqod, sabr-toqat, adolatli hayot bag‘ishlaydigan jamiyat hisoblanadi. Zero, falsafiy-pedagogik manbalarda yozilishicha, fuqarolik pozitsiyasi – bu milliy qadriyatlar qaror topgan, qonun ustuvorligi ta’minlangan, insonparvar, adolatparvar jamiyat bo‘lganligi sababli kishilik jamiyati ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida ilg‘or fan namoyondalari demokratik jamiyat barpo etish to‘g‘risida izlanish olib borganlar.

Ilmiy-tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, fuqarolik pozitsiyasiga doir qarashlarning ildizlari antik dunyoga borib taqaladi. Jumlalan, uning unsurlari to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarning shakllanishi yunon faylasufi Aristotel (eram.ilgari 384-322 y.y.) nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “Siyosat”, “Ritorika”, “Afina politikasi”, “Etika” nomli asarlarida “demokratiya”, “fuqarolik pozitsiyasi” to‘g‘risida fikr yuritib, fuqarolik pozitsiyasini “siyosiy birlik – hamjamiyat” deb ataydi. Bunda inson “siyosiy mavjudot” sifatida talqin qilinadi. Chunonchi, Aristotel o‘z dunyoqarashini, g‘oyasini o‘sha davr siyosatidan ajralgan holda ko‘ra olmas edi. Zero, qadim yunon o‘lkasida oila, e’tiqod, ma’rifat, pozitsiya, san’at, umuman, hayotning barcha qirralari siyosatlashtirilgan edi.

Fuqarolik pozitsiyasi va uning tuzilishi to‘g‘risidagi qarash va ta’limotlar Yevropada ham uzoq davr oralig‘ida, asrlar davomida shakllandi va rivojlandi. Ayniqsa, XIII-XIV asrlarda G.Grotsiya, Spinoza, T.Gobbs va J.Lokkning asarlarida ko‘zga tashlandi. Keyinchalik N.Makiavelli, Sh.Monteske, I.Kant, A.Tokvil, J.Mill, G.Gegel nomlari va ta’limotlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Ayniqsa, Yevropada Tomas Gobbs o‘zining “Fuqaro haqida” deb nomlangan asarida davlat va hokimiyat to‘g‘risida so‘z yuritib, ular fuqarolik jamiyatining vujudga kelishini ta’minlaydi, deb uqtirishga harakat qildi. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy tasavvur va tushuncha sifatida takomillashib bordi.

Fuqarolik pozitsiyasi asosini xususiy mulk bilan bog‘liq holda iqtisodiy tarkib va bozor munosabatlari kesimida talqin qilgan mutafakkirlardan Georg Gegel hisoblanadi.

Akademik M.Sharifxo‘jayevning ta’kidlashicha, Gegelning fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi g‘oyasining bosh elementi – inson, uning holati, roli, funksiyalaridir. Faylasufning fikricha, ayrim shaxs o‘z maqsad ehtiyojlarini qondirish uchun yashaydi va xarakat qiladi, boshqa odamlar bilan ma’lum munosabatga kirmasdan o‘z manfaatlarini (tabiiy va ijtimoiy) to‘la amalga oshira olmaydi [127, 450].

Sharq falsafiy va pedagogik tafakkurida, ayniqsa, IX-XIV asrdagi ilk uyg‘onish davri mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning badiiy-falsafiy ta’limotlari hamda mamlakatni boshqarish to‘g‘risidagi qarashlarida ham fuqarolik pozitsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida qimmatli nazariy-amaliy fikrlar bayon etilganki, ular hanuzgacha o‘z mazmun-mohiyatini yo‘qotmagan. Zero, bu g‘oyalar milliy mafkura g‘oyalari bilan hamohangdir. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-950)ning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayxon Beruniy (973-1048)ning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning “Donishnoma”, “Hayy ibn Yakzon”, Yusuf Xos Hojib (1021 yilda tug‘ilgan, vafot etgan yili noma’lum)ning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”), Amir Temur (1336-1405)ning “Temur tuzuklari”, Alisher Navoiy (1441-1501)ning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lisonut-tayr”, Zahirriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning “Boburnoma” kabi asarlarida fuqarolik pozitsiyasi haqida so‘z yuritilib, bu jamiyat adolatli, fozil odamlar jamiyatidan tashkil topgan bo‘lishi, bu jamiyatda fuqarolar teng huquqga ega bo‘lib, o‘z hohish irodasini erkin namoyon etish maqomiga ega bo‘lishi hamda jamiyatda har bir faoliyat adolat bilan bajarilishi va adolat bilan boshqarilishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, bu jamiyatda fuqarolar jamoa bo‘lib yashashlari, mamlakat boshlig‘i esa zehni o‘tkir, bilimli, ma’rifatli, odil va haqgo‘y insonlarni sevadigan odam bo‘lishi kerak deb, qayd etilgan. Masalan, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” risolasida “Hukmdor, ya’ni shahar hokimi – zehni o‘tkir, har qanday narsaning alomatlarini tez ilg‘aydigan, ta’lim olishga, bilim egallashga, ma’rifatga havasli, haq va haqiqatni

sevadigan, odil va haqgo‘y, odamlarni qo‘llab quvvatlaydigan tabiatan adolatparvar bo‘lib, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlarini hurmat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni o‘zgalarga ravo ko‘ruvchi” [115,159-161] bo‘lishi lozim deb, qayd etilgan.

Amir Temurning “Temur tuzuklari”da bu jihat quyidagicha ifodalangan: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim” [103,94 -95].

O‘tmish mutafakkirlarining fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi ilmiy merosi va amaliy ishlari nafaqat hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-siyosiy hayotning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki bu yo‘nalishdagi amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi O‘zbekistonni barpo etish, fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirish yo‘lida paydo bo‘layotgan to‘siqlarni bartaraf etishga dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Zero, o‘tmish ajdodlarimizning boy ma’naviy-ma’rifiy merosi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tashkil etish va rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizi, fuqarolik pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy belgilarini o‘rganish va amalga tatbiq etishning manbaidir.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati – inson sotsiumining mustaqil tizimi, insonparvarlar jamiyatidir. Bunday insonparvar, erkin va mustaqil jamiyatni barpo etishga O‘zbekistonda 1991 yil sentabrda – milliy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng imkoniyat tug‘ildi va bu yo‘nalishda O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. Bu yo‘l Respublikaning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganidek: “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir” [21,15]. Binobarin, bunday jamiyatda qonun ustuvor bo‘ladi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari qonun doirasida himoya qilinadi. Shunga binoan, fuqarolar siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotga faol, mustaqil va ijodiy ishtirok

etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu yo‘sinda davlat jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etsa, o‘z navbatida, jamiyat davlatning mustaxkamlashuviga hamda barcha sohalarning takomilllashuviga yordam ko‘rsatadi.

“Biz uchun fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy makon, - deb yozgan edi Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - bu makonda qonun ustuvor bo‘lib, u insonning o‘zini-o‘zi kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to‘la darajada ro‘yobga chiqishga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtning o‘zida amal qiladi, bir-birini to‘ldiradi va bir-birini taqozo etadi” [21,554].

“Fuqarolik pozitsiyasini ideal holda tasavvur qiluvchilarning ta’kidlashicha, - deb yozadi akademik M.Sharifxo‘jayev, – bu jamiyat ochiq odil jamiyat bo‘lib, unda erkin va teng huquqli shaxslar istiqomat qilishadi, ular o‘z fuqarolik hamda siyosiy huquqlariga ega bo‘lishadi, davlatni boshqarishda faol ishtirok etishadi, fikrlarini oshkora aytish, ehtiyojlarini har tomonlama qondirish, o‘z maqsadlariga mos keladigan uyushma va tashkilotlar tuzish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi” [127,5].

Hozirgi davrda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasini barpo etish nazariyotchilari (I.A.Karimov, M.Sharifxo‘jayev, A.T.Azizxo‘jayev, U.Egamberdiyeva, N.Aliqoriyev, Sh.Jalilov, A.Jalilov, M.Qirg‘izbayev, M.G‘ulomov, S.Raupov, K.Kalonov va boshqalar)ning qayd qilishicha, “fuqarolik pozitsiyasida siyosiy, iqtisodiy hayotda fuqaroning faol ishtiroki va taraqqiyotning barcha sohasida ishtroki, tashabbusi kengayadi, imkoniyati oshadi”. Ayonlashadiki, demokratik jamiyatda davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida shaxslar, mehnatkashlar manfaatiga xizmat qiluvchi munosabatlarni vujudga keltiradi. Oqibat – natijada, davlat jamiyatning shakllanishi, rivojlanishining tezlashishiga ijobiy ta’sir eta boshlaydi. O‘z navbatida, fuqarolik pozitsiyasi ham davlatning mustahkamlanishiga, takomillashishiga keng sharoit va imkoniyat yaratadi. Natijada, davlat ichida va jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy mavqei oshadi hamda shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlari davlat tomonidan himoyalanadi. Bu esa inson faoliyatida ijodiy izlanish, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlikning aniq namoyon

etilishini ta'minlaydi. bu fuqarolik pozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyati – bu fuqarolarning davlat boshqaruvida faol qatnashuvi, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida ahloqiy-huquqiy qonunlar ustuvorligini aniq anglash orqali ifodalanadi. Bu jamiyatda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy hayotda faol, iqtisodiy-ma'naviy faoliyatda tashabbuskor, tadbirkor bo'lishi lozim. Shu bois, bu jamiyat fuqarolari, o'z manfaatini, xalq manfaati, davlat manfaati bilan uyg'unlikda namoyon etishga, o'z axloqiy-huquqiy burchi doirasida faoliyat yuritishga o'rganishi talab etiladi. Mana shu axloqiy-huquqiy burchni ro'yobga chiqarish maqsadida milliy ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizni tiklash, ular asosida yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashni yo'lga qo'yish davlat siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Demak, ochiq fuqarolik pozitsiyasi, avvalo, barkamol, har tomonlama rivojlangan insonlarga ehtiyoj sezadi. Zero, har tomonolama rivojlangan inson aql-zakovat egasi bo'lib, yaratuvchilik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik fazilatlarini o'zida tarkib toptirgan, Vatan va xalqiga mehr-muxabbat ko'rsatadigan, faxr va iftixor tuyg'ulari bilan yashaydigan, axloqiy-huquqiy burchni, elat va millat oldidagi mas'uliyatni teran anglaydigan shaxsdir. Shularni inobatga olib, milliy mustaqillikni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, halqimizning ma'naviy merosini mustahkamlab, rivojlantirishda o'z imkoniyatini erkin namoyon etadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatning ustuvor vazifasi qilib belgilandi va bunday insonni tarbiyalab voyaga yetkazishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanining muhim masalalaridan biri sanaladi. Shunga binoan, O'zbekiston milliy pedagogika nazariyasi va amaliyotida bu yo'nalishda ko'pgina tadqiqot ishlari olib borilib, dissertatsiyalar yozildi, risolalar va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Jumladan, "Talabalarning axloqiy pozitsiyasini shakllantirish muammolari" bo'yicha U.I.Mahkamovning risolasi nashr qilindi [65]. Unda jamiyat kishilarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy pozitsiyasi xususida fikr yuritilib, "Axloqiy pozitsiya-insonni ma'naviy va madaniy jihatdan kamolotga yetkazuvchi, kishi faoliyatini va pozitsiyasini belgilovchi, odamning ma'naviy yetukligini, tarbiyali ekanligini, insoniy fazilatlarini, kishi qadrini oshiruvchi qimmatli sifatdir. U ta'lim-tarbiyaning asl

mevasidir. Aqlning suyanchig‘i hisoblangan axloqiy pozitsiya barcha fazilatlarning sha’ni va hikmati” ekanligi qayd qilingan [65,91].

S.Ochilov tadqiqotida “mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi yoshlar ma’naviyati va pozitsiyasini shakllantirishga” qaratilganligiga urg‘u beriladi [83]. Bu haqda muallif o‘zining “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari” nomli monografiyasida shunday yozadi: ”Ma’naviyat va pozitsiya deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovat va himmatliligi, olijanobligi, va’dasiga vafodorligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari urf-odatlar tushuniladi” [83,15]. Bunda ma’naviyat va pozitsiya mustaqillikni mustahkamlash uchun, avvalo, yoshlarda mustaqillik ma’naviyatini tarkib toptirish, kelajakka ishonch ruhini shakllantirish, tinchlikni ta’minlash uchun qudratli kuch ekanligi uqtirilib, uzluksiz ta’lim tizimi buni amalga oshirishga mas’ulligini ta’kidlaydi.

Taniqli olima, professor O.Musurmonova o‘z izlanishlarini talaba-yoshlar ma’naviy pozitsiyasini shakllantirish muammolarini tadqiq qilishga yo‘naltirdi va bunda ma’naviy qadriyatlar, adabiyot fanini yuqori sinf talabalarida o‘qitishda ularning ma’naviy pozitsiyani shakllantirishning muhim omili sifatida qayd qiladi. O.Musurmonovaning fikricha, “Ma’naviy pozitsiya yangi moddiy ehtiyoj va talablar, yangi texnika va texnologiya, yangi qulayliklar, farovonlikka mos holda shakllanishi zarur. Shu bois, “Ma’naviy pozitsiyaning mohiyati, talaba shaxsida tashabbuskorlik, faollik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirishga davlat qonunlari asosida qaratilgan bo‘lishi kerak” [71,6].

M.K.Hoshimov o‘zining talaba-yoshlarning axloqiy shakllanishi yo‘nalishida tadqiqot ishini olib borib, “Talabalarning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari” mavzusida yozilgan doktorlik dissertatsiyasida talaba-yoshlarda axloqiy munosabat, axloqiy pozitsiya, axloqiy his-tuyg‘u, axloqiy ong, axloqiy xulq-atvor, axloqiy e’tiqodni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari yangi pedagogik konsepsiya asosida yoritilgan bo‘lsa, M.Inomova, 3.Ismoilova, Sh.Olimovlarning doktorlik dissertatsiyalarida oilada, umumiy o‘rta ta’lim va kasb-hunar maktablarida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasiga doir fikrlar bayon etilgan.

Jumladan, Z.K.Ismoilovaning tadqiqotida “axloq”, “ma’naviyat”, “axloqiy ong”, “axloqiy tafakkur” tushunchalarining falsafiy, pedagogik, psixologik asoslari ochib berilgan. “Axloq – arabcha so‘z bo‘lib, u «xulq»ning ko‘pligidir. U odamlarning oilaga, bir-birlariga, mahallaga, do‘st-birodarlariga, hamkasblariga, ustoz-shogirdlarga, xalqiga, millatiga, Vatanga, jamiyatga nisbatan muomala munosabatlarida sodir bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulqiy qoidalarning majmuasidir, deb qayd etilgan bo‘lsa, “Axloq dunyoni bilishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, kishilar xulq-atvorini yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan tartibga soladi. Axloq inson uchun nihoyatda muhim hisoblangan xulq-atvor me’yorlarini shakllantirib, ijtimoiy hayot, inson madaniy hayoti, ijtimoiy qadriyatlar dunyosiga to‘g‘ri yondashish vazifasini bajaradi”, - deb ta’riflaydi Sh.Sh.Olimov [79,13].

Barkamol avlod tarbiyasini yana bir yangi pedagogik fenomen “fuqarolik pozitsiyasi” pedagogik atamasi bilan to‘ldirish maqsadida, biz faoliyatimizni “Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi” muammosini tadqiq qilishga yo‘lladik. Chunonchi, fuqarolik pozitsiyasi rivojlangan har qanday inson jamiyatni takomillashtirish va demokratik huquqiy davlatni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadigan, aql-zakovatli, ma’naviy-axloqiy salohiyatli, yaratuvchi, bunyodkor, tashabbuskor mutaxassis bo‘lib, o‘z insoniy-kasbiy burchiga ma’suliyat bilan qaraydigan, o‘ziga nisbatan talabchan, halol, davlat, jamiyat xalq oldidagi mas’uliyatni sezadigan, muayyan mamlakatga mansubligini tushunadigan va shu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ma’naviy-siyosiy hayotini rivojlantirishda faol ishtirok etadigan, uning ravnaqi uchun kurashadigan shaxs bo‘ladi.

“Fuqarolik pozitsiyasi” tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lganligi sababli, faylasuflar, siyosatshunoslar, jamiyatshunoslar, yuristlar, pozitsiyashunoslarning risolalarida, tadqiqot ishlarida ko‘zga tashlanib, unga berilgan ta’riflar, izohlarni uchratish mumkin. Shu bois, “falsafa, sotsiologiya, pozitsiyashunoslik, etika, estetika, ma’naviyatshunoslik, pedagogika kabi fanlarga oid yozilgan o‘quv darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, izohli lug‘atlar, ensiklopetsiyalarda “fuqarolik” va “pozitsiya” tushunchalariga ta’riflar, izohlar berilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, Pedagogika fanidan yozilgan izohli lug‘atda “fuqaro” va “fuqarolik”

tushunchalarida quyidagicha izoh berilgan: Fuqaro – shaxsning huquqiy asoslar orqali ma'lum davlatga mansubligi. Shaxs fuqaro hisoblansa, ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Fuqaroning huquqiy holati tegishli mamlakatda fuqarosiz shaxslarning yoki xorijiy mamlakatlar fuqarolarining huquqiy holatidan farq qiladi. Masalan, siyosiy huquqlar faqat fuqarolarga taalluqli bo'ladi.

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lishi, shu davlatga mamlakat ichida ham uning tashqarisida ham mansubligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi [136,545].

Shuningdek, "Pedagogika" o'quv darsligida "Fuqaro" – huquqiy asoslar orqali ma'lum davlatga mansub shaxs, – deb ta'riflanib, "Fuqarolik" – bu shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lgan, shu davlatga, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansubligi, shu mansubligi huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlanganligi" [85,196], - deb izohlangan. Shular kabi izohlarni biz "O'zbek tilining izohli lug'ati"da, "Falsafa qomusiy lug'ati"da, "Vatan tuyg'usi" risolasida, shuningdek, ijtimoiy fanlar bo'yicha yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda uchratamiz. Shu ma'noda "Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati" to'plamida fuqarolik atamasiga shunday izoh berilgan: "Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalanishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalanishi tushuniladi" [69, 288]. Bu izohlarda fuqarolik muayyan mamlakatda yashab, faoliyat olib borayotgan, uning haq-huquqlari, sha'ni, g'ururi shu jamiyat qonunlari, direktiv hujjatlari tomonidan nazoratga olinganligi, himoyalanganligi, shuningdek, har bir fuqaroning jamiyatdagi o'rni, mavqei mamlakatda qabul qilingan Konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunlar, me'yoriy xujjatlar asosida muhofaza qilinganligi ta'kidlangan.

Endi " pozitsiya" atamasiga berilgan ta'rif va izohlar bilan tanishib chiqaylik. "Pozitsiya" tushunchasi manbalarda izohlanishicha, bu ibora eramizdan oldin va eramizning turli tarixiy davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, siyosiy-ma'rifiy hayot istilohida bo'lib, turmushning dolzarb masalalaridan birini ifodalagan. Shundan "pozitsiya" tushunchasining nazariyasiga asos solinib, uning rivojlanish tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda "pozitsiya" tushunchasiga berilgan izohlar, ta'riflar, talqinlarni, turli ijtimoiy fanlar mazmunida uchratish mumkin. Masalan, falsafa qisqacha izohli lug'atida "pozitsiya" atamasidan olingan bo'lib,

parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi. pozitsiya ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilgan barcha moddiy va ma’naviy yutuqlarning majmuidir” [112,196], – deb talqin qilinsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “pozitsiya – jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar majmui”, – deyiladi va yana bir joyida, – “o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifatli” [136,439], – deb ta’riflanadi. Demak, bu ta’riflarda pozitsiya tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda moddiy va ma’naviy boyliklarning nazariy negizini tashkil qilishga yo‘naltirilgan, insonlarning o‘qimishliligi, ta’lim-tarbiya ko‘rganligini ifodalaydigan kuch deb hisoblash mumkin. Shuning uchun ham u ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning jismoniy-ma’naviy asosiga, shaxs kamolotiga munosib hissa qo‘sha oladigan ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.

Binobarin, bugungi milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish hamda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi vazifalarini to‘la amalga oshirish, ma’naviy poklanish va yuksalish uchun kurash avj olib borayotgan bir davrda pozitsiya nazariyasini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish va pozitsiyaga inson kamolotining muhim omili sifatida qarash muhim pedagogik zaruriyatdir.

Pozitsiyani moddiy va ma’naviy omillarning birligi, uyg‘unligida e’tirof etish, uni shaxs kesimida qarash uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu ma’noda u fuqarolik pozitsiyasi yo‘nalishlarini belgilash imkonini yarata oladi. Zero, moddiy omil, o‘z navbatida, ma’naviy omilni to‘ldirsa, shuningdek, ma’naviy omil ham moddiy omilning butunligini ta’minlashga yordam beradi. Shuning uchun ham ularning birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, ya’ni fuqarolarning moddiy ehtiyojlari ma’naviy omillar orqali qondirilsa, ma’naviylik moddiylik asosida tarkib topadi, deb qaraydigan bo‘lsak, fuqarolarning barkamolligini ta’minlashda pozitsiya harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Shu ma’noda jamiyat, inson va pozitsiya tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Jamiyat insonlarsiz, pozitsiyasiz rivojlanmaganidek, pozitsiya ham jamiyatdan, inson hayoti va faoliyatidan tashqarida bo‘lishi va rivojlanishi mumkin

emas. Chunonchi, jamiyatning moddiy va ma’naviy rivoji madaniy-ma’rifiy omillarning yaxlitligida shakllanadi va takomillashadi.

Pozitsiya tushunchasining ontologik, mantiqiy, gnoseologik izohlarini faylasuflar E.Yusupov, M.Xayrullayev, S.Shermuhammedovlar, pozitsiyashunos olimlar M.Abdullayev, M.Miryusupovlarning asarlarida uchratish mumkin. Masalan, E.Yusupov “pozitsiya” atamasini gnoseologik nuqtai nazardan izohlab, shunday yozadi: “pozitsiya – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayoti sohasida yaratgan, o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma’naviy boyliklar tizimidir” [132,60].

“Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘ati”da pozitsiyaga “moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o‘zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta’lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko‘rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog‘liq keng qamrovli voqeadir” [73,104], – deb ta’rif berilgan bo‘lsa, “Sotsiologiya” o‘quv qo‘llanmasida “pozitsiya” atamasi keng ma’noda qo‘llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy-ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan shunday yutuqlar majmui, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan shunday yutuqlar darajasini, o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik va ma’rifatlilik kabi fazilatlarning yig‘indisini anglatadi va shu sababli “pozitsiya kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, maqsadli sa’y-harakatlari natijasida moddiy va ma’naviy qadriyatlar bo‘lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo‘lgan ijtimoiy hodisadir”, – deb, sotsiologik nazariya nuqtai nazaridan izohlanadi.

Ilmiy-nazariy ta’limotlar va tadqiqotimiz natijalari shundan dalolat beradiki, pozitsiya uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Qadimda qishloqlarda dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularga ishlov berish, parvarish qilishning pozitsiyasiga ega bo‘lish ehtiyojini keltirib chiqargan. Shuning asosida odamlarda dehqonchilik va chorvachilikdan unumli hosil olish uchun bilimga, ta’lim-tarbiyaga zarurat tug‘ilgan. Bilim egallash, ta’lim-tarbiya ko‘rish insonlarning o‘qimishli, savodli bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bunday xususiyatli kishilarni pozitsiyali insonlar deb hisoblaganlar. Shu asosda ong, mehnat, nutq, tafakkur rivojlanib borgan. Natijada, hunarmandchilik, arxitektura, savdo-sotiq, ilm-fan, san’at, ta’lim-tarbiya takomillashgan. pozitsiyaning moddiy va ma’naviy jihatlari

rivojlanishi kasblarning ko‘payishiga, bu esa, o‘z navbatida, tarbiyaning ixtisoslashgan ko‘rinishlarda vujudga kelishiga olib kelgan. Odamlarning pozitsiya muammosiga oid to‘plangan tajribalari tarbiya orqali bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash orqali amalga oshgan. Shu tariqa, uni kelajak avlodga yetkazishga harakat qilganlar.

Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, bugun jahon hamjihatiga dadil kirib borayotgan, fuqarolik pozitsiyasini qurish ishlarini jadal amalga oshirayotgan O‘zbekistonda pozitsiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan mustahkam o‘rin egallamoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan O‘zbekiston Respublikasida pozitsiyani va shu asosda fuqarolik pozitsiyasini yoshlar faoliyatiga tarkib toptirish kun sayin o‘sib borishining bosh sababi ham shudir. Zero, kelajagi buyuk davlatning barkamol yoshlarini voyaga yetkazish, ularda, birinchi navbatda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir. Albatta, ularning negizida fuqarolik, fuqarolik burchi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik majburiyati muhim o‘rin egallaydi. Chunki fuqarolik va u bilan bog‘liq pozitsiyalar har bir yoshning doimiy izlanishida ko‘zga tashlanib, fikri-zikri, axloqiy-huquqiy faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishda takomillashib boradi. Bu esa insondan doimo madaniy jihatdan rivojlanib borishni toqazo etadi. Inson madaniy jihatdan mukammal bo‘lsagina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi narsa va hodisalarning yaratuvchisi, bunyodkori bo‘la oladi. Zero, hozirgi davr, xususan, fuqarolik pozitsiyasi – bu yaratuvchilar, bunyodkorlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlar jamiyatidir.

Yuqoridagi “fuqaro”, “fuqarolik”, “pozitsiya” tushunchalari bir-biriga yaqin, bir-birini to‘ldiruvchi, ifodalovchi tushunchalar ekanligini tahlil qildik. Chunki fuqaro pozitsiyani o‘z qo‘li, aql-zakovati bilan yaratsa, pozitsiya insonni aql-zakovatli, dono, bilimdon bo‘lishi uchun zamin tayyorlaydi. Shu sabab, tahlil qilib o‘tilgan tushunchalar uyg‘unlashib, insonning barcha ijobiy fazilatlari shakllanishi, rivojlanishini ta’minlar ekan, ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy-siyosiy hayotni aniq anglash, uning takomilini ta’minlash uchun muhim ijtimoiy-pedagogik zaruriyat kasb etadi. Shunga binoan, bu ikki tushuncha birlashtirilib, fuqarolik pozitsiyasi deb nomlanadi.

Demak, qayd etilgan falsafa, etika, estetika, sotsiologiya, pozitsiyashunoslik, pedagogika fanlari va lug‘atlardagi izohlarga asoslanib, fuqarolik pozitsiyasini dotsent B.Q.Xo‘jayev ta’riflaganidek, “Fuqarolik pozitsiyasi – bu fuqarolik madaniyatining poydevori,

huquqiy tizimning ifodasi kishilarning yetukligi sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni o'rganish, ularni asrab-avaylash, ko'paytirish, o'zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan foydalanishga qaratilgan, inson faoliyatining yuksak namunasidir", - deb ta'riflasak, pedagogik nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki fuqarolik pozitsiyasi rivojlangan insonlar faol, erkin, o'z haq-huquqini anglovchi, tadbirkor, ishbilarmon, tashabbuskor, bunyodkor shaxslar bo'lib, ularda fuqarolik burchi, mas'uliyati, majburiyati, tarbiyalanganlik darajasi, yuksak darajada tarkib topgan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotda ongli, mustaqil ishtirok etadigan o'z fikrlari, istak va maqsadlari, ijtimoiy talabga mos uyushma va tashkilotlar tuzish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Shunga binoan, har bir inson yoshlikdan boshlab, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasi talablari, ehtiyojlariga mos shaxsiy fazilatlarini ketma-ketlikda miqdor o'zgarishdan sifat o'zgarish tomon o'zlashtirib, o'zida tarkib toptirib boradi.

Yuqoridalarga asoslanib, aytish mumkinki, "Fuqarolik pozitsiyasi"ni rivojlantirish – bu talaba-yoshlar shaxsida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasini barpo etishga bo'lgan ehtiyojni tarkib toptirish, o'z Vatanining taqdiri, xalqaro maydondagi mavqeini, bugungi va kelajagini ko'ra oladigan va unga mas'uliyat bilan yondasha oladigan, ijtimoiy faol, siyosiy bilimlar va huquqiy ongni o'zida tarkib toptirgan, fidoyi, fuqarolik burchi, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Zero, bu jarayonda yoshlar bilim olish, kelajak faoliyatga tayyorlanish bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy-siyosiy va axloqiy-huquqiy hamda ma'naviy-siyosiy hayot kabi fuqarolik pozitsiyasining fazilatlarini o'zlarida tarbiyalaydilar. Shuning uchun ham bu tushuncha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun ham, fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirish uchun ham, yoshlarning ma'naviyatli, axloqli, mas'uliyatli bo'lishi uchun ham muhimdir.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda fuqarolik pozitsiyasi shaxsining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni kuyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi, deb qayd qilish mumkin (Qarang: 1-jadval).

Jadvalda ifodalangan fuqarolik pozitsiyasi shaxsning fuqarolik pozitsiyasining asosini uning siyosiy-ijtimoiy faolligi, fuqarolik

ma'suliyati va majburiyatini anglash, milliy umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, davlat ramzlari (bayrog'i, madhiyasi, tamg'asi, armiyasi, valyutasi)ning mazmun-mohiyatini anglash, Vatan ravnaqi, el-yurt farovonligi, xalq tinchligi uchun kurashuvchi, tadbirkor, tashabbuskor va ishbilarmon, millatlararo do'stlik, totuvlik va dinlararo bag'rikenglik va h.k.lar tashkil etadi.

**1-jadval**




**1-jadval. Fuqarolik pozitsiyasi shaxsining fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy tuzilmasi**

Bular bo'lajak siyosatshunoslarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hamda ma'naviy-siyosiy hayotning faol ishtirokchilari, bunyodkori, tashabbuskori bo'lishni ta'minlashga hizmat qiladi. Shuningdek, huquqiy-dyemokratik davlat barpo etish va fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirishning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shunga binoan, fuqarolik pozitsiyasi shaxsi uchun zarur bo'lgan quyidagi masalalarni o'z faoliyatiga tatbiq qilishga yordam beradi. Jumladan:

- mamlakatdagi har bir fuqaroni yoshlikdan boshlab, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi tezislar asosida tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda belgilangan besh

ustuvor vazifalarni bajarishni o‘zining fuqarolik burchi va mas’uliyati deb bilish;

- davlat ramzlari (bayroq, madhiya, tamg‘a, valyuta) va umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga sodiq qolish;

- xalqning ma’naviy merosini asrash, ko‘paytirish, o‘tmish ajdodlarimizning ta’limotini qunt bilan o‘rganish va ularni kundalik faoliyatga tatbiq etish;

- fuqarolik haq-huquqlari, burchi, mas’uliyati, majburiyatini to‘liq anglagan holda insonparvalik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini muntazam namoyish etish;

- milliy mafkura mazmunidan to‘liq xabardor bo‘lgan holda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni qurishning ishtirokchisi bo‘lish, buning uchun o‘zida ijtimoiy faollik, siyosiy onglilik, huquqiy bilimdonlik, iqtisodiy tadbirkorlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlikni namoyon etish;

- mamlakatdagi davlat, nodavlat jamg‘armalari, jamiyatlari, tashkilotlari faoliyatining asosiy ishtirokchisi bo‘lish;

- shaxsiy hayoti va faoliyatini fuqarolik pozitsiyasining tuzilmasi, mezonlari, omillari asosida tashkil qilib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasini barpo etishning ishtirokchisi va bajaruvchisi emas, balki bunyodkori hamda tashkilotchisi bo‘lish kabi Yangi O‘zbekistonning mehnatkashlariga xos va mos fazilatlarni rivojlantirishni manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Qayd etilganlarga asosan, shaxsning fuqarolik pozitsiyasi barkamol avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida mustaqillik yillarida yoshlarda bu fazilatni rivojlantirish davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarilib, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ustuvor vazifa sifatida qayd qilingan.

Bu vazifalarni to‘laqonli bajarish uchun Oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayonni yangicha tashkil etish lozim. Shu o‘rinda e’tirof o‘tib joizki, hozirgi vaqtda uzluksiz ta’limning barcha yo‘nalishlarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini integrativ yondashuv asosida tashkillashtirishga asosiy e’tiborning qaratilganligidir. Shunga binoan,

bugungi kunda uzluksiz ta'limda, o'quv predmetlarini integrativ yondashuv asosida o'qitish zarur. Bu birinchidan, fanlarni bir-biriga yaqinlashtirsa, ikkinchidan, fanlar mazmundorligini va bu orqali ta'limiy-tarbiyaviy masalalarni tezroq hal qilishga yo'l ochadi. Shularni e'tiborga olib, biz tadqiqotimiz jarayonida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari – "Siyosatshunoslikni o'qitish metodikasi", "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik pozitsiyasi", "Falsafa", "Bioetika", "Pedagogika. Psixologiya", "Tibbiyot kasbiga kirish" fanlarini o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llab, bo'lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni amalga oshirishni nazarda tutdik. Buning uchun, dastavval bo'lajak siyosatshunoslarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Zero, yosh va psixologik omil har qanday kasbni mukammal egallashga ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan va shunday bo'lib qolmoqda.

## Birinchi bob yuzasidan xulosalar

1. Pedagogik faoliyat tarkibida ta'lim, tarbiya, tadqiqot, ma'muriy va pedagogik faoliyat turlarining bir vaqtda mavjudligi qayd etiladi. Pedagogik faoliyatning getereogenlligi dizayn, konstruktiv, gnostik, tashkiliy va muloqot qobiliyatlarini birlashtirganligi bilan ham namoyon bo'ladi. Pedagogik bilimlarning ko'p tizimli tabiati, u "ko'plab turli tartibli tizimlar chorrahasida" joylashganligi bilan bog'liq. Shu bois integrativ-pedagogik adabiyotlar tahlili yangi integratsion-pedagogik tushunchalarni, xususan, integratsion-yaxlit yondashuvni yaratishda evristik-uslubiy ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin.
2. Pedagogik ta'lim jarayonini integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining yaxlit bir tizim sifatida amalga oshirilishi bilan bir qatorda, jarayonning samarali kechishini ham ta'minlaydi. Shu sababli mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarning ta'limga integrativ yondashuv mazmuni, talabalarning nazariy-uslubiy tayyorgarligi borasida olib borgan izlanishlarida integrativ yondashuvga asoslangan konsepsiyalarning ahamiyati alohida qayd etilgan.
3. O'quv fanlararo aloqadorlik qonuniyatlariga binoan amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq real vaziyatlardan foydalanish asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda bir qator

didaktik tamoyillar: ilmiylikka asoslanganlik, nazariya va amaliyotning birligi, oʻqitish va tarbiyalashning muntazamligi, oʻqitishda tarixiylik, oʻquv jarayonini jadallashtirish tamoyillari asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil qilish uchun quyidagi vositalar: oʻquv anjomlari, texnik vositalar, modellar hamda mahalliy omillarni hisobga olish, foydalaniladigan vositalarni tanlash ularning xususiyatiga muayyan ta’sir koʻrsatadi degan xulosaga keldik.

# II BOB. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASI VA KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

## 2.1. Bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish usullari

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat qurish va fuqarolik pozitsiyasining mustahkam poydevorini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan strategik maqsad sanaladi. Bu maqsad O‘zbekistonni fuqarolik pozitsiyasini barpo etish yo‘lidan dadil olib bormoqda. Fuqarolik pozitsiyasi – bu insoniyatning azaliy orzusi, istak-xohishi va uning nodir kashfiyotidir. Bunda jamiyat a’zolari o‘rtasida qonun ustuvorligi, erkin va mustaqil yashaydigan, ijtimoiy adolat qaror topgan, inson manfaatlarini ko‘zlab ish tutishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi. Shu bois, bu jamiyat halqning maqsadi, orzu-istaklarini o‘zida mujassamlashtirgan, insoniyatga kuch-qudrat, iymon-e’tiqod, sabr-toqat, adolatli hayot bag‘ishlaydigan jamiyat hisoblanadi. Zero, falsafiy-pedagogik manbalarda yozilishicha, fuqarolik pozitsiyasi – bu milliy qadriyatlar qaror topgan, qonun ustuvorligi ta’minlangan, insonparvar, adolatparvar jamiyat bo‘lganligi sababli kishilik jamiyati ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida ilg‘or fan namoyondalari demokratik jamiyat barpo etish to‘g‘risida izlanish olib borganlar.

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va takomillashtirish, mamlakatda sanoat va xalq xo‘jaligini fan-texnika hamda zamonaviy texnologiyalar asosida qayta qurish, ishlab-chiqarishni jadallashtirish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish inson omilini faollashtirishni talab etdi. Zero, inson mehnat faoliyatini qayta qurish, yangi va murakkab ijtimoiy hamda ilmiy texnik vazifalarni ijodiy hal etish zaruriyati, mantiqiy-ijodiy fikrlaydigan yuksak malakali hamda bilimli, siyosiy jihatdan chiniqqan mutaxassislarni tayyorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Buni aniq ko‘ra olgan Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yilni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlashni taklif etar ekan, “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish

borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish”[13,2]ni asosiy vazifa qilib belgiladi. Bu vazifani amalga oshirishning yagona sharti uzluksiz ta’lim tizimining bir bo‘g‘ini bo‘lmish oliy o‘quv-yurtlarining o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, uning mazmunini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish yaxlitligini ta’minlashga erishib, fanlarni o‘qitishda tizimli, integratsion yondashishni ta’minlashdan iborat.

Tizimli yondashuv, tizimlilik qismlardan tashkil topgan yaxlit narsa yoki hodisa ma’nosini anglatadi. Fanlararo tizimlilik har bir fanning o‘zga fanlar bilan o‘rganayotgan, tadqiq qilinayotgan masalalar, voqealarning o‘xshashlik tomonlari asosida birikkan yaxlit tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutsa, integrativ yondashuv narsa va hodisalar bo‘laklari yoxud qismlarining bir-biriga qo‘shilib, bir butunga aylanib yaxlitlanishini anglatadi.

Har ikki pedagogik tushuncha ta’lim-tarbiya jarayonida fanlar mazmunidagi ma’lumotlarning o‘xshash, yaqin, bir-birini to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi g‘oyalar, fikrlarni yuzaga keltiradi va o‘zlashtiriladigan bilimlar mazmunini yuksaltiradi, oshiradi hamda bilim oluvchining intellektual salohiyatini, dunyoqarashini boyitib, shaxsiy sifatlarini ijobiy tomonga rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogika, didaktika, metodika, falsafa, psixologiyaga doir adabiyotlarning tahlili intergatsion ta’limning o‘tmishdoshi sifatida XX asrning 20-30 yillarida fanlararo bog‘liqlikni (V.Ye.Yesipov), 60-70 yillarda fanlararo aloqani (I.D.Zverev, V.N.Maksimova, L.V.Tefasov, E.A.Turdiqulov), 80-90 yillarda esa ta’lim jarayonini integratsiyalash (Yu.M.Kolgin, L.V.Tarasov, R.G‘.Safarova, O.A.Abduquddusov va h.q.) masalalari amalga oshirilganligini ko‘rsatdi.

Ta’lim tizimida fanlararo bog‘lanish o‘rniga kelgan fanlararo aloqadorlik bir-biriga o‘zakdosh, mazmunan va mohiyatan yaqin bo‘lgan fanlar mazmunidagi ma’lumotlarni ilmiy ifodalash orqali fan, ta’lim amaliyoti integratsiyasini vujudga keltirishga, bilimlarni chuqurlashtirishga, kengaytirishga olib keldi. Zamon ishlab chiqarishi va uning ishlash texnologiyasi bo‘yicha yangi fanlarning yaratilishiga asos soldi, istiqbolli muammolarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlashning didaktik zamini bo‘lib xizmat qildi.

“Fanlararo aloqadorlik – deb yozadi taniqli rus pedagogi V.M.Maksimova - zamonaviy didaktik paradigma sifatida fanlar mazmunidagi o‘quv muammolarini kompleks (yaxlit) hal etish,

umumlashtirish va bir butun xulosa chiqarish imkonini yaratdi. Ayni paytda, ta’lim metodlari, usullarini faollashtirdi va turli o‘quv predmetlari mazmunidagi bilim, qo‘nikma, malakalarni tizimga solishni ta’minladi. Tizimli tahlilni yo‘lga qo‘yib, fanlararo aloqadorlikning tarkibi, tuzilishi va vazifalarini turli ob’ektlar bilan bog‘lab, o‘quv fani va o‘qitish jarayonining bog‘liqligini amalga oshirdi. Shuning uchun u zamonaviy didaktik prinsip hisoblanadi” [63,30].

O‘zbekistonlik pedagog A.Choriyev “Kadrlar tayyorlash tizimida fanlararo aloqaning ahamiyati” muammosini tadqiq qilar ekan, fanlararo aloqadorlik xususida shunday yozadi: “...fanlararo aloqa ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, biri-ikkinchisini to‘ldiradi, ortiqcha takrorlashlarga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ta’lim standartlarini, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda fanlararo aloqa qoidasiga amal qilish hayot talabidir” [126,348]. Muallif bu bilan barcha fanlar tabiat, jamiyat, tafakkur qonuniyatlarini o‘rganishda bir-biriga yaqinligini, bu yaqinlik esa aloqadorlikni to‘ldirishini va shu asosda ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashini ta’kidlaydi. “Fanlararo aloqadorlik, – deb yozadi B.Abdullayeva, – faqatgina fanlarni o‘rganishda umumiy ijtimoiy maqsadlar asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishish vositasi emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir” [22,42].

Mazkur omillar va o‘tgan asrning 80-90 yillarida fanlararo aloqadorlik deb emas, balki ta’lim jarayonini integratsiyalash nomi bilan yuritila boshlanib, u voqelikni bir butunlikda o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda anglashni yo‘lga qo‘yib, fanlarning bir-biriga o‘xshash tomonlarini ilmiy asoslashga yordam berdi. Keyinchalik pedagogik matbuotda, ilmiy jamoatchilikda integratsiya g‘oyasiga bag‘ishlangan maqolalar, o‘quv qo‘llanmalari chop etila boshlandi va u didaktikada yetakchi yo‘nalish kasb etdi. Dissertatsiya ishlari yozildi, monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi (Qarang: I.D.Zverev, V.N.Maksimova, S.D.Vorchenko, N.S.Svetlovskaya, S.B.Kats, A.A.Kuznetsov, S.A.Beshenkov, E.A.Turdiqulov, N.Sh.Shodiyev, R.G‘.Safarov, O.A.Abduquddusov, B.Abdullayeva va h.k.). Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslash uchun, avvalo, uni pedagogik hodisa sifatida tavsiflash lozim. Chunonchi, “Integratsiya” – ayrim bo‘laklarning,- deb

qayd etadi X.N.Xakimov, – yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir-butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. Integratsiya jarayonining ildizi uzoq o‘tmishdagi klassik pedagogikaga borib taqaladi hamda fanlararo bog‘liqlik g‘oyasi bilan ifodalanib, o‘quv materialining mazmunini o‘rganish, tabiatini yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi” [118,12].

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o‘qitishning afzallik tomoni shundaki, ularda ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, ijtimoiylashtirish imkoniyatlari maydonga keladi. Bu imkoniyatlar talabalarda fuqarolik madaniyatining asosini tashkil etgan fuqarolik ongi, fuqarolik e’tiqodi, fuqarolik tafakkuri, fuqarolik idroki va munosabatlarining rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Shu ma’noda yangi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida ta’lim-tarbiya yaxlitligini ta’minlash hamda talaba-yoshlarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini tashkil qilish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-ma’rifiy hayot uchun muhim bo‘lgan fan, san’at, ilm-ma’rifat insonning mehnat faolligi, milliy mafkura, falsafa, din kabi qimmatli qadriyatlar asosini tashkil etgan aksiologik (qadriyatlar to‘g‘risidagi ta’limot) bilimlar majmuasini vujudga keltirish;
- fanlarning yaxlit integratsiyasi asosida voqelik, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy-mafkuraviy taraqqiyot to‘g‘risida gnoseologik ma’lumotlar, amaliy va ta’limiy tarbiyaviy jarayonni baholovchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikmalar (dalillash, milliy mustaqillikning barcha tuzumlardan ustunligini asoslash, fan texnikaning insonparvarligi, insonga xavf solayotgan tahdidlar, mafkuralarning yotligi, jaholatligi va h.k)ni hosil qilish va takomillashtirish;
- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi umumlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalar asosida shaxs g‘oyaviy-mafkuraviy e’tiqodi, ilmiy dunyoqarashi, axloqiy-estetik ideali, ma’naviy-jismoniy salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va mehnat faoliyatining huquqiy-axloqiy asosi negizida fuqarolik madaniyatining tarkibiy qismlarini tarkib toptirishga erishish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishni inobatga olib, tadqiqotimiz jarayonida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o‘qitish

jarayonida, bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqdik (Qarang: 1-rasm).




Model o‘zida ijtimoiy zaruriyat, jarayonning maqsadi, ijtimoiy-

Jadvalda ifodalangan model bo‘yicha tadqiqot jarayonida tajriba-sinov ishlari tashkil qilinib, pedagogik faoliyat yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayonda, quyidagilar e’tiborga olindi:

- tadqiqotimizning ilmiy-didaktik asosini bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va ularni yuqori malakali mutaxassislar qilib tayyorlash uchun, oliygohning ilmiy-pedagogik jarayonlariga innovatsion pedagogik texnologiya asosida yondashishni;

- kasbiy-ta’limiy shart-sharoitlarni yaratish va amaliyotga tatbiq qilish, unda ijodiy-shaxsiy, ta’limiy metodik paradigmalarga tayanib ish yuritish g‘oyasi nazarda tutildi. Shunga binoan, bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish tadqiqotimiz jarayonida quyidagi yondashuvlar va ta’lim prinsiplariga asoslanib faoliyatni yo‘lga qo‘yish nazarda tutildi hamda ular quyidagicha amalga oshirildi:

1) aksiologik – bu yondashuv har qanday kasbning tarixiy paydo bo‘lishi, takomillashib borishi, bo‘lajak kasb egalarining kasbiy va shaxsiy sifatlari uchun zarur bo‘lgan madaniy-kasbiy bilimlarning sababiy bog‘lanishlarini inobatga olishni nazarda tutish;

2) texnologik – bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda texnologik, maqsadni oydinlashtirgan holda yondashib, bo‘lajak siyosatshunoslarning xatti-harakatlari, ma’naviy yuksalishini yo‘lga qo‘yib kafolatlangan natijaga erishish uchun pedagogik faoliyatni uzluksiz amalga oshirish ishlarini olib borish;

3) muammoli-modulli – fanlararo integratsiyadagi yaxlit o‘quv jarayonini tashkil etish orqali professor-o‘qituvchilarning o‘z harakatlarini maqsadga erishishga yo‘naltirish, faoliyatdagi xatoliklarni korreksiyalash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda buning yordamida fikrlash qobiliyatini aktivlashtirish, muammoning yechimini topishga qaratilgan ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik jarayonga talaba faoliyatini yo‘naltirish;

4) tizimli-tashkiliy – bu yondashuv asosida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishda ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘rganishni integrativ yondashuv asosda loyihalashtirish, modellashtirish, mavzular mazmunidagi bog‘lanishlarni yagona maqsad sari yo‘naltirish, tadqiqot ob’ekti

ma’lumotlarini (fuqarolik madaniyatiga oid) o‘zaro aloqadorlikda, yaxlit tizimga kelishini tashkillashtirish;

5) faoliyatli-mahsulli – bu yondashuv bo‘lajak siyosatshunoslarda o‘z mutaxassisliklari va shaxsiy-insoniy fazilatlarini mukammallashtirish maqsadida talaba-tibbiyotchi, medik-pedagog ko‘nikmalarini ishlab chiqish va kasb nuqtai nazaridan faoliyatini yo‘lga qo‘yishda harakat qilish orqali fuqarolik madaniyatini o‘zlashtirishda talabalarni jalb etishni amalga oshirish;

6) akmeologik – pedagog va bo‘lajak siyosatshunoslarga ijtimoiy gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi mavzular kesimida fuqarolik madaniyati tushunchalarini kasbiy-shaxsiy bilimlar tarzida o‘z kasbini yuksak darajada egallashi va fuqarolik madaniyatini o‘zida rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilish nuqtai nazaridan bilishni yo‘lga qo‘yish.

Bu yondashuvlarga asoslanib, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon maqsadga yo‘nalganlik, faollik va onglilik, sub’ektivlik va faoliyatni rag‘batlantirish, gumanitar yo‘nalganlik, vorislik va jamoaviylik prinsiplari asosida loyihalashtirildi. Zero, bu prinsiplar ta’lim jarayonining qonuniyatlarini, ya’ni o‘qish-o‘qitishda amal qilinadigan qoidalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ular hozirgi zamon pedagogikasining muhim ilmiy asosini tashkil etadi.

Modulda ko‘rsatilgan oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik faoliyat tadqiqotning maqsadi, vazifalaridan kelib chiqqan holda qayd etilgan yondashuvlar va prinsiplarga tayanildi va o‘quv-mashg‘ulotlari, hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalashtirildi, amalga oshirildi.

Bu faoliyatni amalga oshirish jarayonida tadqiqotimiz ob’ektlari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda mavzular mazmunidagi quyidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

- insoniyat va jamiyat rivojida umumbashariy, milliy va ma’naviy merosning o‘rni hamda moddiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatini namoyon etish orqali fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida tushuncha berish;

- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarning ijtimoiy hayot iqtisodiyot, siyosat, huquq va hokimiyatdagi o‘rnini tushuntirish yordamida bu jarayonda fuqarolarning rolini ko‘rsatish;
- O‘zbekiston Konistitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari, fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklarining qonun bilan kafolatlanishini hamda jamiyat va shaxs munosabatlarining dialektik mutanosibligini bilib olishga yo‘llash;
- mustaqillik tafakkuri va fuqarolik madaniyatining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy zaminlarini anglab yetish ko‘nikmalarini talabalarda hosil qilib, fuqarolik madaniyati tushunchalarining jarayondagi o‘rnini o‘rgatish;
- fuqarolik jamiyatining iqtisodiy-ma’naviy, huquqiy-axloqiy, madaniy-siyosiy negizini bilib olishga yo‘llash;
- shaxs shakllanishi va jamiyat taraqqiyotida ta’lim-tarbiyaning ustuvorligi, uning dunyoviylik, insonparvarlik va demokratik xarakterda ekanligini tushunib yetishga o‘rgatish;
- inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyatini, kasbning axloqiy-huquqiy asosi, xulq-odob madaniyati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning omili ekanligini tushuntirish;
- Yangi O‘zbekistonni qurishga yo‘naltirilgan ob’ektiv shart-sharoitlar va sub’ektiv omillarni hamda ularning Vatan ravnaqi g‘oyasi, millatlararo totuvlik tamoyili bilan bog‘liqligini, mamlakatni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunishga talabalarni yo‘llash va h.k.

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi bu masalalar tadqiqot oldida turgan quyidagi vazifalarni amaliy hal etishga imkoniyat yarata oldi hamda bo‘lajak siyosatshunoslarda:

1. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-siyosiy hayoti jarayonida bu ma’lumotlarning yetakchi o‘rinni egallashi lozimligi to‘g‘risida ma’lumotlar shakllantirildi.
2. Vatan taraqqiyoti, xalq faravonligi, yurt tinchligi, ishlab-chiqarish rivojida bu bilimlarning tutgan o‘rnini ular ongiga yetkazildi.
3. Har qanday mutaxassisda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-iqtisodiy, axloqiy-huquqiy qarashlar, e’tiqodlarning shakllanishi va rivojlanishida fanlar mazmunidagi ma’lumotlar ustuvor ahamiyat kasb etishini bilib olish.

4. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning jahon sivilizatsiyasi, millatlararo totuvlik, xalqlararo birdamlikni rivojlantirish uchun ahamiyatli mavqega egaligiga iymon keltirish.

5. Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda mustaqillik tafakkurini takomillashtirish bilan birgalikda ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik malakalarining rivojlanishi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilish tushunchasi hosil qilindi.

Ushbu masalalarni inobatga olib, tadqiqot jarayonida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qib o‘rganish orqali bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirishning quyidagi mezonlari belgilandi:

1. Milliy taraqqiyot qonunlari, davlat ramzlari (konstitutsiyasi, bayrog‘i, madhiyasi, tamg‘asi, valyutasi)ga hurmat, ularni asrab-avaylash fuqarolik burchi va mas’uliyati ekanligini anglash, vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lish.

2. Yangi O‘zbekistonni barpo etish, yurt tinchligi, Vatan ozodligi va taraqqiyoti, xalq faravonligi yo‘lida tashabuskorlik, bunyodkorlik, yaratuvchilik ko‘rsatib, faoliyat yuritish ehtiyojini o‘zida tarkib toptirish;

3. Ulug‘ mutafakkirlar, ilm-fan namoyondalari, boy va ulkan ma’naviy meros, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar mazmunini anglash va ularni asrab-avaylash, e’zoz ko‘rsatish his-tuyg‘usiga ega bo‘lish.

4. Komil inson, fuqarolik, faol fuqaroviylik, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik burchi, mas’uliyati, e’tiqodi kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash va bu fazilatlarni ularni o‘zida tarbiyalashga erishish.

5. Baynalminallik (millatlararo muloqot madaniyati), dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik) tuyg‘usiga ega bo‘lish, o‘zga millat va elatlar madaniyatiga, urf-odatlariga hurmat ko‘rsatish.

6. Sog‘lom turmush tarziga, ogohlikka, huquqiy-axloqiy me’yorlarga rioya qilish, o‘z hayoti va faoliyatini, sog‘lom turmush tarzini, ogohlik madaniyati qonuniyatlari asosida qurishga intilish.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan vazifalarni hal etish va fuqarolik madaniyatini rivojlantirish mezonlarini bo‘lajak siyosatshunoslar ongi va faoliyatiga singdirish uchun ijtimoiy va ixtisoslik fanlarda katta imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Ularni ayrim fanlar kesimida ko‘rib chiqamiz.

“Siyosatshunoslik” fanini o‘rganish orqali talabalar O‘zbekiston mamlakati insoniyat sivilizatsiyasining o‘choqlaridan biri ekanligini, bu xalq, bu millat o‘z ona yeri, tuprog‘i, erki, ozodligi uchun kurashlarda toblanganligini bilib oladilar. Bu esa ularda g‘oyaviy-tarixiy hamda umuminsoniy e’tiqod va dunyoqarashning rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi. Bu orqali tarixiy voqealarni chuqur anglash, ularga munosabat bildirish, erkin, ijodiy fikrlaydigan ma’naviy, barkamol insonlarni tarbiyalashdek muhim vazifa amalga oshadi. Shu ma’noda mazkur fanni o‘qitish jarayonida talabalarda :

- ma’lumot berilib, yosh avlod ongida insoniyat uchun muhim bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy bilimlar asosida fuqarolikning fazilatlari, fuqaro madaniyatining sifatlari rivojlantiriladi;
- o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, hozirgi davr o‘zbek davlatchiligining poydevori bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot berilib, o‘tmish tarixiga hurmat, e’tiqod, muhabbat yuksaltiriladi;
- o‘zbek xalqining etnik shakllanishi, davrlar va taraqqiyot bosqichlarining uzviy bog‘liqligi va davomiyligi haqida tasavvurlar hosil qilinadi;
- sho‘rolar tuzumi davrida O‘zbekistonning turli sohalari oqibatlari, unga qarshi xalqning vatanparvarlik jasoratlari haqida ma’lumotlar berilib, Vatanimizning hozirgi taraqqiyotiga faol ishtirok etish ko‘nikmalari shakllantiriladi;
- O‘zbekistonning mustaqillikka erishib, mamlakatda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etilishini ta’minlaganligi, Yangi O‘zbekistonni qurish va uni modernizatsiyalash jarayonlari to‘g‘risida axborot berilib, bu jarayonga yoshlarning faol ishtiroki talab qilinishi uqtiriladi.

Bu masalalarga e’tibor qaratilishidan maqsad talabalarda o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlari, ilm-fan, vatan ravnaqiga hissa qo‘shgan o‘g‘lonlariga hurmatni, sadoqatni tarbiyalash, ular bilan faxrlanish, iftixor qilish orqali talaba-yoshlarni vatan fidoiysi, jasoratli fuqaro bo‘lishga undashdir.

OTMlarda “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” o‘quv fanini o‘rganishdan maqsad talabalarga O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida hamda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning harakatlar strategiyasi talablari asosida Yangi

O‘zbekistonda barpo etishga oid olib borilayotgan islohotlar, O‘zbekiston davlatining o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirilib, uni takomillashtirish uchun har bir talabaning chuqur bilimga ega bo‘lishi, faol fuqarolik pozitsiyasini egallashi, fuqaroviylik, fuqaroviy onglilikni o‘zida tarbiyalash yo‘llari bilan talabalar tanishtiriladi.

O‘zlashtirilgan ma’lumotlar asosida talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, fuqarolik burchi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik e’tiqodi, siyosiy bilimdonlik, huquqiy savodxonlik shaxsiy-kasbiy fazilatlar shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi. Bular, albatta, bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik madaniyatini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Siyosatshunoslik fanini o‘rganish jarayonida voqelikni tafakkur asosida anglash, tarbiyalanib, ular yordamida falsafiy dunyoqarash shakllantirilib, talabalarda inson va uning voqyelikdagi o‘rnini anglash, avlodlar qoldirgan ilmiy-falsafiy meros, nazariy ma’lumotlar, falsafiy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini bilib olish yo‘lga qo‘yiladi, ularning ijtimoiy-iktisodiy, ma’naviy-siyosiy taraqqkiyot va milliy mustaqillikni mustahkamlash bo‘yicha bilimlar rivojlantiriladi, ko‘nikma, malakalar tarkib toptiriladi.

Fukarolik pozitsiyasini rivojlantirishni falsafiy asoslash – bu inson, guruh, jamiyat yoki millatning o‘zaro hamjihatlik, do‘stlik, hamkorlik, totuvligini ta’minlash, milliy mafkurani yoshlar ongiga tezroq singlirish, ularni madaniyatli, ma’rifatli komil insonlar qilib voyaga yetkazish uchun muhim metodologik omil bo‘lib xizmat qilish demakdir.

Zero, innovatsion texnologiya – bu butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ta’lim shakllarini shaxsga yo‘naltirish, texnika hamda shaxs imkoniyatlarining o‘zaro aloqasini yo‘lga qo‘ygan holda o‘zlashtirish, bilimlarni mukammal egallash uchun o‘quv usullarini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimidir.

E’tirof etish joizki, innovatsion texnologiyalar insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanib, talabalarni faollashtirishga, mashg‘ulotlar jarayonini jadallashtirishga, bilim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini samarali tashkil etish hamda boshqarishga, o‘quv ma’lumotlarini o‘quvchi yoshlar ongiga yetkazish samaradorligini ta’minlovchi, o‘qitish ishlarini tashkil qilishda, aksiologik, akmeologik, texnologik, faoliyatli-tashkiliy, topshiriqli yondashishni yo‘lga qo‘yadigan didaktik jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar nazariy g‘oyasining targ‘ibotchilari B.Blum, J.Blok, D.Kratvol, V.P.Bespalko, V.M.Klarin, B.T.Lixachyov, J.Keroll, Yu.Kulyutkin, V.A.Selastyonin, M.Chashanov, B.A.Farberman, N.Sayidaxmedov, M.Ochilov, K.Zaripov, O‘.Tolipov, J.Yo‘ldoshev, M.Usmonboyeva, N.Avliyoqulov, M.X.Maxmudov, O.Roziqov, B.Adizov, S.Og‘ayev, I.Lerner, B.Xo‘jayev, Sh.Olimov, S.Usmonov va boshqalar innovatsion texnologiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan va shaxsning kamolotini ta’minlash tamoyillariga asoslangan, tarbiyalanuvchilarni faollashtirish ularning o‘quv-biluv faoliyati hamda tarbiyalanganlik darajasini jadallashtirishga, qodir o‘quv-tarbiya jarayoning metodlar majmui deb tushuntiradilar.

Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlari tadqiqotimiz ob’ektlarida qo‘llanilishini nazarda tutib, modelda belgilangan pedagogik innovatsiya (ta’lim-tarbiyaning shakl, metod, usullari, vositalari)ni nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq qilish uchun va faoliyat shu tizim asosida loyihalashtirildi. Bu jihatlar didaktik-texnologik tizimning mazmuniga kiritilgan o‘qitishning noan’anaviy shakllari, interfaol metodlar va kompyuter texnologiyasini qo‘llash bilan to‘ldirildi. Bu tizimning natijaviyligini tadqiqotimizda olib borilgan tajriba-sinov ishlari tasdiqladi. Endi innovatsion-texnologik jihatni ko‘rib chiqamiz :

1. Metodologik jihat. Bu jihat fanlar mazmunidagi fundamental g‘oyalar, o‘tmish allomalarining fuqarolik jamiyati va barkamol inson hamda tabobat ilmi to‘g‘risidagi g‘oyalar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, diniy ta’limotlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Yangi O‘zbekiston mafkurasini yorituvchi ma’lumotlarni qamrab oladi.

2. Psixologik jihat. Bu jihat bo‘lajak siyosatshunoslarni o‘qitilayotgan fanlar mazmunidagi fuqarolik madaniyatiga oid tushunchalarni anglashga ruhiy tayyorlashni, o‘qituvchi-talaba munosabatlarida ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni, bunda mashg‘ulot mazmunini ta’lim oluvchi-tarbiyalanuvchining qiziqishi, ehtiyojlari, o‘quv motivlari, kasbga yo‘nalganligi asosida tashkil qilishdan iborat bo‘ladi.

3. Faoliyat-mazmun jihat. Bu jihat fanlar mazmunidagi fuqarolik madaniyati tushunchalarini muayyan hodisa, mavzular, bo‘limlar, fanlarda ifodalanishini aniqlash va bog‘liqligini yo‘lga

qo‘yish hamda tushunchalarni o‘rganishda o‘qituvchi-talaba hamkorlik faoliyatini amalda qo‘llashni nazarda tutish lozimligini ifodalaydi.

4. Tashkiliy-metodik jihat. Bu jihatni qo‘llashda o‘qituvchi fanlar mazmunidagi asosiy g‘oyalar, ular bilan bog‘liq fuqarolik madaniyati tushunchalari va ularning mohiyati, mazmuni, funksiyalarini o‘zlashtirish dasturini ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi va uni amalda qo‘llashning aniq shakl, metod, usul va vositalarini yaratish, tanlash hamda ko‘llashni nazarda tutishni ifodalaydi.

5. Amaliy jihat. Bu jihat o‘rganilgan va o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar asosida fuqarolik madaniyati mazmunidagi tushunchalarni kasbiy faoliyatga, shaxsiy hayotda qo‘llashni nazarda tutadi.

6. Mintaqaviy-xususiy jihat. Bu jihat ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari mazmunidagi hamda asosiy fundamental manbalarda ifodalangan fuqarolik madaniyati tushunchalarini mintaqa va u manzildagi urf-odatlar, an’analar, milliy qadriyatlar, marosimlar mazmuni bilan qiyoslagan holda ularni talaba-yoshlarda tarbiyalashning ta’sirchan yo‘llaridan unumli foydalanish kabi masalalarni qamrab oldi.

Innovatsion texnologiyaning bu jihatlari auditoriya mashg‘ulotlari ta’sirchanligini, mazmundorligini, mahsuldorligini ta’minlashga xizmat qiladi va talabalarda quyidagi fazilatlarni tarkib topishiga yordam beradi:

- fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash va bu jamiyat nazarda tutgan fazilatlarni talabaning shaxsiy mulkiga aylantirishga ko‘maklashish;
- yangi O‘zbekistonning mafkurasini va uning fuqarolik, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda me’yorlarining ahamiyatini anglashga aniq yo‘llashni;
- tarixiy meros, ulug‘ mutafakkirlar, zamonamizning ilg‘or kishilari hayotining ma’naviy-madaniy merosini rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini bilib olishga;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri taraqiyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarning hozirgi davr uchun taraqqiyot uchun ahamiyatli tomonlarini anglab yetishga;

- gumanitar, ilmiy-falsafiy, ijtimoiy bilim, ko‘nikma, malakalar inson fuqarolik madaniyatining asosi va fuqarolik jamiyatining tamal toshi va muhim omili ekanligini bilib olishni;

- fuqarolik jamiyatida davlat va nodavlat tashkilotlar, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, mahalla, oila, ayrim insonlarning faolligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy-madaniy hayotining rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratilishi muqararligini tushunib yetish;

- “Men demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyati asosini mustahkamlashda hamda Vatanimning ravnaq topishiga qanday hissa qo‘sha oldim” degan his-tuyg‘usining har bir talabada tarbiyalashga ko‘maklashish va h.k.

Tajriba-sinov jarayonlarida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni innovatsion texnologiyalar vositasida o‘qitish hamda uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirib, bu fanlar mazmunidagi fuqarolik madaniyati tushunchalarini talabalar diqqatiga havola qilish va shu asosda bu tushuchalarini talaba-yoshlar tomonidan o‘zlashtirishni yo‘lga qo‘yilganligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan suhbatlar (professor-o‘qituvchilar, talabalar bilan), savol-javoblar, intervyular shuni ko‘rsatdiki, bunday tadbirlar ahyon-ahyonda tashkil qilinmasa, deyarli o‘tkazilmaydi. Bunday tadbirlarni hamda o‘quv-tarbiya ishlarini uyushtirishda professor-o‘qituvchilar muayyan ilmiy-metodik tayyorgarlikka ega bo‘lmaganliklari, pedagogik matbuotda bunday tavsiyalar, ko‘rsatmalar juda oz e’lon qilinganligi sababli uni tashkil qilishga qiynaladilar. Ana shu holatni inobatga olib, tadqiqotimiz ob’ektlaridagi oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o‘qitishni tashkil qilish va egallagan bilimlar yordamida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishni amalga oshirish nazarda tutilib, bu yo‘nalishda mashg‘ulotlar tashkil qilindi.

“Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fani mazmunidagi mavzularni innovatsion texnologiyalar asosida loyihalashtirish kutilgan natijani berishi mumkinligini jarayonda kuzatdik. Innovatsion texnologiya zaminidagi dars mashg‘uloti talabalarda faollikni, qiziqishni, ijodiy yondashishni ta’minlab, ularda zamonaviy fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida inson va fuqaro xuquqlari, fuqaro, fuqaroviylik pozitsiyasining ahamiyatini anglab yetishga undaydi va

yoshlarda burch, mas’uliyat, e’tiqod kabi shaxsiy- kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga ko‘maklashdi.

Dars mashg‘ulotlari bilan birga, tadqiqotimiz jarayonida bahs, munozara, suhbat kabi noan’anaviy darslardan foydalanib mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Bu mashg‘ulotlar har bir talabada fuqarolik madaniyati ko‘rsatkichlari va mezonlarini rivojlantirish maqsadi bo‘yicha dolzarb muammolariga bag‘ishlandi. Talaba faoliyatini tashkil etish orqali ularda fuqaroviylik, faol fuqarolik fazilatini shakllantirish metodlaridan mashqlar bajarish, o‘rgatish, pedagogik talab qo‘yish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar yaratish kabilar samarali natijalar berdi. Bu borada fuqarolik madaniyati estetik madaniyat, ma’naviy, iqtisodiy, axloqiy madaniyat bilan bir tizimda uzviy tashkil etilishi maqsadga erishishni ta’minlay oldi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish orqali talabalarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda mazkur fanlarning imkoniyatlarini aniqlash va muammo nuqtai nazaridan talabalarning qiziqishlarini, mustaqil ijodiy fikrlashlarini inobatga olib, ularni madaniy muloqot yuritishga o‘rgatish ijobiy natijalarga olib keldi. Bunda ishbop o‘yinlar, musobaqa darslari, intellektual ring, teatrlashgan mashg‘ulotlar, guruhlarga bo‘linib ishlash, ijodkorlar tanlovlari, auksion darslar, bayt-baraklar, bahs-munozara darslari, ekskursiya darslari, mo‘’jizalar maydoni kabilar noan’anaviy darslar katta pedagogik ahamiyat kasb etadi.

## 2.2. Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning istiqbollari

Monografiyaning oldingi faslida fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik pozitsiyasida yoshlar shaxsining shakllanishi, jumladan, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yangicha metodologik asosda yondashib, fuqarolik pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy omillar, shart-sharoitlarni o‘zaro yaxlitlikda talqin qilish lozimligini ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida asosladik. Bu faslda mazkur nazariy asosni davom ettirib, shaxsning psixologik tuzilishi, shaxslararo munosabat, faoliyat va uning tarkibiy qismlari, o‘z-o‘zini anglash va bu asosda o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali

bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda psixologik omillarning inson hayotida, ayniqsa, yoshlarning hayotida tutgan o‘rnini yoritishga harakat qilamiz. Shu bois, buyuk rus pedagogi, pedagogik antropologiyaning targ‘ibotchisi K.D.Ushinskiyning “Inson tarbiya predmeti sifatida” nomli antropologik asarida ta’kidlab o‘tganidek, “Agar pedagogika bolani har tomonlama tarbiyalamoqchi bo‘lsa, u avvalo, bolani har tomonlama o‘rganmog‘i lozim” [110,128].

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak siyosatshunoslarda barkamol avlod shaxsining muhim sifati – fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni maqsad qilib belgilagan ekanmiz, muammoni pedagogik asoslash bilan birga, uni psixologik omillarini aniqlash ham katta ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Biz bu faslda bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni ta’minlaydigan psixologik omillar xususida so‘z yuritamiz. Zero, psixologik omillar, ya’ni shaxsning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xotira, xayol, nutq, diqqat), shaxsning emotsional-irodaviy holatlari (his-tuyg‘u, idrok, qiziqish, mayl), shaxsning individual psixologik xususiyatlari (maqsad, faoliyat, temperament, xarakter, qobiliyat) bo‘lajak siyosatshunoslarning shaxs sifatida shakllanishida, davrning yuksak ma’naviy va axloqiy salohiyatli, hamda yuqori malakali mutaxassis bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, oliy ma’lumotli siyosatshunos – bu sotsial individ. U sotsial individ sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, ma’naviy-madaniy hayotida faol ishtirok etishi lozim bo‘ladi. Buning uchun unga bilim, g‘ayrat-shijoat, ijodiy tafakkur, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish masalasi, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi lozim. Psixologik manbalarda qayd etilishicha, oliy ma’lumot olishga tayyorgarlik davri – bu talabalik davriga to‘g‘ri keladi. Zero, taniqli psixolog, professor E.G‘oziyev ta’riflaganidek, “Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17-22-25 yoshni o‘z ichiga oladi va o‘zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan, o‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur davrda o‘spirinlar o‘ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshdan kechiradilar. Jumladan, kattalarning har xil ko‘rinishdagi (unga yoqish va yoqmasligidan qat’iy nazar) rollarni tez sur’atlar bilan bajarib ko‘rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko‘nika

boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o‘tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog‘liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi” [139,30].

Bu ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar yangicha tashkil topgan turmush tarzi (mustaqil yakka holda yashash), yangi o‘qish faoliyati holati (fan asoslarini o‘zlashtirishi lozim), yangi do‘stlar, kursdoshlar, ilmiy texnikaviy kommunikatsiyalar (kompyuter, EHM, internet, masofali o‘qitish va h.k.) u yoki bu ko‘rinishda, talaba shaxsiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Bolalar va yoshlar psixologiyasini tadqiq qilgan psixologlar B.T.Ananev, A.K.Platonov, P.V.Kuzmina, L.I.Bojovich, M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, V.L.Tokareva va boshqalar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish murakkab jarayon ekanligini ta’kidlaydilar. Bu, avvalo, fanlarni o‘qitishga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, bu davrda shaxsiy sifatlar, xususiyatlarning jadal o‘sishi bilan bog‘liq bo‘ladi. “Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o‘sishning xususiyatlaridan biri, - deb yozadi E.G‘oziyev, - o‘qish faoliyatining ongli motivlarining kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o‘sishi sust amalga oshadi, lekin xulqning eng muhim shartlari mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi” [139,31].

Talabalik davrining o‘ziga xos psixologik jihatlaridan biri shaxslararo munosabatdir. Bu davrda talaba yangi insonlar (kursdoshlar, o‘qituvchilar, rahbarlar)ga duch keladi. Bunda shaxslararo munosabatlar shaxsiy, predmetli, informatsion va emotsional holatdagi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Ko‘rib o‘tganimizdek, shaxslararo munosabatlar ko‘rinishlarning keng ko‘lamini qamrab oladi. Bular talabalarning bir-birini tushunishi, qabul qilishi, yoqtirishi (o‘ziga jalb qilish, simpatiya), yurish-turishda o‘z “o‘rniga” ega bo‘lishida ifodalanadi. Shu asosda, guruh, jamoada shaxslararo munosabatlar va guruh a’zolarining kelishuvchanligi (fiziologik va psixologik) “psixologik muhit” deb atalmish eng muhim ijtimoiy-siyosiy holatni vujudga keltiradi. Bu, albatta, ularning shaxsiga, fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga ta’sir qilmay qolmaydi.

Darhaqiqat, ijtimoiy shaxslararo munosabat individning ijtimoiy izolyatsiyasini keltirib chiqaradigan holatda, tajribalarda, insonning guruh tomonidan rad etilganligi holatlarida ham namoyon boʻlishi aniqlangan. Shuning uchun, oʻquv jarayonida operativ sotsiometrik tekshirish olib borish maqsadga muvofiq. Bu esa guruhda, shaxslararo munosabatlar tizimida har kimning tutgan oʻrnini aniqlashga yordam beradi. Guruhda a'zolarning "qabul qilinganligi", "ajralib qolishi", "rad etilishi" kabi holatlar, signallar boʻlishi mumkin. Bu signallar aniq psixologik-pedagogik aralashuvni talab etadi va fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganligining qay darajadaligini koʻrsatadi.

Ye.Lingart oʻz tajribasida psixologik shaxslararo munosabatda oʻzaro aloqadorlikning ikki bosqichini aniqlaydi. Birinchi bosqich – bu "sahna effekti" deb nomlanadi. Bu inson xatti-harakatini oʻzini tomoshabinlardek tutgan odamlar ishtirokida amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich – bu inson xatti-harakatining muayyan faoliyatda faol ishtirok etishlari ta'sirida oʻzgarishi mumkinligi bilan xarakterlanadi" [141, 70].

Boʻlajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida bu psixologik jihatlarni hisobga olmaslik yoki ularga tayanib ish tutmaslik ishidagi faollikka salbiy ta'sir koʻrsatib, faoliyat samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkinligini tajriba koʻrsatdi.

Oʻquv va ijtimoiy faoliyatning yangicha mazmun kasb etishi, shaxslararo munosabat, yangi jamoa va guruhdagi hayotning keskin oʻzgarishi – bu davr yigit va qizlarida oʻz-oʻzini anglashning sezilarli darajada oʻzgarishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, bu oʻz-oʻzini anglash, oddiygina oʻsishdan iborat boʻlmay, balki u sifat jihatdan oʻziga xos tavsifga ega boʻladi. Bu oʻzgarish talaba shaxsining ma'naviy-psixologik xususiyatini aniq hayotiy maqsadlar, harakatlar, qiziqishlar, istak-xohishlar nuqtai nazaridan anglash va baho berish hususiyati bilan bogʻliq boʻladi. Bu esa talabada oʻzining ruhiy hayotiga, oʻz xatti-harakati hamda shaxsiy sifatlarining ijtimoiy yoʻnalish kasb etganligiga, oʻz qiziqish va xohish-istaklari yangicha ma'no kasb etib, talabaning oʻz xatti-harakatlariga, dunyoqarashiga, faoliyati mazmuniga nazar tashlashi, tahlil qilishi, oʻz hislari va kechinmalarini bilishga intilishining kuchaygani bilan tavsiflanadi. Bu oʻz-oʻzini anglashdan, talabaning yangi hayot va yangi faoliyat hususiyatidan kelib chiqadi. Jamoadagi yangi vaziyat, oʻquv yurtida

bo‘ladigan yangi hodisalar, yangicha munosabatlar talabani o‘z imkoniyatlarini baholashga, o‘zininig aqliy va irodaviy kuchini o‘ziga qo‘yilayotgan talablar asosida taqqoslashga va bu talablarga javob bera olishi yoki bera olmasligi nuqtai nazaridan anglashga majbur qiladi. Shu tariqa, talaba o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini, o‘zining ustunligi yoki ojizligini aniqroq anglay boshlaydi. Bu psixologik holat talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun muhimdir.

Talabalik yoshidagi talabalar maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalaridan farqli o‘laroq o‘zlarida sodir bo‘layotgan sezilar-sezilmas, ammo shaxsiy muhim o‘zgarishlarni, shaxsning ko‘p qirrali munosabatlarni xarakterlovchi murakkab shaxsiy-psixologik sifatlar – burch hissi, vijdon hissi, mardlik va qat’iyatlilik hissi, o‘zininig qadr-qimmatini anglash hissini ancha aniq anglashga qodir bo‘ladilar. Bu ularda kelajakni aniqroq tasavvur qilish xususiyatiga egaliklarini anglatadi va ular o‘z kelajaklarini aniq baholashga intiladilar. Agar maktab talabalari o‘zlariga: “Men kelajak hayotga va faoliyatga tayyormanmi, qandayman?” deb savol bersalar, oliy maktab yoshidagi talabalar esa: “Men kelgusi faoliyatim, kasbim bilan oilamga, xalqimga, Vatanimga qanday naf keltiraman? Men bu ishga yaroqlimanmi?” degan savolni bera oladilar.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oliy ta’lim yoshidagi talaba (o‘spirinlikning ikkinchi davri)da talabada o‘z shaxsi, faoliyati, xatti-harakatlari to‘g‘risida aniq va to‘g‘ri, ob’ektiv tasavvur hosil bo‘lishi uchun unga pedagogik yordam ko‘rsatish lozim. Bu pedagogik yordam do‘stona xususiyat kasb etib, kelajakda talaba imkoniyatlariga katta ishonch bildirish, uning shaxsini hurmat qilgan holda, tanqidiy mulohazalar vositasida, xayrixohlik, mehribonlik nuqtai nazaridan bo‘lsa, talaba ijtimoiy-siyosiy hayotni, iqtisodiy-ma’naviy taraqqiyot mazmunini to‘g‘ri anglaydi va diqqat e’tiborga minnatdorchilik hissi bilan qaraydi. Bu hol ularda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Bu imkoniyatlar ularda o‘zlarining ma’naviy psixologik qiyofasini shakllantirishga qiziqishni uyg‘otadi. Bunda mana shu qiziqishi to‘g‘ri yo‘nalishga rag‘batlantirish, talabalarda ma’naviy-psixologik qiyofadagi ijobiy sifatlarni, ularga mos ijobiy qahramonlar, ideallarni tasavvur qilishga intilishni tug‘diradi. Bu ideallar ikki asosiy ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Birinchisi aniq, konkret kishilar (ota-ona,

sevimli o'qituvchisi, o'quv yurtining hurmatli, ma'naviyatli kishisi, sevimli badiiy asarning yoki kinofilm, telespektaklning qahramonlari)ning obrazi bo'lsa, ikkinchisi jamiyatdagi ilg'or va faol insonlar, mehnakashlarning umumlashgan obrazlaridir. Bu obrazlar bo'lajak kasbning ijtimoiy ahamiyatini anglash, o'qish va yashash maqsadini belgilash kuchayadi. Bu ideallar talabada o'qimishli, axloq-odobli, kelajakning ilg'or, namunali kishisi bo'lish hissini uyg'otadi.

"O'qishdan asosiy maqsad – yaxshi mutaxassis bo'lib, odamlarga, mamlakatga foyda keltirmoq. O'zingni butun hayotingni, mehnatingni insonlarga bag'ishlamoq. O'zing yashayotgan yurt uchun kerakli va foydali kishi bo'lmoq. Buyuk sarkarda Amir Temurning jangovar faoliyati va hayot yo'li men uchun ideal bo'lib xizmat qiladi" (Javlon - 3-kurs, 22 yosh).

"Otabek o'zining ma'naviy jasorati, temirday iroda kuchi, yoriga sadoqati, xalqparvarligi, to'g'ri so'zlashi bilan menga juda yoqadi. U xon huzurida zanjirda bo'lganida ham, ota-onasining huzurida so'roqda bo'lganida ham faqat to'g'ri hamda aniq gapni gapirdi. Undagi mardlik, jasorat, to'g'riso'zlik, yoriga sadoqat XXI asr yigitlarining timsoli va ular uchun ideal bo'lmog'i lozim" (Sayidolim - II kurs, 22 yosh).

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, oliy o'quv yurtlarida o'qishning dastlabki bosqichlarida o'qituvchilar va tarbiyachilar talabalarning ma'naviy-axloqiy ongi, ma'naviy-axloqiy yo'nalishlariga befarq bo'lmasliklari lozim. Chunki talabalarning ma'naviy-axloqiy ongi uning ijtimoiy faolligini ta'minlaydi. Natijada, talabalar demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasini barpo etayotgan mamlakatning taraqqiyotiga faol ishtirok etadigan, ma'naviy-axloqiy ongni, axloqiy kategoriyalar, fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarining mohiyatini aniq tushunish asosida tarkib topib, burch, mas'uliyat, vijdon, majburiyat, shaxsiy g'ururlik, o'zininig qadr-qimmatini anglash va faoliyatini shu yo'nalishda qurishga harakat kuchayadi. Talabalik davrida "vijdonlilik", "or-nomus", "iftixor" kabi axloqiy tushunchalar ancha mantiqiy ma'no kasb etgan bo'ladi. Misollar keltiramiz: "Or-nomus hissi – har bir yoshda bo'lmog'i, u boshqalar ko'z o'ngida o'z obro'sini, izzat-hurmatini saqlamog'i, jamoa oldida qadr-qimmatini, mavqeini ko'tarmog'i lozim bo'lgan his-tuyg'udir. Bu his har bir yoshning xatti-harakatida, dunyoqarashida, axloqiy e'tiqodida, bilim darajasida ifodalanib, kishini xushomadgo'ylik, benomuslik, hasadgo'ylikdan saqlanishga majbur qiladi. Bu his yurish-turish, xatti-

harakat, maqsadning nuqsonsiz bo‘lishini, ma’naviy soflikka intilishga undaydi. Or-nomusli yigit-qiz, jamoa, mamlakat or-nomusi uchun kurashadigan, hamisha jamoada o‘z mavqeini saqlaydigan, uning uchun kurashadigan bo‘ladi” (Shahzodjon - II kurs, 24 yosh).

“Iftixor” – kishining o‘z mehnati, intilishlari, maqsadga erishishini bekor ketmaganligini, jamoa, Vatan foydasida bo‘lganligidan faxrlanishini anglatadi. Shu bilan birga, men iftixorni o‘z muvaffaqiyatim, jamoadoshim yoki butun jamoaning muvaffaqiyatidan faxrlanish deb bilaman. Shaxsiy faxrlanish, jamoa, o‘rtoqlari mehnatidan faxrlanish bo‘lmog‘i darkor. Aks holda, u kibrni, dimog‘dorlikni, manmanlikni keltirib chiqaradi va boshqalar mehnat, muvaffaqiyatini ko‘ra olmaslik, shuhratparastlikka olib boradi” (Jahongir - 23 yosh).

Vijdonli kishi o‘z so‘ziga, va’dasida qattiq turadigan, do‘stiga, jamoasiga, Vataniga xiyonat qilmaydigan inson bo‘ladi. Xatoga yo‘l qo‘ysa, uni ochiq tan oladigan, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaraydigan inson bo‘ladi. Men vijdonli kishilar bilan iftixor qilaman” (Mushtariybonu II kurs, 21 yosh). Bu holatlar ikkinchi o‘spirinlik yoshida bo‘lgan talabalarda o‘z xulq-atvori, axloqiy ongi va e’tiqodiga Vatan, xalq talablari, ehtiyojlari asosida qarashni, munosabatda bo‘lishni anglatadi. Bunday fikrlarni, qarashlarni doimo rivojlantirishga, ko‘paytirishga harakat qilish va amalga oshirish har bir oliy ta’lim maktabi o‘qituvchi-professorlarining kasbiy majburiyatidir. Zero, bu fikrlar, xulosalar asosida talabalarda Vatan hissi, Vatan tuyg‘usi tarbiyalanib, fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Kamdan kam bo‘lsa-da, ayrim yigit va qizlarda bu tuyg‘ular salbiy ko‘rinish va yo‘nalish kasb etishi ham mumkin. Ba’zan sabr-toqat bilan qiyinchilikni yengish, qat’iyatli, matonatli, mard va mehnatsevar bo‘lish o‘rniga qanday bo‘lmasin, o‘z maqsadiga erishish uchun turli yo‘llar bilan hiyla ishlatishga, mug‘ombirlik, munofiqlik bilan ish tutishga harakat qiluvchilar ham yo‘q emas. “Mening yagona maqsadim, – deb yozadi, – Ashur ismli bir talaba (22 yosh), – diplom olish, oliy ma’lumotli bo‘lish – qanday bo‘lmasin, bunga erishaman. Buning uchun bor amalimni ishga solaman, hiyla ishlataman”. Bunday vaziyatda guruh faollari, guruh rahbari, o‘qituvchilar va tarbiyachilar, o‘quv yurti talabalar kasaba uyushmasi, yoshlar ittifoqi “oldini olish” metodidan foydalanishi lozim. “Oldini olish” – bu talaba shaxsi va

faoliyatida sodir bo‘layotgan salbiy holatlarni aniqlash va uni bartaraf etishga yo‘naltirgan metoddir. Bu tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy vaziyatni shunday tashkillashtirish lozimki, bunday holatga shart-sharoit, imkoniyat, munosabat paydo bo‘ladigan bo‘lsin. Talaba bunday holatda – o‘qishga, tabiatga, ijtimoiy hayotga, voqelikka estetik munosabatda bo‘lib, tevarak-atrofdagi narsalar, do‘stlar, jamoadoshlariga go‘zallik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsin. Bunda ijtimoiy hodisa, voqelik, ijobiy axloqiy-huquqiy qoidalarga qiziqishni uyg‘otishi lozim.

Ma’lumki, oliy ta’lim maktablari talabalarining faoliyati:

a) fan asoslarini o‘zlashtirish (ixtisoslik, umumkasbiy fanlar (majburiy), tanlov va qo‘shimcha fanlar);

b) o‘quv yurtidagi ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-foydali ishlarda ishtirok etish;

v) o‘quv yurtidagi jamoa tashkilotlari (yoshlar ittifoqi, talabalar kasaba uyushmalari faoliyati va h.k.) topshiriqlarini bajarishdan, mustaqil ta’lim olishdan iborat.

Bularning barchasi talabalarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari va tashkilotchilik malakalarini o‘stirish bilan birga, talabalarning shaxs sifatida rivojlanishlarini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shular bilan birga, talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda uning faoliyati va dunyoqarashi asosida shakllanadigan e’tiqodi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda talaba shaxsi va uning tuzilishi muhimdir. Talaba shaxsining tuzilishi deganda, psixologiya nazariyasida ta’kidlanganidek, yaxlit psixik jarayonlar, o‘ziga xos shaxsiy sifatlar, faoliyat va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar tushuniladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, individual shaxsiy sifatlari bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, nutq, diqqat), shaxsning emotsional idoraviy holatlari (his-tuyg‘u, iroda), shaxsning individual psixologik xususiyatlari (maqsad, temperament, xarakter, qobiliyat) hamda malaka va ko‘nikma, odatlar kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi.

Albatta, talaba shaxsining o‘quv faoliyati, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtiroki, ijtimoiy faoliyati bo‘yicha bu tuzilishiga tayanmoq lozim. Ular talabada fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi. Talabada shaxsiy sifatlarining rivojlanishida faoliyatining roli katta. U maqsad, vosita, natijadan iborat. Bular

bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ma’lumki, inson faoliyati faqat tashqi ajratuvchi vosita emas, balki uning kishilarga, jamiyatga munosabatida namoyon bo‘lib, insonning butun xususiyatlarini ifodalaydi va shakllanib, rivojlanadi. Insonning harakati o‘z-o‘zicha bo‘lmay, balki uning butun faoliyatini qamrab oladi. Shuning uchun uning harakat va intilishlarini faoliyat orqali amalga oshadi. Inson faoliyatini ijtimoiy jihatdan tashkil etish mehnat taqsimotining mahsuli sifatida o‘ziga xos motivga undaydi. Inson faoliyati va uning tarkibiga kiruvchi harakat (maqsad, motiv, ehtiyoj,qiziqish, mayl va h.k.) nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy yo‘nalish kasb etib jamiyat talablarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va u instinktiv ravishda sodir bo‘lmasdan, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish ijtimoiy xarakter nuqtai nazaridan, ongli, maqsadli, natijali mohiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, talabalarda yuqori kurslarga o‘tgan sayin faoliyatning shaxsiy ehtiyojga nisbatan, ijtimoiy ehtiyoj yo‘nalishi ustun bo‘ladi. Misollar keltiramiz: “Men, – deb yozadi (3-kurs talabasi Jaloliddin 22 yosh), – kelajakda yaxshi agronom bo‘lmoqchiman. Chunki dala va o‘rmonlarni, o‘tloqlarni, paxtazor va bog‘larni yaxshi ko‘raman. Albatta, universitetning o‘zim o‘qiyotgan fakultetini bitirgach, qishlog‘imga borib bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib tadbirkor bog‘bon bo‘laman”, yoki, “Men yoshlikdan boshlab pedagog bo‘lishni orzu qilar edim. Niyatimga erishyapman. Hozir 3-kurs talabasiman. Men bolalar bilan suhbatlashishni, birga sayr qilish va mashqlar bajarishni juda yoqtiraman. Men o‘qitgan, tarbiyalagan bolalardan Vatanga, xalqqa foyda kelsa, o‘zimni baxtiyor hisoblab, o‘z maqsadimga erishdim, deb faxrlanaman” (Maftuna 22 yosh).

“Men hozir 4-kurs talabasiman. Kelajakda ilmiy xodim bo‘lib, o‘z soham bo‘yicha ixtirolar, yangiliklar qilmoqchiman. O‘z ixtirom, kashfiyotim bilan Vatanga foyda keltirib, xalqimning yumushini oson qilish niyatim bor. Shu bilan birga, yaxshi oila rahbari bo‘lishni, oilamni, bolalarimni Vatanga xizmat qilishga o‘rgataman va bu bilan faxrlanib yuraman” Farrux 23 yosh).

Ko‘rib turganingizdek, faoliyat insonni yangi maqsad, istak sari yetaklaydi va bu maqsad, istak, motivdan iborat bo‘ladi. Motiv – anglangan harakat bo‘lib, insonga ichki intilish, qiziqish beradi. Motiv intilish sifatida harakat manbaiga aylanadi.

Motiv (lot. Moteo-harakatlantiraman, motiv-undovchi sabab) insonni aqliy va amaliy harakatga, voqelikni anglashga, axloqiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan mayl yoki sabab hisoblanib, u talabalarda o‘quv ma’lumotlarini ijtimoiy-axloqiy qoidalarni o‘zlashtirish, hayot mazmunini anglash, turmush rejalarini tuzish, kelajak kasbiy faoliyat yo‘nalishini belgilashda ichki turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, har bir inson bir yosh davridan, ikkinchi yosh davriga o‘tishida uning anatomik, fiziologik rivojlanishida o‘zgarishlar ro‘y berganidek, shaxsiy-ruhiy holatlarida ham ma’lum o‘zgarishlar vujudga keladi. O‘spirin-talabalik davrining dastlabki bosqichlarida yangi mikromuhitning sharoitlariga ko‘nikish orqali, yangi muhitning talablari, tartib-qoidalari, majburiyatlarini anglash shaxslararo munosabatning yangicha ko‘rinishini o‘rnatadi. Natijada, talabaning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlari yuksak darajada dolzarblashadi va qimmatli-yo‘naltiruvchi omillarni, xulq-atvorni boshqarish sifatidagi ahamiyati oshadi. Bunda motivning amalga oshishi, talabaning shaxsiy muvaffaqiyati (o‘ziga), jamoaviy (guruhga) va faoliyatga (topshiriqqa) yo‘nalganligi bilan tavsiflanadi.

Insonning shaxsiy manfaatlari hamma vaqt ham jamiyat talablari bilan o‘zaro uyg‘unlashmasligi mumkin. Ammo, vaziyat, sharoit, vaqt, vatan, xalq manfaatlari nuqtai nazaridan inson o‘ziga noqulay bo‘lganda ham uni ijtimoiy burch va vaziyat talabi deb qabul qiladi va shu yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatishga harakat qiladi. Insonning bunday yo‘l tutishida uning fuqarolik pozitsiyasi yo‘naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Inson uchun ahamiyatli shaxsiy narsaning ijtimoiy mohiyat kasb etishi va uni kishi uchun shaxsiy ahamiyat kasb etishida chuqur ichki mohiyat –insonning axloqiy xususiyati yoki pozitsiyasi belgilovchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ahamiyatli axloqiy-huquqiy me’yorlar shaxsiy sifat kasb etib, insonga ichki kuch, tashabbus, ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi.

Shunday qilib, kishilar faoliyatidagi ehtiyojlar qiziqishlar va mayllarni keltirib chiqaradiki, ular talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga olib keladi. Qiziqish kishining nimagadir e’tibor berishi, qandaydir narsa va hodisalarni bilishga intilishidir. Shu asosda, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga intilish (zarurati) mayli bo‘lib hisoblanadi.

Qiziqish va mayllar yoshlarning emotsional hayoti bilan mahkam bog‘langan va ular o‘zaro bog‘liklikda shaxs faolligini, ta’minlab faoliyatga intilishining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ehtiyoj asosida vujudga keladigan qiziqishlar moddiy va ma’naviy bo‘ladi. Inson faoliyatida paydo bo‘lgan qiziqishni qondirish, yangi qiziqishlarni keltirib chiqarib, faoliyatni yangi harakatlarga undaydi. Buni talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoniga yondashishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari deb aytish mumkin.

Bunda fuqarolik pozitsiyasi kishi yurish-turishi me’yorlarining yig‘indisi tarzida namoyon bo‘ladi. Ba’zi hollarda obraz tarzida inson xarakteridagi qimmatli, e’tiborga molik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirib namuna, ibrat sifatida xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi insondagi xususiyatlar yoki undagi mavjud xulq-atvor me’yorlari tariqasida emas, balki unga yetishmaydigan yoki u xohlagan, istagan o‘zini qanday tarzda ko‘rmoqchiligini ifodalaydi. Insonning fuqarolik pozitsiyasi kelajakka yo‘g‘rilgan, erishishi lozim bo‘lgan namunadir. Insonlar yoki alohida bir kishidagi eng yaxshi xususiyatlar sifatida shaxsni yoki butun jamiyatni rivojlanishi, takomillashuviga ta’sir qiladi va shu jihatidan ularni yo‘naltiradi.

Shunday qilib, ehtiyoj, qiziqish va pozitsiya shaxs turli va ko‘p tomonlama hamda yagona (yaxlit) yo‘nalganligini tashkil etib, inson faoliyatining motivatsiyasi (harakatlantiruvchi kuchi) tarzida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik pozitsiyasining mohiyati shaxsning o‘z-o‘zini tartibga solish tuzilmasiga ham bog‘liq. Talabalarda o‘z-o‘zini tartibga solish ehtiyojlari, shaxsga yo‘nalganlik, “Men” konsepsiyasini shakllantirib, o‘z-o‘zini boshqara olish tuzilmasini vujudga keltiradi. Bu tuzilmani quyidagi 1.2-jadvalda kuzatish mumkin.

Jadval-1.2




Jadvalda ko‘zda tutilgan ehtiyojlar talabalarning faolligi va ruhiy holatlarini aks ettiruvchi mexanizm sifatida, ularning moddiy, ma’naviy, fiziologik, ijtimoiy zaruriyatlarini ifodalaydi. Bu mexanizmlar o‘z-o‘zini anglashni shakllantirib, talaba shaxsidagi ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni nazarda tutadi va shu asosda ularda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi

Shaxsiy yo‘nalganlik – esa talabaning bo‘lajak kasbini egallash yo‘lidagi qat’iy harakatlar va faoliyatining yig‘indisini tashkil etib, u talaba shaxsining ma’naviy-axloqiy yetuklik, qiziqishlar, ijtimoiy rejasi, e’tiqodi, dunyoqarashi, ideallarini izohlaydi.

O‘spirinlikning ikkinchi davrida qiziqishlar o‘sib borish xarakteriga ega bo‘lib, ular nafaqat talabaning o‘quv faoliyatini, balki talaba moddiy va ma’naviy hayotini ham qamrab olib shaxsga yo‘nalganligini belgilaydi. Shuning uchun talabaning ijtimoiy hayoti, bilish faoliyati, iqtisodiy hayotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘lib takomillashaveradi.

Talabalik davri yoshlari uchun e’tiqodning mukammallashuvi xarakterli hisoblanib, u talabalarda fuqarolik pozitsiyasini tarkib

toptirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Zero, e’tiqod – talabaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ishonchni ifodalab, bo‘lajak kasbiga, fan asoslarini egallashga, axloq me’yorlariga rioya qilish, oila, Vatanga bo‘lgan sadoqat, muhabbatini mustahkamlaydi. Shu asosda, talabada fuqarolik pozitsiyasining rivolanishiga olib boradi.

Ideal inson orzu-umidlari, intilishlari, maqsadini mukammallikda aks ettiruvchi, xatti-harakati va faoliyatini ifodalovchi kuchdir. Talaba ideali ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishda mukammal demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasida go‘zal huquqiy-axloqiy me’yorlarni ko‘rish, undagi mehnatkashlarning xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, xalq va jamoa manfaatlarini ta’minlash ko‘rinishida ifodalanadi. Ideal ko‘rinishidagi “Men” konsepsiyasi” – o‘zini anglash, o‘zini baholash, o‘z fikriga ega bo‘lish, o‘z hurmatini joyiga qo‘yish, o‘zini sevish, o‘ziga ishonch, mustaqillik va axloqiy-ma’naviy sifatlardan iborat bo‘lib, insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi shaxs namunasini anglatadi.

Ilmiy psixologik nazariyaning ta’kidlashicha, bu yosh davr talabalari ish jihatdan o‘zlariga o‘xshashlarni hurmat qilishadi. Chunki inson o‘zi yoqtiradigan inson taqdirini yengil qabul qilib, kamroq shubha bilan qaraydi. Shuningdek, ko‘pincha, insonlar o‘zlari yoqtirmaydigan odamlar qarashlariga beixtiyor salbiy munosabatda bo‘ladilar.

Demak, jamoa faoliyati samaradorligini tartibga solishda turli omillar tizimi ishtirok etadi. Jumladan, guruhdan tashqarida (jismoniy va ijtimoiy); guruh ichida (shaxslararo munosabatlar, boshlang‘ich va natijalovchi); guruhdan tashqarida (guruh a’zolarining individual-psixologik xususiyatlari, ularning holati, boshlang‘ich fikrlari, baholari va munosabatlari) bu davr yoshlari uchun bog‘lovchi omil bo‘lib, talabalar guruhida hamkorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini faollashtiradi.

Shunga binoan, guruh rahbarining vazifasi – iloji boricha guruhning shaxsiy ahamiyati bilan ijtimoiy-qimmatli yo‘nalganlikning munosibligini uyushtiradi. Shaxslararo munosabatlarning dinamikasini tadqiq etish o‘qitish va tarbiyalash jarayoni istiqbolli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish uchun katta foyda keltiradi.

Talabaning 1-kursdan 4-kursgacha o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rganish maqsadida tadqiqotimiz jarayonida so‘rovnomalar o‘tkazildi va 163 talabaning o‘zaro hamkorligi

aniqlandi. Bunda Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti talabalari bilan ikki marta, o'quv yilining boshlanishi va oxirida sotsiometrik o'rganish tadqiqoti o'tkazildi. O'rganish shuni ko'rsatdiki, birinchi kursda talabalar bir-birlarini chuqurroq anglash uchun saylov tadbirlaridan ko'p va keng foydalanadilar. Natijada, har bir talaba turli holatlarda qayta-qayta saylanaveradi. Bunda go'yoki hamkorlikni anglatmaydigan "tanlay olish" holati yuzaga keladi. Tadqiqotning ko'rsatishicha, bu holat yuqori kurslarda o'zgacha kechadi. Masalan, 4-kursda talabalarning saylovlari anglanilgan holda amalga oshib, hajm va son jihatdan kam o'tkazilsa-da, bir-birini inkor etish yoki rad etish deyarli ko'zga tashlanmaydi. Chunki bu davrda hamjihatlik ko'proq ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishda bo'ladi. Bu yuqori kurs talabalariga xos bo'lgan xususiyatdir. Bu esa, hamkorlik munosabatining qiziqarli yo'nalishi vujudga kelganligidan dalolat beradi. Chunki 1-kursda ko'rsatilgan salbiy munosabat, 4-kursga kelib "rad etilmaganlar" bo'lib hisoblanadi.

"Men" konsepsiyasi talabada o'z maqsadi, rejalarining ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalish kasb etishini, ularni ijtimoiy faollik darajasiga ko'tarishni va talabaning shaxsiy va kasbiy faoliyati mazmuni uchun asos bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham "men" konsepsiyasining mazmuni maqsadini oydinlashtirish va ijtimoiylashtirish shaxsiy ehtiyoj, istak-xohish, talab, qiziqish kabi sub'ektiv omillarning takomillashuvini ta'minlaydi.

Buning uchun, avvalo, talaba "men" konsepsiyasi mazmunini anglashi, uning shaxs kamolotidagi o'rnini bilishi hamda "men" konsepsiyasining ijobiy va salbiy tomonlarini inobatga olishi darkor.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, o'z-o'zini boshqarish, milliy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar bo'yicha amalga oshiriladigan o'quv tarbiyaviy tadbirlar aniq rejalashtirilib amalga oshirilishini to'g'ri tashkil etish talabalarda fuqarolik pozitsiyasini to'laroq tarbiyalash imkonini kengaytiradi (bu to'g'rida keyingi boblarda fikr yuritamiz).

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda talaba-yoshlar intellektual qobiliyatini, shaxsiy takomillashish ko'rsatkichlarini sotsiometrik so'rov yordamida 1-4-kurs nisbatini qiyosladik. Ma'lum bo'lishicha, 4-kurs talabalarida bilim olishning ijtimoiy mohiyatiga nisbatan boshqalarga yoqish uchun yaxshi o'zlashtirishga intilish qobiliyatlari ko'proq kuzatiladi. Shuning uchun intellekt va mavqening

yuqori ko‘rsatkichlariga erishish uchun talabalar guruhida ko‘proq o‘quv-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor qaratish lozim. Bu guruh talabalarida intilish nafaqat o‘qishda, balki shaxslararo munosabatlarda ham keng imkoniyatlar yaratadi desak, xato bo‘lmaydi. Chunki kuzatishlar natijasiga ko‘ra, ko‘pincha, pedagoglar amaliy faoliyatida aynan shunaqa talabalarga suyanadilar.

Tajribaning ko‘rsatishicha, birinchi kurs talabalari ko‘proq bahoga o‘ch bo‘lishadi. Shuning uchun kursda yaxshi o‘zlashtiradigan kursdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu narsa muloqot uchun baholar ahamiyatini pasaytiradi, ammo tarbiyaviy ta’sirni kuchaytiradi. Tadqiqotimiz tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba shuhrati uning oliy o‘quv yurtida akademik o‘zlashtirishi darajasidan kelib chiqadi. Shuning uchun talaba shuhrati va muloqotga bo‘lgan ehtiyoji uning akademik o‘zlashtirishi va munosabatini belgilaydi.

Bu qoidalarni professor-o‘qituvchining bilishi o‘qitish va talabalar fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda “Talaba shaxsi – shaxslararo munosabatlar” ko‘rinishidagi suhbatlardan ko‘ra “talaba shaxsi – talabaning o‘quv faoliyati” tizimidagi masalalar e’tiborga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini kuzatishlarimiz ko‘rsatdi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan psixologik tadbirlar talabalarda ishonchlilik, muloqotda dovyuraklik, faoliyatda jasurlik kabi shaxs sifatini shakllantirishga va shu asosda talabaning o‘qituvchi bilan oson munosabatga kirishish imkonini yaratadi. Yoki aksincha, bunday shaxs sifatining yo‘qligi muloqotni qiyinlashtiradi va shaxslararo munosabatning pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, talaba-yoshlarning psixologik omillarini o‘quv-tarbiya jarayonida hisobga olish, ularga tayangan holda o‘quv tarbiya ishlarini tashkil qilish, birinchidan, talaba-yoshlar faolligi, mustaqilligi, erkinligini tarbiyalash uchun amaliy yordam ko‘rsatsa, ikkinchidan, ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida rivojlanish hamda shaxsning barcha fazilatlari qatorida fuqarolik pozitsiyasining tarkib topib, yuksalib borishi ta’minlanadi.

«Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlidir»,- deb yozgan edi Abdulla Qodiriy o‘zining mashhur «O‘tkan kunlar» romanida. Shunga asosan, o‘tmish bobokalonlarimizning shaxs barkamolligi va ma’naviy-axloqiy salohiyati to‘g‘risidagi qarashlari, g‘oyalarini o‘rganish va ulardan yosh avlod fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash uchun o‘rinli foydalanish xayrli ishdir. Zero, Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlarning falsafiy

va pedagogik ta'limoti tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil qiladi. Chunonchi, Sharq mutafakkirlarining shaxs pozitsiyasi, ma'naviyati, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi pedagogik g'oyalari hamda intellektual boyliklari jahon pedagogika nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan ulkan hissasi hanuzgacha o'z qadrini yo'qotmay barkamol avlodning ma'naviy salohiyatini shakllantirish va kasbiy yetukligini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shunday ekan, talaba-yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'tmish madaniy merosi va ulug' mutafakkirlarning pedagogik g'oyalarini o'rganish, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish muhim ijtimoiy-pedagogik xodisa hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari fuqarolik pozitsiyasi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri fikr yuritmagan bo'lsalar-da, ularning insoniy burch, mas'uliyat, majburiyat tushunchalarining tamal toshi hisoblangan ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal qoidalariga asoslanganliklarining o'zi talaba-yoshlar qalbida insoniylik his-tuyg'ularini junbushga keltirib, fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalay olishiga iymon keltiramiz. Chunki ajdodlarimizning yosh avlod tarbiyasi to'g'risidagi ta'limoti axloqiy-huquqiy ong, tafakkur, tasavvur, burch, mas'uliyat, majburiyat kabi fazilatlarning mazmun-mohiyatini teranroq anglash va ular asosida ish yuritishga da'vat etadi. Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek millati fuqarolik pozitsiyasining asosini tashkil etgan axloq-odob masalasi allomalar ta'limotida ulug'lanadi. Uning mazmunida insonga g'amxo'rlik qilish, uning hayoti haqida qayg'urish, husn, latofat, nazokat, odamiylik kabi fazilatlar asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Shuning uchun ham bo'lajak oliy o'quv yurtlarida bo'lajak ma'lumotli mutaxassislarni buyuk alloma va mutafakkirlarning ma'naviy o'gitlaridan bahramand qilib, ular ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etib, talablarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini yo'lga qo'yish hozirgi davr pedagogika nazariyasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yaqin va O'rta Sharq Uyg'onish davri allomalarning fuqarolik pozitsiyasi va undagi shaxslarning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi qarashlari, ularning ko'plab asarlarida ilmiy-amaliy jihatdan o'z ifodasini topganligining guvohi bo'lish mumkin. Shu nuqtai nazardan, Abu Nasr Al-Forobiyning (873-933) axloqiy-ma'rifiy g'oyalari diqqatga sazovordir. Al-Forobiy Sharq Aristoteli, ikkinchi muallim degan unvonlarga sazovor bo'lgan buyuk allomadir. Uning 160 dan

ortiq yaratgan asarlari falsafa, tabiatshunoslik, ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lib, undagi g‘oyalar ilmiy-falsafiy va pedagogik jihatdan asoslangan. Forobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishish haqida», «Matematika traktati», «Donolik javohiri», “Fozil shahar aholisining qarashlari” kabi asarlarida mamlakat hamda uning rahbarlarini **fozil** va **johillar**ga ajratadi. Fozil mamlakat hokimining fozilligi tufayli bu mamlakatda ilm-fan, pozitsiya, axloq-ma’rifat birinchi o‘rinda turadi. Uning fuqarolari esa ijobiy fazilatli bo‘lib, yaxshilik qilishni, adolatli bo‘lishni va ma’rifatli, jamoada yashash hamda mehnat qilishni o‘zlarining asl fuqarolik burchlari deb biladilar. Shuning uchun har doim ularga g‘alaba yor bo‘ladi.

Forobiy shaxs-fuqarolik pozitsiyasi xususida fikr yuritar ekan, uning go‘zal xususiyatlarini ta’lim va tarbiya bilan hal qilish mumkinligini ilmiy asoslab, o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida shunday yozadi: “ xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilatni birlashtirish degan so‘zdir”. “Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ kasb (kasb-hunar) fazilati, odat-malaka bo‘lib qolgan odamlarda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababchisi bo‘ladi. Bu ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hal qilinadi. Ta’lim degan so‘zlar xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazorat fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir” [115,184]. Forobiy bu bilan ta’lim faqat so‘z va voqelikni o‘rganishni ta’minlashga xizmat qilsa, tarbiya amaliy ish, tajriba orqali amalga oshiriladi , – deydi.

Forobiy bilimli, ma’rifatli, insongina fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lib donishmand kishi bo‘lishi mumkin deb, ular to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “Donishmandlarga ishonib, ixlos qo‘yib, ularga ergashuvchi odamlar o‘sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Ba’zilar esa bu narsalarni boshqalarning tasavvurlaricha, taqlid orqali biladilar. Bunday odamlar tabiatan yoki odatlariga ko‘ra ruhiy bilimlarni aslida qanday mavjud bo‘lsa, shunday tushunish qobiliyatiga ega emaslar. Mana shu ikki xil tasavvurlar ham bilim manbaidir, ammo donishmandlarning bilimlari, albatta, eng yaxshi

bilimdur". "Fozillar shahrining barcha aholisi samoviy xilqatlarni va ulardan har birining sifatlarini, so'ng shu hilqatlardan pastdagi tabiiy jismlarni, shuningdek, ularning qanday vujudga kelishi va yo'nalishi hamda ularda yuz berayotgan barcha hodisalarning mukammalligi, yaxlitligi, muruvvat, adolat bilan, oqilona ekanligini, bu xodisalarda hech bir nuqson, hech bir adolatsizlik yo'kligini bilishlari zarur" [115,167]. Shuning uchun insonlar voqelikdagi ma'lumotni bilishlari, bir-birlarini adolat va hurmat qilishlari, o'zaro insoniy munosabatda bo'lishlari lozim.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) – Sharqda «Shayx ur-rais» (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlangan. Bobokalonimiz ibn Sino O'rta asrlar fanining turli: falsafa, tibbiyot, tabiatshunoslik, dorishunoslik, kimyo, astronomiya, ruhshunoslik, pedagogika, fiziologiya, adabiyot sohalarida asarlar yozib, jahon fani uchun juda katta va bebaho ilmiy meros qoldirdi.

Ibn Sinoning pedagogik faoliyatida fuqarolik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z yurti va Vatanining jonkuyar farzandi bo'lgan ibn Sino yoshlarni qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar, o'z xalqi, mamlakati ravnaqi, gullab-yashnashi, tinchligi va baxt-saodati uchun kurashishga da'vat etadi. Buning uchun ibn Sino bolalar eng yoshlik davridan boshlab o'z Vatanining sarhadlarini, fuqarolarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, tarixiy merosini sinchiklab o'rganishlari va unga ijobiy munosabatda bo'lishlari lozim, deb biladi. O'zining bu g'oyalarini "Kitob al-shifo" to'plamidan o'rin olgan "Kitob ul-insof", "Donishnoma", "Hayy ibn Yaqzon", "Solomon va Ibsol" kabi asarlari mazmuniga singdirib, fuqarolarga xos insoniy pozitsiyani ulug'laydi. Bu asarlarda haq va haqsizlik, xalq manfaati uchun kurash, adolat tantanasini ulug'lash, shaxs fuqarolik pozitsiyasining eng yaxshi belgisi sifatida tavsiflanadi. Darhaqiqat, ibn Sinoning "Donishnoma" asarida fuqarolarning ilm-fanni egallashlari, hunar o'rganish, xalq va mamlakatga foyda keltirishlarini ta'kidlaydi. Chunki ilm-fan, kasb-hunar insonni ma'naviy yuksaltiradi va jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilm-fan fuqaro pozitsiyaliligi uchun bamisli shamchiroqdir. Allomaning fikricha, yaxshi odat, yaxshi xulq, o'zini anglash, fuqarolik burchini his etish, bilim egallash, Vatan ravnaqi uchun mehnat qilish faqat ilm-fan orqali qo'lga kiritilishi mumkin.

*Tark qil bor narsani, jon barchasidan a'lodur,*
*Jon kamoli ilmdandur, ilmdandur so'lu sog'.*
*Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm shamchiroq.*
*Hikmati insonni bilgil uch chiroqda misli yog'.*
*Ul agar ravshan yonar, sen va jamoa barcha sog',*
*Ul chiroq so'nsa, sen va jamoa o'lmasmu shu chog'* [44,102].

Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida fuqarolarning hayoti va faoliyati mamlakatning kichik yacheykasi bo'lgan jamoada tarkib topishi, amalga oshishi va rivojlana borishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi. Uning fikricha, inson o'zini o'rab turgan tabiat va tabiiy hodisalariga, tashqaridagi narsalarga shunday muhtojlik sezadiki, bu narsalarni u faqatgina jamoa bo'lib mehnat qilish orqali qo'lga kiritishi mumkin. Bunda jamoa a'zolari bir-birlarini hurmat qilishlari, qo'llab-quvvatlashlari, o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishlari lozim. Bunday munosabatda, ma'rifiy odatlar yordamida fuqarolik pozitsiyasi yuzaga keladi va insonlarni inoqlikka, yaxshilik qilishga yo'naltiradi.

Ibn Sinoning fuqarolik pozitsiyasiga oid qarashlarida aql va aqliy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, aql va aqliy tarbiya fuqarolikka mansublikni anglashda tabiiy va ruhiy holatlarning mohiyatini ochib berishga ko'maklashadi. Hayot, hayotiy quvvat, mehnat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi. Bularning mohiyatini inson aql va tafakkur orqali anglab oladi. Aql va tafakkurni rivojlantirish esa aqliy tarbiyaning vazifasidir. Ibn Sino bolada fuqarolik pozitsiyasini oilada, uy-ro'zg'or tutish odatlariga o'rgatish orqali shakllantirishni tavsiya qiladi. Shuning uchun Alloma ota-onalar, avvalo, ro'zg'or tutishda tejamli, o'z nuqson-kamchiliklarini tuzatib borishlari, o'z shaxsiy manfaati va ehtiyojlarini oila manfaati va ehtiyojidan ustun qo'ymaslikka harakat qilishlari lozim, deb biladi.

IX-XII asrlar pozitsiyasi va ma'rifati taraqqiyotida shu davrning ko'zga ko'ringan mutafakkiri Yusuf Xos Hojib (1021 yilda tug'ilgan, vafot etgan yili noma'lum) hisoblanadi. U o'zining 1069-1070 yillarda yozgan «Qutadg'u bilig» («Qutga, ya'ni baxt - saodatga erishtiruvchi bilim») asarida eng yaxshi insoniy fazilat va xususiyatlar ramziylashtirilgan. Bunda adolat Quntug'di deb nomlanib, shohning vazifasini; davlat – Oyto'ldi vazir vazifasini; aql-zakovat –O'gdulmish; qanoat esa O'zg'urmish va shoh maslahatchilari vazifasini bajaruvchilar sifatida tasvirlangan. Mutafakkir o'z asarida raiyat (oddiy

xalq, fuqaro)ning aql-zakovati, adolati, qanoati va insoniy fazilatlari uni baxt-saodatga erishtiradi deb, xulosa yasaydi. Shuning uchun butun asarda bir nuqta fuqarolik pozitsiyasiga ega inson masalasi qizil ip boʻlib oʻtadi. Asarda oddiy fuqaro, mehnatkash insonning ijtimoiy mohiyati, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi oʻrni, vazifasi bayon etilib, fuqaro bilimi, mehnati, oʻzgalarga boʻlgan munosabati, muomalasi, aql-idroki, sabr-toqati, adolati yordamida chinakam kamolga yetadi degan gʻoya ilgari suriladi. Asarda turli-tuman kasb egalari – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va boshqalarning kasb xususiyatlari, fazilatlarining e’tirof etilishi shu kasb egalariga boʻlgan muhabbat va hurmat ifodasini anglatadi. Barcha kasblar mazmunida fuqaroning bilim darajasi, aql-idroki, zakovati, qanoati, sabr-toqati ifodalanib, ular insonni komillikka eltuvchi omil sifatida gavdalantiriladi. Shuning uchun Yusuf xos Hojib podshohlarning bilimli, aql-zakovatli, qanoatli boʻlishlarini, oʻzboshimchalik va qonunsizlikka yoʻl qoʻymasliklarini maslahat beradi.

Yusuf xos Hojib bilimni shaxs fuqarolik pozitsiyasining asosi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning rivoji uchun qudratli kuch deb biladi va uni egallashga da’vat etadi:

*Kimda-kim bilimga berdi oʻz yoʻlin,*
*Ezgudan oʻzgaga choʻzmadi qoʻlin.*
*Bilimni buyuk bil, oʻquvni ulugʻ,*
*Shu ikkov jilovin qoʻymagin qutlugʻ.*

Mutafakkir ijtimoiy hayotni, axloqiy muhitni faqat bilim bilan yaxshilash mumkin deb biladi. Chunki bilim har qanday jumboq va dardlarning kaliti hisoblanadi. Chunonchi:

*Bilimsiz barchasi dardmandir, dardman*
*Bu dard davosiga bilim hunarmand.*

Shuningdek, Yusuf xos Hojib qanoatning, aql-zakovatning yuksalishiga katta ta’siri mavjudligini ta’kidlaydi. Oʻzgʻurmish (qanoat)ning Oʻgdulmish (aql-zakovat) soʻzlariga bergan javobida barcha yaxshiliklarning, baxt-saodatning asosi ezgulik, vafo, adolat, haqiqat ekanligini uqtiradi va doim yolgʻon, munofiq ishlardan uzoq boʻlishi kerak, deb maslahat beradi.

Shunday qilib, XI asrda yashab oʻtgan Yusuf xos Hojib odamlarning bir-birlariga mehr-muhabbatli, sadoqatli boʻlishlari, imkon darajasida ezgu ishlarni koʻproq qilishlarini, yolgʻondan, yomondan uzoq yurish lozimligiga alohida ahamiyat beradi. «Qutadgʻu

bilig» asarida ko‘tarilgan ma’naviylik, madaniylik, axloqiylik, ma’rifatparvarlikni talaba-yoshlar ongiga singdirish, bilim, o‘quv-idrok, qanoat asosida ish tutishga o‘rgatish fuqarolik pozitsiyasi asoslarini tarbiyalaydi va fuqarolik burchi fuqarolik his-tuyg‘ulari, fuqarolik tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi:

*O‘quv-idrok qora tuningga chiroq,*
*Bilim nuri bilan yonar yaxshiroq.*
*Idrok, bilim elning laylatul qadri,*
*Bu ikki tufayli yerda er qadri.*

Demak, o‘quv-idrok, bilimlilik, ezgulik, zakovat, qanoat komillikning muhim xususiyatlari ekan, Quntug‘di shu sifatlarga rioya qilishi va bu fazilatlarni o‘zida shakllantirishi zarur. Buyuk alloma ilm va ma’rifatni pozitsiyali hayotning tamal toshi deb biladi. Shoir ilmli kishida xushxulqlik, mehribonlik, sa’yi-harakat, yovuzlikdan saqlanish kuchli bo‘ladi deb biladi. Shuning uchun ham tinchlik, baxt-saodat, ezgulik, taraqqiyot ilm asosida qurilgan inshootlardir.

O‘zbek xalqining pozitsiyasevar, pozitsiyaparvar, adolat bayroqdori va davlat arboblaridan biri Amir Temurning (1336-1405) fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi fikrlari bugungi kun uchun muhim va ahamiyatlidir. Chunonchi, Amir Temur-buyuk shaxs, davlat arbobi, yetuk sarkarda, mard va adolatli shoh, valiylar suhbatini sevuvchi, ulardan ma’naviy ozuqa oluvchi, iymon-e’tiqodli inson, talantli me’mor, notiq, ruhshunos va pedagogdir. Amir Temurning fuqarolik pozitsiyasiga xos fazilatlaridan yana biri mamlakatda ilm-fanni rivojlantirish, yurt obodonchiligi, fuqaro tinchligi va faravonligiga e’tibor qaratganligidir. Amir Temur o‘z saltanatida ilm-fan rivojiga e’tibor berish bilan birga, fuqarolarning tarbiyasiga ham alohida e’tibor bilan qaraganligining shohidi bo‘lamiz. Amir Temur mamlakatida iymon va e’tiqod fuqarolik pozitsiyasining asosiy mezoni sifatida e’tirof etiladi. Bu mezonlar diniy aqidalarni mukammal bilish, javonmardlik, bahodirlik, fuqaro manfaatini ko‘zlab ish tutish kabi insonparvarlik va adolat mezonlari bilan mustahkam tarzda amal qilgan.

Amir Temur ilm-fanni egallashda bilimning ahamiyatini teran tushungan shaxs. Chunonchi, bilim olish milliy g‘ururni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Bilimsiz inson kamolotga erisha olmaydi. Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan odobli, axloqli, kamtarin, yaxshi, yomonni tushunadigan fozil inson bo‘ladi.

Amir Temur bilimning ahamiyati va darajasini davr pozitsiyasi, taraqqiyot rivojidan yuqori bo‘lishi uni o‘ziga ergashtirishga xizmat qilishi lozim, deb bilgan. Shu bois, mamlakatda ta’lim-tarbiyani kuchaytirish uchun masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurib diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rgatishni yo‘lga qo‘ygan. “Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqoxlar qurishni buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qoziylarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar berib turishni buyurdim” [103,58]. pozitsiyaning ma’naviy nur, ma’rifiy shamchiroq bo‘lib, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayot yutuqlarini ta’minlashda muhim qurol bo‘la olishini, shuningdek, pozitsiya kishilarning o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik va donishmandligida namoyon bo‘lishini teran anglagan kishilar Amir Temur tomonidan rag‘batlantirilgan.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari markazida inson va uning qadr qimmatini joyiga qo‘yish hamda fuqarolik pozitsiyasi g‘oyasi turadi: “... ra’iyat ahvolidan ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Kim menga do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo‘lib, iltijo bilan himoya istab, tiz urib oldimga kelsa dushmanligini unutib, muruvvat va do‘stlik ko‘rsatdim. Farzandlar, qarindoshlar, oshno-og‘ayni, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni unutmadim. Har kimni (turish-turmushning pastu balandlarida) turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim” [103,60]. Shariat va urf qonunlarini nazarda tutgan holda odamlar bilan muomala qilinsa, ular shohga ishonadilar va uning aytganlarini jonu dil bilan bajarishadi. Amir Temur mudom shunga amal qilgan.

Shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo‘nalishida bebaho meros qoldirgan buyuk mutafakkirlardan biri, so‘z mulkining sultoni **Alisher Navoiydir (1441-1501)**. U yosh avlodning axloqiy-ma’naviy shakllanishiga, uning komil fuqaro bo‘lib tarbiyalanishiga katta e’tibor bilan qaraydi. Uning “Hayrat ul-abror” (1483), “Farhod va Shirin” (1484), “Layli va Majnun” (1484), “Sab’ai sayyor” (1484),

“Saddi Iskandariy” (1485) kabi dostonlarida komil inson masalasi jaranglab turadi. Alisher Navoiyning fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi tasavvurlari komil inson g‘oyasi bilan sug‘orilgan. Zero, uni komillik konsepsiyasining mazmuni adolat, faqirlar to‘g‘risida qayg‘urish, yo‘qsillarga, beva-bechoralaraga g‘amxo‘rlik qilish, bilim va donishmandlik, ota-onaga hurmat, e’zoz, mehnatsevarlik, o‘z luqmasini halol yo‘l bilan topish, beg‘araz do‘stlik, ishbilarmonlik, hunar egallash kabi shaxs pozitsiyasining tarkibiy qismlaridan iborat bo‘lgan. Yuksak fuqarolik pozitsiyasi uchun kurashgan shoir o‘z zamonasining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolaridan kelib chiqib, o‘z asarlarida adolat, saxiylik, hunar o‘rganish, xushomadgo‘ylikka, ikkiyuzlamachilikka, o‘z manfaati yo‘lida har qanday pastkashliklarga boruvchilarga qarshi kurashish g‘oyalarini ilgari surgan.

Shaxs fuqarolik pozitsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan adolat, halq va mamlakat manfaati uchun qayg‘urish tuyg‘usi Alisher Navoiy ijodining bosh g‘oyasini tashkil etadi. Shoir adolat, insonparvarlik g‘oyalari uchun kurashgan fuqarolarni, fuqaroparvarlik va mehnatparvarlikni o‘z ijodining mahsuli, deb biladi va fuqarolarni hayot hamda tafakkur yo‘lini yorituvchi shamga qiyoslaydi:

*Ey ko‘ngul har dam chekarsan el g‘amini, g‘am dema,*
*Har damikim el g‘amidin xoli o‘tsa, dam dema.*
*Bo‘lmasa el dardiga mahram, uni marham dema,*
*Odamikim el uchun qayg‘urmasa, odam dema* [75,112].

Fuqarolik pozitsiyasining muhim xususiyatlaridan biri ota-ona hurmatini bajo keltirish deb bilgan. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida shunday yozadi:

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,*
*Jismini qil sadqa ano boshig‘a.*
*Tun-kuningga aylagil nur fosh,*
*Birisin oy angla, birisin quyosh.*

Odob va Tavoze’ni Fuqarolik pozitsiyasining muhim mezonlaridan deb bilgan alloma “Mahbub ul-qulub”ning «Tavoze’ va odob to‘g‘risida» nomli qismida shunday yozadi: “... Odob – kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo‘ladilar. Odob ulug‘lar ko‘nglida yoshlarga mehr uyg‘otadi va u odobli yoshga bo‘lgan muhabbat ko‘nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan fe’l-atvori bu

odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug‘vorlik ko‘radi” [75,112].

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi “Turli foydali va maslahatlar”ga bag‘ishlanib, unda odamiylik, chin insoniylik to‘g‘risidagi g‘oyalari shoirning o‘z hayot tajribalaridan keltirgan voqealar bayonini ifoda etadi. Bu qismdagi pand nasihatlar Navoiyning yuksak insoniy fazilatlar, ezguliklarni madh etish, targ‘ib etish, ayni paytda fuqarolardagi xunuk, insoniylikka xos bo‘lmagan xislatlarni tanqid ostiga olishi, uning ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi. Buyuk allomaning “Lison ut-tayr” asarida ham inson va uning ulug‘ligi, sabr-toqatligi, kamtarinligi, eng muhimi, o‘zligini, o‘zini anglashi to‘g‘risidagi g‘oyalari teran mazmun, serjilo badiiy bo‘yoqlar orqali bayon etilganki, ular bevosita yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun muhim manba bo‘la oladi. Mazkur asarni o‘rganish va uning ma’naviy-axloqiy mazmunini talaba-yoshlar diqqatiga havola qilish o‘qituvchidan, albatta, katta bilim, yuksak badiiy-adabiy, ruhiy-pedagogik mahorat talab etadi. Chunonchi, mualif bu asarda o‘zini, o‘zining ma’naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlarini bayon etar ekan, sabotli bo‘lish, chidamlilik, kamtarona hayot kechirish, xalq g‘ami bilan yashash, zohiran va botinan Ollohga mansublik, hamnafaslik, Haq yo‘lida riyozat chekish kabi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarini bayon etadi. Asar mazmuni Navoiyning hayot mazmunidir. Shunga asosan, asar o‘rganilayotgan va badiiy-tarbiyaviy xususiyatlari tahlil qilinayotganida uning g‘oyaviy mundarijasini emas, balki Talab, Ishq, Ma’rifat, Istig‘no, Tavhid, Hayrat, Fakru Fano kabi manzillarining g‘oyaviy-axloqiy mazmunini tahlil qilish orqali mutafakkirning komil shaxsning fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi g‘oyasini anglash mumkin bo‘ladi. Fuqarooviylikning muhim xususiyatlaridan biri – o‘zini va o‘zligini anglashdir. Ya’ni, Olloh jamoliga yetishish hamda o‘zgalarni kamolotga erishishi uchun yo‘l ko‘rsatish, riyozat chekishdir.

Buyuk mutafakkirning fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi qarashlarini umumlashtirib, ular quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topgan deb xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiyning pedagogik merosini o‘rganish uni talaba-yoshlar ongiga yetkazish va shu asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagilarga e’tibor qaratishni tavsiya qilamiz:

- fuqarolik pozitsiyasining negizi axloq va axloqiylikdir;

- jamiyat, millat, xalq uchun fidoyi inson bo‘lish uchun adolat, haqqoniyat, vijdon amriga rioya qilish;

- yaxshi xulqlarni har qanday insonni qudratli, matonatli, qanoatli qilishiga qodir kuch deb bilish;

- yomon xulqlardan saqlanish, chunki ular jaholat va halokatga yetaklaydi;

- axloq, axloqiylik, barkamollik fuqaro pozitsiyasining shakllanishi uchun qudratli kuch hisoblanadi. Shuning uchun ularni talaba-yoshlarda tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Shunday qilib, fikrlarni yakunlab shuni aytish mumkinki, O‘rta asr mutafakkirlarining fozil inson, orif fuqaro, komil shaxs to‘g‘risidagi ta’limoti, yosh avlodni mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalashda eng muhim dastur bo‘lib xizmat qila olgan va u talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qodir. Buyuk allomalarning barkamol inson, pozitsiyali fuqaro xususida yuritgan fikrlari metodologik ahamiyatga ega. Chunki ular nafaqat o‘tmish, balki bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

## II bob bo‘yicha xulosa

1. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirish, Yangi O‘zbkistonni barpo etish sharoitida bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda, jumladan, siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish muhim pedagogik hodisa hisoblanishi asoslandi.
2. Bo‘lajak siyosatshunoslarda xuquqiy demokratik davlatni yanada rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasi asoslarini takomilashtirish g‘oyalari asosida fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashda pedagogik, psixologik, metodologik bilimlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etishi va fanlar mazmunida bayon etilgan g‘oyalar yoshlarning dunyoqarashi va pozitsiyasini tarkib toptirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi muqarrarligi isbotlandi.
3. Bobda, “fuqaro”, “fuqarolik”, “ pozitsiya”, “fuqarolik pozitsiyasi”, “rivojlanish”, “fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish” tushunchalari falsafa, etika, estetika, pedagogik, psixologiya fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilinib, “Fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish” so‘z birikmasi pedagogika fani nazariyasi va amaliyotda qo‘llash

hamda uni har bir yosh avlodda rivojlantirish ishlarini tadqiq qilish Yangi O‘zbekistonni qurish sharoitida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etishi dalillandi.

4. Bo‘lajak siyosatshunoslarda ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik turkum fanlar mazmunidagi mavzular katta pedagogik ahamiyat kasb etishi va bu fanlar bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda manba bo‘lib xizmat qila olish mumkinligi ilmiy-nazariy tahlilar asosida izohlandi.

5. Har bir oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis singari bo‘lajak tibbiyot xodimi mutaxassisida fuqarolik, fuqaroviylik, fuqarolik ongi, fuqarolik dunyoqarashi, fuqarolik e’tiqodi kabi falsafiy-pedagogik va sotsiologik tushunchalar fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismlari sifatida, shaxsning dunyoqarashini, o‘z ixtisosligiga, jamiyatga, shaxsiy hayotga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

6. Bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi yoshlarni ma’naviy, axloqiy takomillashtirishda va ularda Vatanga muhabbat, milliy mustaqilikka iftixor, yurt tinchligiga sadoqat va hurmat kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi tavsiflandi.

# III BOB. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASI VA KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

## 2.1. Binar-dialogli integrativ ma’ruzalarni tashkil etish metodikasi

Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bugungi kunning zarurati hisoblanadi. Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarda talabalarning o‘z mutaxassisligi doirasida bilimlar bilan birga, fanlararo bog‘liqlik imkoniyatiga hamda faoliyat jarayonida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Bugungi kunda talabalarga ta’lim metodikalarini aloqadorlikda o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlili natijalari dalolat beradiki, ularning nazariy-metodik tafakkuri, tayyorgarlik darajasi o‘quv fanilarda rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalarini qabul qilish va mustaqil integrativ faoliyat olib borishga tayyor emas. Fikrimizcha, siyosatshunoslik yo‘nalishi talabalarida mobillik, moslashuvchanlik, integrativlik qirralari yetishmaydi. N.V.Amosovaning fikriga ko‘ra, pedagogik o‘quv muassasalari “ko‘p fanlilik” asosida faoliyat olib borishi ta’kidlanadi. Bu sharoitda esa talabalar bir vaqtning o‘zida ko‘pincha bir-biri bilan asosli bog‘lanmagan, bir-birini takrorlovchi bir qator o‘quv fanlarini o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Ko‘p fanlilik bilan bir qatorda o‘qituvchi tayyorlashning “elementlar bo‘yicha” tendensiyasi rivojlanib, u alohida elementlar, qismlardan tarkib topib, ularning har biri tegishli fanga oid nazariy ma’lumotlar hamda u belgilab beruvchi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar asosida vujudga keladi. Muallifning fikricha, bunday tayyorgarlik amaliyotda shaxsning butun ijodiy salohiyati yuzaga chiqishini ta’minlamaydi, “chunki talabalar tomonidan turli fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilayotgan bilimlar ko‘pincha yaxlit ilmiy manzara hosil qila olmayapti, chunki o‘zaro bog‘langan emas, balki alohida elementlar ko‘rinishida taqdim etiladi” [35; 28-b].

Talabalar nazariy-metodik tayyorgarligida mutaxassislik fanlaridan metodik bilim, ko‘nikmaga ega ekanligi muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, talabalar pedagogik faoliyatlarida bilimlarni talabalarga yetkaza olish malakasiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Mazkur vaziyatda esa nazariy-metodik ko‘nikmaga egalik muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar metodik fanlardan quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim: mutafakkirlar merosidan foydalana bilish; darslarda amaliy ishlarni tashkil etish; darslarni integratsiyalash; ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish; fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish; fanlararo aloqadorlikni o'quv jarayoniga tatbiq etish; interfaol metodlar bilan ishlay olish; darslarda internet manbalarini qo'llash; nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligini ta'minlash; yangi bilim berish jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash; dars jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish; innovatsion metodlarni qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Bugungi kunda talabalarning nazariy-metodik tayyorgarlik darajasini yetarlicha rivojlantira olmaslikning bir qator omillari ko'zga tashlanadi:

- birinchidan, nazariy-metodik tayyorlashga metodik, ixtisoslashtirilgan va gumanitar fanlar o'rtasida integrativ aloqadorlik yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;
- talabalarning ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlari mustaqil ta'lim hamda pedagogik amaliyot jarayonida tizimli foydalana olinmayotgani, nomutanosiblik ko'zga tashlanib turishi;
- nazariy-metodik tayyorgarlikning nazariy va amaliy qismi o'rtasidagi optimal nisbat masalasi hanuz hal etilmaganligi;
- talabalarni nazariy-metodik tayyorlashda ularning integratsiyalashuv qobiliyatini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi;
- talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga imkon beruvchi fanlararo aloqadorlikni o'rganish amaliyoti deyarli mavjud emasligi;
- oliy ta'limning o'quv dasturlarida siyosatshunoslik sohasida kadrlar kasbga tayyorlashning integrativ jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi.

Nazariy tayyorgarlik qanchalik chuqurlashtirilmasin, unga qanchalar ko'p o'quv soatlari va fanlar ajratilmasin, uning o'zi kelgusi nazariy-metodik faoliyatning ilmiy asosi bo'la olmaydi. Chunki talabaning erkin improvizatsiyasiga, talabalar bilan muloqot amaliyotida shaxsning butun salohiyati namoyon bo'lishiga imkon

bermaydi.

Mazkur tahlil qilingan kamchiliklarni bartaraf etishda talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasiga integrativ nuqtai nazardan yondashish uni hal qilish bo‘yicha qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda integrativ darslarni tashkil etishda bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi. Bular:

- integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etish yo‘llari sirtdan qaragandi takror qo‘llaniladi. Bu esa innovatsion g‘oyalar taklif etishga hamda yangi ilmiy asos yaratishda muammolarni yuzaga keltiradi.
- integratsiyalashgan darslar fanlararo bog‘liqlik darajasida namoyon bo‘lmaydi. Bizningcha, ular fanlararo aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi komponetlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.
- integratsiyalashgan darslar o‘quv rejasining o‘zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.
- integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalarning yetarli emasligi integratsiyalashgan darslarning tashkil etilishida muammolarni yuzaga keltiradi.
- fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etiladigan darslarni tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilarni maqsadga muvofiq hamda rejali o‘qitish va tayyorlash tizimi hal etilmagan.

Fikrimizcha, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish bir qator yangi tadqiqotlarni talab etadi. Biz tadqiqotimiz muammosi yuzasidan talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda mutaxassislik fanlari mazmuniga singdirilgan mavzularni maxsus dastur asosida tashkil etishga harakat qilamiz. Mazkur dastur **“Binar-dialogli ma’ruza”** deb nomlanib, uning tuzilishi quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan. (2.2-jadval)

**2.2-jadval**

**“Binar – dialogli ma’ruza” integrativ dasturi**

| № | **INTEGRATIV FANLAR** | | | **Ajratilgan soat** | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi | Mutaxassislikka kirish | Siyosat nazariyasi va metodologiyasi | Nazariy/ amaliy | Soat |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| *2* | Siyosatshunoslik ta'limining shakl va metodlari | O'qitish metodlari | Siyosiy ta'limotlar tarixi | *N* | *2* |
| *3* | Siyosatshunoslikni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari | Darsdan tashqari mashg'ulotlar ni tashkil etish | Siyosatshuno slikdan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari. | *N/A* | *4* |
| *4* | Siyosatshunoslik o'quv fani bo'yicha ma'ruza tayyorlash va o'tkazish | Ma'ruzada o'qituvchi va talabalarga qo'yiladigan talablar | Didaktika | *N* | *2* |
| *5* | Siyosiy ta'limda zamonaviy o'qitish metodlari | Zamonaviy o'qitish klassifikatsiya si | Umumiy pedagogika | *N/A* | *4* |
| | **JAMI:** | | | | **12** |

Har bir ma'ruza mashg'ulotlari keng hajmli ilmiy ma'lumotlarni talabalarga yetkazishning an'anaviy shakli hisoblanadi. Ma'ruza darslarini tashkil etish samaradorligini oshirish borasida doimiy izlanishlar olib boriladi.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib o'ziga xoslikka ega "Binar-dialogli ma'ruza" orqali talabalar nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

Integratsiyalashgan binar – dialogli ma'ruzalar bugungi kunda samara beradigan zamonaviy ma'ruza turi xisoblanadi. Mazkur ma'ruza o'z tinglovchisiga ega bo'lishi bilan bir qatorda har bir talabaning bilim o'zlashtirish jarayonida yangi materiallarni hissiy-emotsional tarzda qabul qilishlariga yetarli imkoniyat yaratadi. Binar ma'ruzaga "ma'ruza o'qishning alohida bir turi bo'lib, u ikki ma'ruzachining dialogi tarzida o'tkaziladi. Unda ikki yondosh fan mutaxassislari, nazariyasi va amaliyotchi yoki ikki ilmiy maktab a'zolari ishtirok etadilar" deb ta'rif beriladi [43;104-b].

“Binar-dialogli ma’ruza” asosiy fan doirasida ma’ruza materiallari elementlari tuzilmasiga ikkinchi fan yuzasidan manbalarni taqdim etish usuli ham hisoblanadi. Bu ma’ruzaning mohiyati shundaki, “ta’lim jarayonining har bir asosiy komponentining umumiy tuzilishiga aloqador fan manbasi birlashtiriladi” [43;104-b].

“Binar-dialogli ma’ruza” o‘rganilayotgan muammo doirasida, asosiy tarkibiy qismlarni integratsiyalashgan yaxlitlikka kiritish usuli bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta bilim (faoliyat) sohasini tahlil qilish funksiyasiga ega. Tahlil qilish natijasida esa integratsion bilimlarning shakllanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

“Binar-dialogli ma’ruza” bir qator shartlarga: bir darsda ikki yoki undan ortiq fanlardan materiallar sintezi; turli bilim sohalari mutaxassislarining darsda ishtirok etishi; munozara mavzusini tanlash, talabalarning turli xil, ba’zan bir-birini istisno qiladigan tushunchalar o‘rtasidagi umumiy bog‘lanish nuqtalarini topish talabiga asoslanadi. Bu esa quyidagi sxemada namoyon bo‘ladi:




**O‘Q+BO‘+T=ID**

**O‘qituvchi+binar o‘qituvchi+talaba = ilmiy dunyoqarash**

**2.4-rasm. “Binar-dialogli ma’ruza” sxemasi**

“Binar-dialogli ma’ruza” mashg‘ulotini tashkil etishda, masalan, “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fanida “Siyosatshunoslik ta’limining shakl va metodlari” mavzusi o‘rganiladi. Mavzu mohiyatini fanlararo aloqadorlikda yoritib berishning mazmuni o‘qituvchidan “Siyosat nazariyasi va metodologiyasi”, “Siyosiy ta’limotlar tarixi” fanlaridagi “Ma’ruzada o‘qituvchi va talabalarga qo‘yiladigan talablar” mavzularni o‘zlashtirishni talab etadi. Tabiiyki, bu bilim turlarining

tarkibiy qismlarining oddiy yig‘ilishini emas, balki o‘quv materialini taqdim etish va assimilyatsiya qilish jarayonida ularning organik sintezini nazarda tutadi.

“Binar-dialogli ma’ruza”ga misol sifatida “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” fani misolida quyidagicha ko‘rsatish mumkin: binar dialogli ma’ruza davomida o‘qituvchi (SO‘M) tomonidan berilgan, dalillangan, tasvirlangan o‘quv materiallari yondosh fan (SNM) o‘qituvchisi tanlagan materiallar bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu bilan birga, konsepsiyalarni shakllantirishda birlik, izchillik va uzluksizlikka erishiladi, materiallar takrorlanmaydi, muhimi, binar usulidagi mashg‘ulot payti talabalarda bu mavzuni o‘rganishga qiziqish va xohish kuchayadi. “Binar-dialogli ma’ruza”da o‘quv fanlari bilan integratsiyalashuv munosabatlari uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

I. Eng yuqori - yaxlitlik darajasi, bunda yangi integratsiyalashgan mavzu doirasida to‘liq mazmunli va protsessual integratsiya mavjud (masalan, “SO‘M va SNM”);

II. Didaktik sintez darajasi, bunda har bir ob’ekt saqlab qolinadi va integratsiya ulardan bittasi asosida amalga oshiriladi. Bunda integratsion omil umumiy o‘rganish ob’ektlari hisoblanadi;

III. Sub’ektlararo aloqalar darajasi, bunda ob’ektlar tarkibining umumiy elementlari birlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Eng istiqbolli va samarali muloqot didaktik sintez darajasi hisoblanadi.

“Binar-dialogli ma’ruza” darslarida, integratsiya o‘rtasida aniq mazmunli izchillik mavjud bo‘lib, ikki xil yo‘nalishlar har biri alohida harakat qilmasligi, bir -birini organik ravishda to‘ldirishi muhim hisoblanadi.

“Binar-dialogli ma’ruza”da o‘qituvchilar fanlararo aloqadorlikka asoslangan integratsion masalalar, integratsion vazifalar va integratsion vaziyatlarni taqdim etishlari muhim hisoblanadi. Jumladan, talabalar integratsion xarakterdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida fanlararo bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek:

a) turli fanlardan olingan bilimlarini muammoni hal etishga jalb etish;

b) mavjud kasbiy tajribaga tayangan holda mustaqil o‘zlashtirish jarayonidagi bilimlar bilan yangi o‘zlashtirgan tushunchalarning kombinatsiyasiga erishish [14; 60-66- b];

v) ta’limotlar, hodisalar, tushunchalar, ta’limotlar, dunyoqarash va boshqalarni solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshiliklardan foydalanish.

Integratsion savollar quyidagicha namoyon bo‘ladi: “Aytaylik, siz “Siyosatshunoslikni o‘qitish metodikasi” va “Siyosiy ta’limotlar tarixi” bir-biridan farq qiladi deb bilasiz, lekin ulardagi o‘zaro aloqa nuqtalarini birlashtira olasizmi?”

“Binar-dialogli ma’ruza” so‘ngida ekspress savollardan foydalanish maqsadga muvofiq (5-7 daqiqa).

Integrativ vazifalar — nazariy-amaliy bilimlarni o‘zlashtirish va pedagogik faoliyatda samarali o‘rinni egallaydi va uning ikki komponenti o‘rtasida bog‘liqlik va muvofiqlashtirish jarayonini o‘rnatishni talab qiladi. Shunday qilib, nazariya va faoliyat bir-birini faol ravishda to‘ldirgan taqdirdagina integrativ vazifalarni bajarish mumkin.

Bularga induktiv, qisman induktiv va deduktiv xarakterdagi murakkab kognitiv vazifalar kiradi. Integrativ vazifalar turli fan guruhlariga mansub hodisalarni taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, amalda foydalanish kabi tafakkur operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni talab qiladi. Masalan, talabalardan o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlashni talab qiladigan vazifalar, texnik bilim va pedagogik bilimlarning xususiyatlari, ilmiy bilimlarning bu turlarining umumiy va farqlovchi xususiyatlarini aniqlashga doir vazifalar.

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuv asosida talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda “Binar-dialogli ma’ruza” ta’lim sub’ektlari harakatlarining o‘zaro mosligini nazarda tutadi. Faoliyatda sub’ektlar harakati umumiylikka ega. Faqat sub’ektlar faoliyatlari mazmunan o‘zaro tavsiflanadi.

**2.3-jadval**

**Binar-dialogli ma’ruza texnologik xaritasi**

| **Bosqich-lar** | **Faoliyat mazmuni** | | |
|---|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **Yondosh fan o‘qituvchisi** | **Talaba** |
| **1-bosqich.** Maqsadli (10daqiqa) | 1.1. *Tashkiliy boshlanish*. Talabalar davomati aniqlanadi. 1.2.dars mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan talabalarni tanishtiradi. | Mavzu mazmunini boshqa predmet asosida rivojlantirish orqali motivatsiya uyg‘ota olish | Talabalar predmetlararo bog‘liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishga tayyorlanish |
| **2-bosqich**. Isbotlash (30 daqiqa) | 2.1. O‘qituvchi talabalarni yangi mavzu bilan tanishtiradi. Talabalarni ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi bilimlarga turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag‘batlantiradi. | Mavzu doirasida o‘zaro aloqador materiallarni taklif qiladi. | talabalar o‘z irodalarini bilimlarni aloqadorligini anglashga qaratadilar. |
| **3-bosqich.** Mazmun | 3.1.Professor-o‘qituvchi yangi o‘quv materialini kiritadi. | Integrativ tushunchalar, dalillarni muammo majmui darajasidagi | Umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | bilimlarni jalb qiladi. | darajasida o‘zlashtiradilar. |
| **4-bosqich.** Vositalar tanlash | Professor-o‘qituvchi yangi mavzu yuzasidan ko‘rgazmali vositalar, darsliklar, tablisalar, sxemalar, savolnomalar, integrativ vazifalarni beradi | Turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi vaziyatli masalalarni taklif etadi | Umumlashtirish, aloqadorlik xususiyatlarini, masalalarni hal qilishda turli vositalar yordamida bajaradilar |
| **5-bosqich.** Natija | Ta’lim vazifalarini (ta’limiy, tarbiyaqiy,rivojlantiruvchi) maqsadida pedagogik , psixologik, ijtimoiy bilimlarni qo‘llaydi. | O‘zaro aloqadorlik asosida integrativ topshiriqlar tizimini taklif etadi | Talabalar bilimlar tizimida umumlashtirib, ularni amalda qo‘llaydi. |
| **6-bosqich Nazorat** | O‘qituvchi bir-biri bilan bog‘langan predmetlarga talabalarnnng tayyorgarligini baholaydi. | Talabalarni o‘z fanidan olgan bilimlarini o‘rganilgan mavzu bilan bog‘lash darajasini nazorat qiladi, o‘zlashtirish sifatida baholaydi. | Talabalar turli predmetlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ham, ularni uyg‘unlashtirish ko‘nikmalarini tahlil qiladilar |

Mazkur texnologik xaritaga tayanib “Binar-dialogli ma’ruza” ishlanmasini keltirib o‘tamiz. Buning uchun “Binar-dialogli ma’ruza” integrativ mashg‘ulotini rejalashtirib olish maqsadga muvofiq. (2.3-jadval)

**2.4-jadval**

**"Binar-dialogli ma'ruza" integrativ mashg'ulotini rejalashtirish tuzilmasi**

| № | Asosiy fan | Yondosh fanlar | Integrallashgan mavzular | Innnovatsion texnologiyalr |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Siyosatshunoslik o'qitish metodikasi | Siyosiy ta'limotlar tarixi<br><br>Siyosat nazariyasi va metodologiyasi | Siyosatshunoslikni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari<br>Siyosatshunoslik o'quv fani bo'yicha ma'ruza tayyorlash va o'tkazish. | Sinkveyn<br>Kubik<br>Bino metodi<br>Assisment texnikasi |

Integral yondashuv asosida talabalarning nazariy va uslubiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida integrativ amaliy mashg'ulotlar hamda binar dialog kurslarini tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ham bajaradi.

## 3.2. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish modeli

Bo'lajak siyosatshunos kadrlarning bugungi tayyorgarlik darajasi kelajak avlodni o'qitishning sifat-samaradorligini belgilab beradi. Talabalarning har tomonlama rivojlanishi, xalqaro baholash dasturlari talablariga javob beradigan darajaga ko'tarilishi, albatta, o'qituvchining nazariy-metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ma'lumki, global axborot tarmoqlarining paydo bo'lishi bilish jarayonining texnologik tomonini tubdan o'zgartiradi. Mazkur jarayonni fanlarning aloqadorligi hamda ilmiy bilimlar ob'ekti sifatida fanlarning o'zaro ta'siri, metodologiyasi, nazariyasi, texnologiyasi va fanlararo integratsiya jarayonlarini boshqarish tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuvning markazini ilmiy dunyoqarash egallaydi. Shuningdek, talabaning nazariy-metodik shakllanishi, madaniyatini, qadriyatlarini tarkib toptirishga asos bo'ladi. Integrativ yondashuv murakkab ijtimoiy-madaniy sharoitlarda erkin harakat qila oladigan bo'lajak siyosatshunoslik fani

o‘qituvchisining yuqori darajadagi pedagogik tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda talabalarning nazariy-metodik faoliyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilganligi bilan yangi avlod standartlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun shart-sharoit yaratish yetarlicha ahamiyatga ega emas. Chunki ta’lim jarayonida taklif etiladigan individual yo‘naltirilgan vazifalarni epizodik ravishda kiritish talabalarni nazariy-metodik tayyorlash kontekstida yaxlitlikni ta’minlamaydi. Bo‘lajak siyosatshunoslik fani o‘qituvchilari nazariy-metodik faoliyatida mutlaqo boshqa bilim sohalarini: siyosiy ta’limotlar tarixi, umumiy pedagogika, didaktika va boshqa predmetlarni o‘qitish bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, mazkur muammoni hal qilishda bo‘lajak siyosatshunoslik fani o‘qituvchisining yuqori va o‘rta rivojlanish darajasida integrativ yondashuv asosida nazariy-metodik ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish imkoniyatini beradi. Zero, har qanday bo‘lajak mutaxassisni nazariy-metodik rivojlantirish modeli tegishli ishlab chiqarish maydonining talablariga javob beradigan, uning samarali faoliyati uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan nazariy-metodik maqsadlar, funksiyalar va fazilatlarning uyg‘unlashuvini o‘z ichiga oladi.

Talabalarni integrativ yondashuv asosida nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish o‘ziga xos tizim bo‘lib, unda talabalarning nazariy-metodik va shaxsiy sifatlari tarkib topadi. Shuningdek, mazkur tizim davlat ta’lim standarti talablari asosida umummadaniy, umumnazariy-metodik, metodik bilimlardan foydalana olish malakalarini o‘zida qamrab olgan murakkab dinamik xarakterga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi. Quyida mazkur tizimning tuzilmasini keltirib o‘tamiz. (3.1-rasm)




**3.1-rasm. Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyani takomillashtirish shart-sharoitlari**

Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda ***tashkiliy-pedagogik bilimlarning ahamiyati katta bo‘lib,*** ular:

- umumiy ta’lim ko‘nikmalarini ta’lim maqsadlari va mazmuniga element sifatida kiritish;
- talabalarning fanlardan egallagan bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘qituvchilarning tayyorligini ta’minlash;
- fanlararo tadqiqotlar tizimini ishlab chiqish;
- tarbiyaviy ishlardan tizimli va samarali foydalanish;
- baholash uchun mezon bazasini yaratish.

60310700 - Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

Umumiy kompetensiyalar:

- siyosiy va ijtimoiy dunyoqarashga doir tizimli bilimlarni ega bo‘lishi

- siyosiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar asoslarini, jahon va O‘zbekiston davlati siyosatining dolzarb yo‘nalishlariga oid bilimlarni egallash, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar va muammolarni mustaqil ravishda tahlil qila olishi;

- jahon tarixi va siyosatini bilishi, jahonda kechayotgan siyosiy va geosiyosiy hodisalarni mustaqil ravishda baholash, o‘z fikrini bildira olish, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lish ko‘nikmalarini egallash;

- Siyosatshunoslik o‘qitish metodikasini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ois o‘z fikrini bayon qila olishi va ularni ilmiy asoslay bilishi, o‘z dunyoqarashiga milliy g‘oya prinsiplarini singdira olishi asosida hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- davlat va jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayon va hodisalar haqida mukammal tasavvurlarga ega bo‘lishi, davlat va jamiyat rivojlanishiga oid qonuniyatlarga oid bilimlarni egallash hamda ulardan o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning jamiyat a’zolari, jamiyat institutlari, davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga oid bilimlarni egallash, bu munosobatlarning hududiy va ma’naviy mezonlariga oid bilimlarini egallash va ularga hayotda amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- siyosiy-ijtimoiy bilimlarga oid ma’lumotlar va axborotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish usullarini egallash, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish malakalarini egallash;

- siyosatshunoslik bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardoshlik qila oladigan umumkasbiy bilimlarni egallash;

- ta’lim jarayonida innovatsiyaviy bilimlarni egallab borish, ulardan o‘z bilimini boyitish va mustaqil fikrlash malakasini oshirishda unumli foydalana olish ko‘nikmalarini egallash;

- o‘z kasbiy faoliyatida mehnat jamoalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ta’sir qila oladigan ko‘nikmalarni egallash, o‘z atrofida insonlar bilan muloqot va munosobatlar madaniyatini egallash ko‘nikmalarini egallash.

Kasbiy kompitensiyalar:

- siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxs sifatida keyinchalik o‘zi egallagan lavozimida erkin ravishda faoliyat yurita olish malakalarini egallagan bo‘lishiga;

- siyosatshunoslik bakalavriat yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichini tugatgandan keyin magistratura bosqichida oliy ta'limni davom ettirishiga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasbni egallashga oid ta'limda o'qishni davom ettirish uchun tayyorlanadi;

- siyosiy muhit va "siyosiy inson" xususiyatlarini, ularning jamiyat va uning alohida komponentlariga ta'sirini aniqlay olishi lozim;

- siyosatning dunyoqarash sifatidagi darajasini, siyosiy falsafa asoslarini, siyosat va mafkura, siyosat va madaniyat madaniyat o'zaro aloqalari anglay oladigan nazariy-amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim;

- siyosiy fanlarning tushunchaviy-kategorial apparat va metologiyasini bilish, siyosiy tahlil va prognozlash instrumentariylaridan foydalana bilish;

- siyosiy bilimlarining nazariy va amaliy, aksiologik va instrumental komponentlarini, ularga oid ekspert, bashorat qilish kabi funksiyalarini bilish, ularni ajratib ko'rsata olish qobiliyatlarini egallash, siyosiy qarorlarni tayyorlash va asoslarini tasavvur qilish;

- empirik siyosiy tadqiqotlar usullari va texnikasini egallash, bu bilimlarni nazariy va amaliy vazifalarni bajarishda qo'llay olish malakalarini egallash;

- hozirgi davrdagi siyosiy tizimlar va rejimlarning asosiy turlarini bilish;

- siyosatni insoniy baholash va o'lchashga, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi xususiyatlariga, siyosiy etikaga, siyosatni insoniylashtirish mezonlari va usullariga tegishli muammolar doirasini yaxshi bilishi;

- jamoada ishlash, konfliktli vaziyatlarda boshqaruv qarorlari qabul qilish qobiliyatlariga ega bo'lish;

- jahon siyosiy jarayoni va O'zbekiston siyosiy tarixining asosiy bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilish;

- jahondagi va mamlakatdagi siyosiy vaziyatni tahlil qilishda siyosiy tarixga oid bilimlardan foydalana bilish;

- jahon siyosati va xalqaro munosobatlariga oid asosiy nazariy konsepsiyalar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish;

- xalqaro siyosiy jarayonlar, O'zbekistonni jahondagi geosiyosiy vaziyatiga oid tahlillarni amalga oshira olish;

- “Siyosiy dunyo haqida”, uning fuqarolik jamiyati, iqtisodiyot, ijtimoiy- madaniy tizim bilan o‘zaro nisbatlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish asosida quyidagi ko‘nikmalar yotishi aniqlandi: talabalarning fanlararo bog‘liqlikni his etish, anglash, amalda qo‘llashga doir ko‘nikmalari; ta’limning ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish funksiyasidan oqilona foydalanishi; zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilishi, kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirilgan eng qulay didaktik ta’minotlarni bilishi va tanlay olishi; bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish pcixologik qonuniyatlarga bog‘liq ekanligini inobatga olishi; talabalar bilim olishidagi qiyinchiliklarni o‘z vaqtida payqash va ularning ehtimoliy cabablarini aniqlash, tegishli tuzatishlar kiritish ko‘nikmasi; siyosatshunoslik fani talabalarining fanlarni o‘qitish bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish metodikasini o‘zlashtirishi; o‘zini rivojlantirishga, ijodkorlikka va nazariy-metodik o‘sishga intilishi.

Shunday ekan, bo‘lajak siyosatshunoslik fani o‘qituvchilarining kompleks tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishda quyidagi ko‘nikmalarga e’tibor qaratamiz:

- talabada faoliyat sub’ektlariga taalluqli ko‘nikmalar;
- boshqa odamlar va hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilab beruvchi ijtimoiy ko‘nikmalar;
- ta’lim olish, o‘z bilimlarini mustaqil mustahkamlash, o‘zini rivojlantirishga intilish layoqati;
- zamonaviy jamiyatda zaruriy axborotlar olish va qayta ishlash bilan bog‘liq axborot bilan ishlash ko‘nikmalari;
- tarbiya, taraqqiyot, mustaqil ta’lim cohalarida kasb vazifalarini bajarishda qo‘l keluvchi madaniyat omillariga tayangan holda, faoliyat yuritishiga imkon beruvchi umummadaniy ko‘nikmalar;
- siyosatshunoslik fanlarini o‘qitish jarayonini samarali yo‘lga qo‘yishga imkon beruvchi ilm-fanga oid zamonaviy bilimlarni o‘rganish ko‘nikmalari. Fikrimizcha, mazkur ko‘nikmalar integrativ ko‘nikmaning asosini tashkil qiladi. U esa o‘z navbatida talabalarni siyosatshunoslik fanifanlarini o‘qitishga tayyorligini ta’minlaydi. shuningdek, yaxlitlik xususiyatlari va namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligini aks ettiradi. Talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish o‘quv jarayonining o‘ziga

xos xususiyatlaridan biri – o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi materiallarning (mavzular) ma’lum iyerarxiyada joylashganligidir. Ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv mohiyatini fanning o‘ziga xos mantiqi va mazmuni belgilab beradi. Shuningdek, ma’lum ma’noda, fanning mantiqi va mazmuni didaktik jarayonining dasturi hisoblanadi. Bu esa u nimaga va qaysi didaktik yaxlitlikka imkon beruvchi real jarayonlarga mos keladi [94; 20-b]. Integratsion yondashuvning asosi uning mantiqi va mazmunini belgilaydi.

Talabalarni faoliyatga kompleks tayyorgarlashning maqsadi ularning ilmiy-uslubiy faoliyatining o‘ziga xosligini va o‘quv jarayoni tuzilishining ob’ektiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

talabalarni nazariy-metodik bilimlari siyosatshunoslik fanitalabalari bilish faoliyatini faollashtirish asosida fanlarni aloqadorlikda o‘qitishga, o‘quv jarayoni hamda tarbiyaviy muammolarni bartaraf etishga integrativ yondashuvni ta’minlashga qaratishi;

siyosatshunoslik fani talabasining ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish orqali borliqning har tomonlama bir-biri bilan aloqadorligini tushunishi uning tafakkuri rivojlanishining asosidir. Ta’lim jarayonida bolaga integrativ bilimlar berilishi turli fanlardagi asosiy tushunchalar, hodisalar mohiyatini anglashiga imkon berib qolmay, ta’limning yaxlit tabiatini anglashga ham o‘rgatadi.

Ta’lim jarayoniga integratsion yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra bir qator tamoyillarining uyg‘unligini talab etadi. Asosiy tuzilmaga asoslangan fan hamda tegishli fanlar tushunchalari iyerarxiyasi mantiqiy-strukturaviy asoslar iyerarxiyasiga biriktirilgan. Tuzilma esa didaktik ta’minotlar bilan konsentratsiyalangan. Chunki talabalarga ta’lim berish yaxlit jarayon bo‘lib, uning ustuvor yo‘nalishi g‘oyaviy xususiyatidir.

Zamonaviy oliy ta’limning o‘qitish tizimida umumiy tamoyillar mavjud bo‘lib, talabalarning ilmiy dunyoqarashining rivojlanishiga, ularning qadriyatli munosabatga kirishuviga hamda kasbiy faoliyati jarayonida foydalanishga imkon yaratishi lozim. Integrativ ta’lim jarayonining gorizontal (ko‘p tarmoqli) va vertikal (uzluksiz) komponentlari talabalarda tamoyillarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga bir qator pedagogik sharoitlarni yaratadi.

Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini

takomillashtirish jarayonining modelini taklif etish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir.

integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish muammosining mazkur modeli bir qator bloklarni o‘z ichiga oladi.

***Modelning maqsadli bloki*** – bu natijani kafolatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Blok talabalarning mutaxassis sifatida tayyorlash tizimiga qo‘yilgan maxsus talablarni hamda nazariy-metodik tayyorlashning didaktiv ta’minotini o‘z ichiga oladi. Mazkur blokning tarkibidagi metodologik asosi nazariy-metodik ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi integrativ yondashuvi hamda uning o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi. Bilamizki, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish ta’limning zamonaviy talablari darajasida tatbiq etish imkonini beradi. Bunda integrativ yondashuv nazariy-metodik malakaning komponentlari hisoblangan motivatsiya, bilish, faollik, hissiy, shaxsiy, irodaviy sifatlar hamda didaktik jarayon komponentlari o‘rtasidagi ichki aloqalarda namoyon bo‘ladi.

Integrativ yondashuv asosida talabalarni nazariy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishni takomillashtirishga bo‘lgan talablar bir qator omillarga tayanadi:

1) integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining uzluksizligi va yaxlitligini ta’minlash;

2) ta’lim jarayonida an’anaviy va zamonaviy integratsiya kombinatsiyasini saqlab qolish va bilimlarning jamiyat rivojlanishiga yo‘naltirilishi;

3) integrativ yondashuv ta’limning muhim belgisi ekanligini anglash va tushunish;

4) siyosatshunoslik fanitalabalarining o‘qish faoliyati sub’ekti sifatida shakllanishi;

5) zamonaviy ta’lim jarayonida har bir talabaning o‘zini-o‘zi bilish, o‘zini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi anglashga yo‘naltirilganligi.

Ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotimiz modelining ***operatsion bloki*** integrativ yondashuvning mohiyatini, ya’ni integratsiya darajasini o‘z ichiga oladi: fanlararo va shaxslararo. Ular taklif etilgan model doirasida quyidagilarni nazarda tutadi:

**ko‘p fanlar integratsiyasi** nazariyalar hamda jarayon elementlarini shakllantiruvchi ilmiy tushunchalar asosida amalga oshiriladi. Fanlar integratsiyasi tarkibini o‘qitish, uning maqsad va vazifalari, sifatli ta’lim va uning istiqbolini nazarda tutadi [14; 60 - b]. Bu esa o‘rganiladigan bilimlarning mohiyatini yaxlit tushunishni ta’minlaydi, turli fanlarning asosiy g‘oyalari, tamoyillari, usullarini aloqadorligini anglash darajasidagi integratsiya hisoblanadi. Mazkur blok natijasi – talabalarni nazariy-metodik faollik va uni amalga oshirishga metodik tayyorlikni nazarda tutadi.

***Tashkiliy blok* –** mazkur blok o‘z tarkibiga muammoni hal etishning tamoyillari, tarkibiy elementlari, harakat bosqichlari hamda bir qator funksiyalarni oladi.

Tashkiliy blok tarkibiga kiruvchi bir qator tamoyillar didaktik jarayonning barcha komponentlarini, tizim elementlarining o‘zaro bog‘liqligini hamda ular orasidagi aloqadorlikni nazarda tutadi. U maqsadni belgilashni rivojlantirishda, o‘qitish mazmunini, uning shakllari va usullarini aniqlashda yetakchi hisoblanadi. Taklif etiladigan tamoyillar didaktik tuzilmaning elementlari o‘rtasida doimiy aloqadorlikni o‘rnatish orqali ularda mavjud sifat va xarakterli xususiyatlarini saqlash va rivojlantirishning maqsadli munosabatini belgilaydi. Bunday aloqadorlik yangi bilimlarni o‘zaro aloqadorlikda o‘zlashtirishga imkon beradi.

Integrativ yondashuvning o‘zaro aloqadorlik xususiyatini saqlab qolish bilan birga yondashuv elementlarining o‘zgarib turishi bilan ham tavsiflanadi. Shuningdek, mazkur elementlarni ishlab chiqish va faoliyatda qo‘llash orqali aloqadorlik tuzilmasini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Integratsiya elementlarning xarakterli xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga, ularning xususiyatlarining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, uning elementlarini ishlab chiqish va mustahkamlash orqali tizimni boyitishni nazarda tutadi.

Bir qator ijtimoiy- falsafiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili, integratsiyaning aloqadorlik xususiyatlari, integrativ yondashuvning asosiy qonuniyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Bu esa talabalarda o‘quv-tadqiqiy faoliyatni o‘zaro aloqadorlikda rivojlantirish mumkinligini anglashga o‘rgatadi.

***Instrumentallik*** - o‘quv jarayonini sifatli ta’minlash uchun foydalaniladigan asosiy vositalar - darsliklar, texnologiyalar, o‘quv

topshiriqlari integrativ ta’limni tashkil etish jarayonida vositalarni zamonaviylashtirish bilan birga olib borilishini, ya’ni instrumental (elektron darslik, vizual texnologiyalar, innovatsiyalar bilan) samarali ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

***Butunlik*** tamoyili. Mazkur tamoyil integratsiyaning o‘ziga xosligi bilan bevosita aloqador bo‘lib, unda pedagogik jarayonning tarkibiy elementlari o‘rtasida bir butunlikka erishishni ta’minlaydi. O‘quv-biluv faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi orqali pedagogik tizimning yaxlitligini yuzaga keltiradi. Bu esa talabaning o‘quv faoliyatini amaliy faoliyat bilan bog‘lab, ularlarning nazariy-metodik tayyorgarlik darajasining rivojlanishiga imkon yaratadi. Butunlik tamoyili elementlarning oddiy bog‘lanishini emas, balki elementlar xususiyatlarining rivojlanishini nazarda tutadi.

***Yaxlitlik prinsipi*** - elementlarning tizimli tuzilmasiga asoslanadi. Bunda muayyan bir vaqtda tizim komponentlari birlashishi hamda ularning rivojlanish darajasini namoyon qilishi orqali yuzaga keladi. Bu tamoyil tuzilma komponentlarining universalligi va bog‘liqlikning uyg‘unligi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Yaxlitlik tomoyili tizim elementlarining rivojlanish jarayoni sifatida integratsiyaning yuqori ko‘rsatkich samarasini anglatadi.

***Integratsiya va differensiatsiyaning bog‘liqlik tamoyili***- integratsiyalashgan ta’lim jarayoni differensiatsiya jarayoni bilan o‘zaro aloqadorlik bilan ifodalanadi. Integratsiya – tabaqalashtirish jarayoni bilan namoyon bo‘ladigan interpenetratsiya (O‘zaro kirib borish) kondensatsiya (to‘plash) jarayonidir. Mazkur jarayonda ichki differensiatsiyaning har bir elementining vazifalari hamda funksiyalarini hisobga oladi. Integrativlik esa differyensatsiya bu vazifalar va funksiyalarni oddiy aloqadorlikda emas, balki yaxlit birlashtirib turadi. Integratsiya esa tabaqalashgan komponentlarning doimiy aloqadorligi holatida namoyon qiladi. Faoliyatda yaxlitlikni amalga oshirish integratsiya bilan bog‘liq bo‘lsa, differensiatsiya esa - integrativ jarayonining xususiyatlari orqali yuzaga keladi.

Integratsiyaga olib boradigan yaxlit tuzilma talabalarning nazariy-metodik bilimlarini boyitishga olib keladi. Chunki integrativ jarayonda o‘quv faoliyati va tadqiqotchilik faoliyati o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi. Bunda tizim elementlari mustahkamlanib, yaxlit bilimlar majmuiga egalikni ta’minlaydi.

Tuzilma qanchalik rivojlanishda bo‘lsa, tizimdagi individual elementlarning kuchayishi kuzatiladi. Shuningdek, mazkur jarayonda axborot maydonida ham tizimli bog‘lanish kuchliroq bo‘ladi. Buning natijasida elementlar o‘z-o‘zidan to‘yinadi, bir-biridan uzoqlashadi, ya’ni differensiatsiya – ichki elementlarni birlashtirish jarayoni boshlanadi. Shunday qilib, mazkur tamoyil ta’limning innovatsion usul va vositalarining mazmunini yangilashga, yangi konseptual nazariyalarning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

***Ko‘p darajalilik prinsipi*** – didaktik jarayonda integratsiya bir necha bosqichda rivojlanib boradi. Bu bosqichlar alohida tarkibiy qismlardan yangi integratsion tuzilmaning shakllanishini ko‘rsatadi. Bosqichlar tizim elimentlarining o‘zaro mustahkamlanishi, birligi va yangi tizimli xossalarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi. Integratsiyada bir qator darajalar ajratiladi. Tadqiqotimiz doirasida integratsiya darajalarini quyidagicha tavsiflashni lozim deb hisobladik.

**3.1-jadval.**

**Pedagogik ta’limda fanlararo integratsiya darajalari**

| Darajalar | Tasnifi |
|---|---|
| 1-daraja | -o‘zaro mustaqil bo‘lgan komponentlar, hodisalar, jarayonlar o‘rtasida aloqadorlikning shakllanishi<br>-tizim komponentlarining tabaqalanishi, ular o‘rtasidagi doimiy munosabatning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi |
| 2- darajada | - Integratsiyalashgan elementlar asosida muhim munosabatlar amalga oshiriladi;<br>-tizimning alohida komponentlari orasidagi "integral bo‘lak" shakllanadi, sabab-oqibat munosabatlari o‘rnatiladi;<br>-bunda tizim komponentlarining barchasi o‘rtasida bog‘lanishlar mavjudligi, lekin tizim hali barqaror emas; |
| 3-daraja | - yaxlitlik yuzaga keladi. Tizim elementlarining yangi imkoniyatlari ko‘zga tashlanadi.<br>- optimal "izchil yaxlitlik" ta’minlanadi elementlar orasidagi bog‘lanish barqaror, ierarxik tuzilish asosida qurilgan. |

Tahlil qilingan tamoyillar o‘zaro aloqador bo‘lib, integrativ yondashuvning mazmunini tashkil etadi. Yuqoridagi tamoyillar, integratsiya darajalari integrativ o‘quv faoliyatning xususiyatlariga tayanib, talabalarning kompleks tayyorgarligini rivojlantirishning bir nechtasini ko‘rsatib o‘tishga imkon yaratadi.

Birinchi bosqich – integratsiyaning elementar ko‘rinishi. Talabalarning nazariy-metodik tayyorgarlik faoliyatining alohida komponentlari o‘rtasida aloqadorlikning shakllanishi kuzatiladi. Tizimda elementlarni alohida bog‘laydigan “tugun” shakllanadi. Bu zamonaviy bilimlarga tegishli bo‘lgan tushunchalar, uslublari to‘g‘risida kompleks ilmiy-uslubiy ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich – o‘rta darajadagi integratsiya bilan ifodalanadi. Bu darajada “o‘zaro bog‘liq elementlar”ning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunda integrativ didaktik topshiriqlar talabalarning nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonida ta’lim usullari, fanlararo o‘zaro aloqadorlikning formalari orqali amalga oshadi. Bu daraja o‘zaro aloqador elementlarning maqsadlari o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishi natijasida faoliyatni o‘zgartiradi. Bu o‘zgarish talabalarning nazariy-metodik tayyorligi jarayonida shaxsiy neoplazma vazifasini bajaradi.

Uchinchi bosqich — integratsiyaning yuqori bosqichi hisoblanib, o‘zaro aloqador va o‘zini o‘zi rivojlantirishga qodir bo‘lgan elementlar o‘rtasidagi barqaror munosabatlar bilan tavsiflanadigan yaxlit tizim. Bu darajada talabaning imkoniyatlari, ijodiy va mustaqil qobiliyatini shakllantirishda namoyon bo‘ladigan didaktik mazmunni ifodalaydi.

Integrativ yondashuv asosida talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligi metodikasini uch yo‘nalishda amalga oshirishni belgilab oldik. Ushbu yo‘nalishdagi metodikalar mazmuni quyidagi chizmada keltirilgan. (3.3-rasm)

Yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlarni, ta’limning zamonaviy tendensiyalarini, professional jamoalarning talablarini inobatga olgan holda, o‘quv jarayonida biz talabalarning nazariy va uslubiy rivojlanishining bosqichlarini ajratamiz:

- motivatsiali bosqich
- namunaga asoslangan o‘qitish (reproduktivlik) bosqichi;
- samarali (produktiv) bosqich.




**3.3-rasm. Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyani takomillashtirish metodikasi yo‘nalishlari**

Motivatsiali bosqich birinchi va ikkinchi kurslarda natijali hisoblanadi. Mazkur bosqich tarkibi quyidagi elementlardan iborat:

- talaba shaxsini o‘quv faoliyatiga qo‘yiladigan muhim talablarni o‘zlashtirish va rivojlantirishga, o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga, mazmunini tushunishga undaydigan maqsadlar iyerarxiyasi va nazariy va uslubiy motivlari bilan belgilanadi. Talabalarda faoliyatga ijobiy munosabatga kirishish istagi rivojlanadi;

3-kurslar bilan namunaga asoslangan o‘qitish bosqichi quyidagi talablarga javob beradi:

- talabaning o‘quv jarayonining nazariy-metodik yo‘nalishi ijtimoiy hamda maxsus fanlar yuzasidan ko‘nikma va kompetensiyalarni asosli o‘zlashtirish hamda ularning nazariy-metodik

tayyorgarligi jarayonida kasbiy faoliyatning mazmunli va uslubiy namunalaridan foydalanish;

4-kurslar uchun samarali bosqich o‘z mohiyatiga quyidagi talablarni oladi:

- Talaba faoliyati ularning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, borliq va uning ob’ektiv konuniyatlarini yaxlit o‘rganish jarayonidagi faolligida namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqich talaba shaxsining kasbiy faoliyatida nazariy va amaliy kreativligi, ijodiy-tadqiqiy mehnati bilan chambarchas bog‘liq.

Talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish modeli – talaba shaxsining kasbiy faoliyatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

1) talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini tayyorlashda ustuvor yo‘nalish sifatida qadriyatli-tashkiliy (ko‘rsatmali) vazifalarni bajarishni;

2) talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasi ijobiy xarakterdagi ichki va tashqi motivatsiyani hamda umumnazariy-metodik va maxsus fanlarni o‘rganishga doimiy qiziqishni shakllantirishga qaratilgan - motivatsion vazifalar.

3) talabalarning pedagogik jarayonda egallangan ko‘nikma va kompetensiyalari bilan birga mavjud qobiliyatlarini rivojlantirish loyihasini taklif etishga qaratilgan – tarbiyaviy-konstruktiv vazifalarni belgilaydi;

4) talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda nazariy-metodik rivojlanish jarayonida samarali hisoblangan - kommunikativlik, hamkorlik, hamdardlik, irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonida o‘z-o‘zini mustaqil integrativ faoliyatga tayyorlashga qaratilgan – rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishni ta’minlaydi.

5) talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda ta’lim-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini nazorat qila olish asosida bo‘lajak siyosatshunoslik fanio‘qituvchisi darajasiga mos ravishda davlat ta’lim standartini joriy etgan nazariy-metodik malakasini shakllantirishni ta’minlashga qaratilgan - nazorat qila olish vazifasi.

6) talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishdagi analitik vazifasi esa talabalarning nazariy-

metodik tayyorgarligini shakllantirishda bir butun tuzilmani tahlil qila olishga erishish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga imkoniyat beradi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish modeli oddiy jarayonni emas, balki murakkab xarakterli oʻzaro bogʻliq jarayonning tuzilmasi hisoblanadi.

## 3.2. Integrativ amaliy mashgʻulotlarda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyalari

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va takomillashtirish, mamlakatda sanoat va xalq xoʻjaligini fan-texnika hamda zamonaviy texnologiyalar asosida qayta qurish, ishlab-chiqarishni jadallashtirish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish inson omilini faollashtirishni talab etdi. Zero, inson mehnat faoliyatini qayta qurish, yangi va murakkab ijtimoiy hamda ilmiy texnik vazifalarni ijodiy hal etish zaruriyati, mantiqiy-ijodiy fikrlaydigan yuksak malakali hamda bilimli, siyosiy jihatdan chiniqqan mutaxassislarni tayyorlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Buni aniq koʻra olgan Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yilni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlashni taklif etar ekan, “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va pozitsiya egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga koʻtarish”[13,2]ni asosiy vazifa qilib belgiladi.

Bu vazifani amalga oshirishning yagona sharti uzluksiz ta’lim tizimining bir boʻgʻini boʻlmish oliy oʻquv-yurtlarining oʻquv-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, uning mazmunini jahon andozalari darajasiga koʻtarish, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish yaxlitligini ta’minlashga erishib, fanlarni oʻqitishda tizimli, integratsion yondashishni ta’minlashdan iborat.

Tizimli yondashuv, tizimlilik qismlardan tashkil topgan yaxlit narsa yoki hodisa ma’nosini anglatadi. Fanlararo tizimlilik har bir fanning oʻzga fanlar bilan oʻrganayotgan, tadqiq qilinayotgan masalalar, voqealarning oʻxshashlik tomonlari asosida birikkan yaxlit tizim sifatida oʻrganishni nazarda tutsa, integrativ yondashuv narsa va

hodisalar bo‘laklari yoxud qismlarining bir-biriga qo‘shilib, bir butunga aylanib yaxlitlanishini anglatadi.

Har ikki pedagogik tushuncha ta’lim-tarbiya jarayonida fanlar mazmunidagi ma’lumotlarning o‘xshash, yaqin, bir-birini to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi g‘oyalar, fikrlarni yuzaga keltiradi va o‘zlashtiriladigan bilimlar mazmunini yuksaltiradi, oshiradi hamda bilim oluvchining intellektual salohiyatini, dunyoqarashini boyitib, shaxsiy sifatlarini ijobiy tomonga rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogika, didaktika, metodika, falsafa, psixologiyaga doir adabiyotlarning tahlili intergatsion ta’limning o‘tmishdoshi sifatida XX asrning 20-30 yillarida fanlararo bog‘liqlikni (V.Ye.Yesipov), 60-70 yillarda fanlararo aloqani (I.D.Zverev, V.N.Maksimova, L.V.Tefasov, E.A.Turdiqulov), 80-90 yillarda esa ta’lim jarayonini integratsiyalash (Yu.M.Kolgin, L.V.Tarasov, R.G‘.Safarova, O.A.Abduquddusov va h.q.) masalalari amalga oshirilganligini ko‘rsatdi.

Ta’lim tizimida fanlararo bog‘lanish o‘rniga kelgan fanlararo aloqadorlik bir-biriga o‘zakdosh, mazmunan va mohiyatan yaqin bo‘lgan fanlar mazmunidagi ma’lumotlarni ilmiy ifodalash orqali fan, ta’lim amaliyoti integratsiyasini vujudga keltirishga, bilimlarni chuqurlashtirishga, kengaytirishga olib keldi. Zamon ishlab chiqarishi va uning ishlash texnologiyasi bo‘yicha yangi fanlarning yaratilishiga asos soldi, istiqbolli muammolarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlashning didaktik zamini bo‘lib xizmat qildi.

“Fanlararo aloqadorlik – deb yozadi taniqli rus pedagogi V.M.Maksimova - zamonaviy didaktik paradigma sifatida fanlar mazmunidagi o‘quv muammolarini kompleks (yaxlit) hal etish, umumlashtirish va bir butun xulosa chiqarish imkonini yaratdi. Ayni paytda, ta’lim metodlari, usullarini faollashtirdi va turli o‘quv predmetlari mazmunidagi bilim, qo‘nikma, malakalarni tizimga solishni ta’minladi. Tizimli tahlilni yo‘lga qo‘yib, fanlararo aloqadorlikning tarkibi, tuzilishi va vazifalarini turli ob’ektlar bilan bog‘lab, o‘quv fani va o‘qitish jarayonining bog‘liqligini amalga oshirdi. Shuning uchun u zamonaviy didaktik prinsip hisoblanadi” [63,30].

O‘zbekistonlik pedagog A.Choriyev “Kadrlar tayyorlash tizimida fanlararo aloqaning ahamiyati” muammosini tadqiq qilar ekan, fanlararo aloqadorlik xususida shunday yozadi: “...fanlararo aloqa ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, biri-ikkinchisini to‘ldiradi,

ortiqcha takrorlashlarga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ta’lim standartlarini, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlashda fanlararo aloqa qoidasiga amal qilish hayot talabidir” [126,348]. Muallif bu bilan barcha fanlar tabiat, jamiyat, tafakkur qonuniyatlarini o‘rganishda bir-biriga yaqinligini, bu yaqinlik esa aloqadorlikni to‘ldirishini va shu asosda ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashini ta’kidlaydi. “Fanlararo aloqadorlik, – deb yozadi B.Abdullayeva, – faqatgina fanlarni o‘rganishda umumiy ijtimoiy maqsadlar asosida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga erishish vositasi emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir” [22,42].

Mazkur omillar va o‘tgan asrning 80-90 yillarida fanlararo aloqadorlik deb emas, balki ta’lim jarayonini integratsiyalash nomi bilan yuritila boshlanib, u voqelikni bir butunlikda o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda anglashni yo‘lga qo‘yib, fanlarning bir-biriga o‘xshash tomonlarini ilmiy asoslashga yordam berdi. Keyinchalik pedagogik matbuotda, ilmiy jamoatchilikda integratsiya g‘oyasiga bag‘ishlangan maqolalar, o‘quv qo‘llanmalari chop etila boshlandi va u didaktikada yetakchi yo‘nalish kasb etdi.

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslash uchun, avvalo, uni pedagogik hodisa sifatida tavsiflash lozim. Chunonchi, “Integratsiya” – ayrim bo‘laklarning,- deb qayd etadi X.N.Xakimov, – yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir-butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. Integratsiya jarayonining ildizi uzoq o‘tmishdagi klassik pedagogikaga borib taqaladi hamda fanlararo bog‘liqlik g‘oyasi bilan ifodalanib, o‘quv materialining mazmunini o‘rganish, tabiatini yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi” [118,12].

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o‘qitishning afzallik tomoni shundaki, ularda ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, ijtimoiylashtirish imkoniyatlari maydonga keladi. Bu imkoniyatlar talabalarda fuqarolik pozitsiyasining asosini tashkil etgan fuqarolik ongi, fuqarolik e’tiqodi, fuqarolik tafakkuri, fuqarolik idroki va munosabatlarining rivojlanishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Shu ma’noda yangi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida ta’lim-tarbiya yaxlitligini ta’minlash hamda talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini

rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar integratsiyasini tashkil qilish yordamida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-ma’rifiy hayot uchun muhim bo‘lgan fan, san’at, ilm-ma’rifat insonning mehnat faolligi, milliy mafkura, falsafa, din kabi qimmatli qadriyatlar asosini tashkil etgan aksiologik (qadriyatlar to‘g‘risidagi ta’limot) bilimlar majmuasini vujudga keltirish;

- fanlarning yaxlit integratsiyasi asosida voqelik, ijtimoiy-siyosiy hayot, iqtisodiy-mafkuraviy taraqqiyot to‘g‘risida gnoseologik ma’lumotlar, amaliy va ta’limiy tarbiyaviy jarayonni baholovchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikmalar (dalillash, milliy mustaqillikning barcha tuzumlardan ustunligini asoslash, fan texnikaning insonparvarligi, insonga xavf solayotgan tahdidlar, mafkuralarning yotligi, jaholatligi va h.k)ni hosil qilish va takomillashtirish;

- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi umumlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalar asosida shaxs g‘oyaviy-mafkuraviy e’tiqodi, ilmiy dunyoqarashi, axloqiy-estetik ideali, ma’naviy-jismoniy salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va mehnat faoliyatining huquqiy-axloqiy asosi negizida fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismlarini tarkib toptirishga erishish. Bu jarayonda, quyidagilar e’tiborga olindi:

- tadqiqotimizning ilmiy-didaktik asosini bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish va ularni yuqori malakali mutaxassislar qilib tayyorlash uchun, oliygohning ilmiy-pedagogik jarayonlariga innovatsion pedagogik texnologiya asosida yondashishni;

- kasbiy-ta’limiy shart-sharoitlarni yaratish va amaliyotga tatbiq qilish, unda ijodiy-shaxsiy, ta’limiy metodik paradigmalarga tayanib ish yuritish g‘oyasi nazarda tutildi. Shunga binoan, bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish tadqiqotimiz jarayonida quyidagi yondashuvlar va ta’lim prinsiplariga asoslanib faoliyatni yo‘lga qo‘yish nazarda tutildi hamda ular quyidagicha amalga oshirildi:

7) aksiologik – bu yondashuv har qanday kasbning tarixiy paydo bo‘lishi, takomillashib borishi, bo‘lajak kasb egalarining kasbiy

va shaxsiy sifatlari uchun zarur bo‘lgan madaniy-kasbiy bilimlarning sababiy bog‘lanishlarini inobatga olishni nazarda tutish;

8) bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda texnologik, maqsadni oydinlashtirgan holda yondashib, bo‘lajak siyosatshunoslarning xatti-harakatlari, ma’naviy yuksalishini yo‘lga qo‘yib kafolatlangan natijaga erishish uchun pedagogik faoliyatni uzluksiz amalga oshirish ishlarini olib borish;

9) muammoli-modulli – fanlararo integratsiyadagi yaxlit o‘quv jarayonini tashkil etish orqali professor-o‘qituvchilarning o‘z harakatlarini maqsadga erishishga yo‘naltirish, faoliyatdagi xatoliklarni korreksiyalash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda buning yordamida fikrlash qobiliyatini aktivlashtirish, muammoning yechimini topishga qaratilgan ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik jarayonga talaba faoliyatini yo‘naltirish;

10) tizimli-tashkiliy – bu yondashuv asosida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyani rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘rganishni integrativ yondashuv asosda loyihalashtirish, modellashtirish, mavzular mazmunidagi bog‘lanishlarni yagona maqsad sari yo‘naltirish, tadqiqot ob’ekti ma’lumotlarini (fuqarolik pozitsiyasiga oid) o‘zaro aloqadorlikda, yaxlit tizimga kelishini tashkillashtirish;

11) faoliyatli-mahsulli – bu yondashuv bo‘lajak siyosatshunoslarda o‘z mutaxassisliklari va shaxsiy-insoniy fazilatlarini mukammallashtirish maqsadida talaba-tibbiyotchi, medik-pedagog ko‘nikmalarini ishlab chiqish va kasb nuqtai nazaridan faoliyatini yo‘lga qo‘yishda harakat qilish orqali fuqarolik pozitsiyasini o‘zlashtirishda talabalarni jalb etishni amalga oshirish;

12) akmeologik – pedagog va bo‘lajak siyosatshunoslarga ijtimoiy gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi mavzular kesimida fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini kasbiy-shaxsiy bilimlar tarzida o‘z kasbini yuksak darajada egallashi va fuqarolik pozitsiyasini o‘zida rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilish nuqtai nazaridan bilishni yo‘lga qo‘yish. Bu yondashuvlarga asoslanib, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon maqsadga yo‘nalganlik, faollik va onglilik, sub’ektivlik va faoliyatni rag‘batlantirish, gumanitar yo‘nalganlik, vorislik va jamoaviylik prinsiplari asosida loyihalashtirildi. Zero, bu prinsiplar ta’lim jarayonining qonuniyatlarini, ya’ni o‘qish-o‘qitishda amal qilinadigan

qoidalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ular hozirgi zamon pedagogikasining muhim ilmiy asosini tashkil etadi.

Modulda ko‘rsatilgan oliy tibbiyot muassasasidagi pedagogik faoliyat tadqiqotning maqsadi, vazifalaridan kelib chiqqan holda qayd etilgan yondashuvlar va prinsiplarga tayanildi va o‘quv-mashg‘ulotlari, hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalashtirildi, amalga oshirildi.

Bu faoliyatni amalga oshirish jarayonida tadqiqotimiz ob’ektlari bo‘lgan tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda mavzular mazmunidagi quyidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

- insoniyat va jamiyat rivojida umumbashariy, milliy va ma’naviy merosning o‘rni hamda moddiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatini namoyon etish orqali fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida tushuncha berish;
- ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarning ijtimoiy hayot iqtisodiyot, siyosat, huquq va hokimiyatdagi o‘rnini tushuntirish yordamida bu jarayonda fuqarolarning rolini ko‘rsatish;
- O‘zbekiston Konistitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari, fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklarining qonun bilan kafolatlanishini hamda jamiyat va shaxs munosabatlarining dialektik mutanosibligini bilib olishga yo‘llash;
- mustaqillik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy zaminlarini anglab yetish ko‘nikmalarini talabalarda hosil qilib, fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarining jarayondagi o‘rnini o‘rgatish;
- fuqarolik pozitsiyasining iqtisodiy-ma’naviy, huquqiy-axloqiy, madaniy-siyosiy negizini bilib olishga yo‘llash;
- shaxs shakllanishi va jamiyat taraqqiyotida ta’lim-tarbiyaning ustuvorligi, uning dunyoviylik, insonparvarlik va demokratik xarakterda ekanligini tushunib yetishga o‘rgatish;
- inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyatini, kasbning axloqiy-huquqiy asosi, xulq-odob pozitsiyasi fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning omili ekanligini tushuntirish;
- Yangi O‘zbekistonni qurishga yo‘naltirilgan ob’ektiv shart-sharoitlar va sub’ektiv omillarni hamda ularning Vatan ravnaqi g‘oyasi,

millatlararo totuvlik tamoyili bilan bog'liqligini, mamlakatni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushunishga talabalarni yo'llash va h.k.

Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar mazmunidagi bu masalalar tadqiqot oldida turgan quyidagi vazifalarni amaliy hal etishga imkoniyat yarata oldi hamda bo'lajak siyosatshunoslarda:

6. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-siyosiy hayoti jarayonida bu ma'lumotlarning yetakchi o'rinni egallashi lozimligi to'g'risida ma'lumotlar shakllantirildi.

7. Vatan taraqqiyoti, xalq faravonligi, yurt tinchligi, ishlab-chiqarish rivojida bu bilimlarning tutgan o'rnini ular ongiga yetkazildi.

8. Har qanday mutaxassisda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-iqtisodiy, axloqiy-huquqiy qarashlar, e'tiqodlarning shakllanishi va rivojlanishida fanlar mazmunidagi ma'lumotlar ustuvor ahamiyat kasb etishini bilib olish.

9. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning jahon sivilizatsiyasi, millatlararo totuvlik, xalqlararo birdamlikni rivojlantirish uchun ahamiyatli mavqega egaligiga iymon keltirish.

10. Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda mustaqillik tafakkurini takomillashtirish bilan birgalikda ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlik malakalarining rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib xizmat qilish tushunchasi hosil qilindi.

Ushbu masalalarni inobatga olib, tadqiqot jarayonida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o'qib o'rganish orqali bo'lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning quyidagi mezonlari belgilandi:

1. Milliy taraqqiyot qonunlari, davlat ramzlari (konstitutsiyasi, bayrog'i, madhiyasi, tamg'asi, valyutasi)ga hurmat, ularni asrab-avaylash fuqarolik burchi va mas'uliyati ekanligini anglash, vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish.

2. Yangi O'zbekistonni barpo etish, yurt tinchligi, Vatan ozodligi va taraqqiyoti, xalq faravonligi yo'lida tashabuskorlik, bunyodkorlik, yaratuvchilik ko'rsatib, faoliyat yuritish ehtiyojini o'zida tarkib toptirish;

3. Ulug' mutafakkirlar, ilm-fan namoyondalari, boy va ulkan ma'naviy meros, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar mazmunini anglash va ularni asrab-avaylash, e'zoz ko'rsatish his-tuyg'usiga ega bo'lish.

4. Komil inson, fuqarolik, faol fuqaroviylik, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik burchi, mas'uliyati, e'tiqodi kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash va bu fazilatlarni ularni o'zida tarbiyalashga erishish.

5. Baynalminallik (millatlararo muloqot pozitsiyasi), dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) tuyg'usiga ega bo'lish, o'zga millat va elatlar pozitsiyasiga, urf-odatlariga hurmat ko'rsatish.

6. Sog'lom turmush tarziga, ogohlikka, huquqiy-axloqiy me'yorlarga rioya qilish, o'z hayoti va faoliyatini, sog'lom turmush tarzini, ogohlik pozitsiyasi qonuniyatlari asosida qurishga intilish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan vazifalarni hal etish va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mezonlarini bo'lajak siyosatshunoslar ongi va faoliyatiga singdirish uchun ijtimoiy va ixtisoslik fanlarda katta imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Ularni ayrim fanlar kesimida ko'rib chiqamiz.

"Siyosatshunoslik o'qitish metodikasi" fanini o'rganish orqali talabalar O'zbekiston mamlakati insoniyat sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligini, bu xalq, bu millat o'z ona yeri, tuprog'i, erki, ozodligi uchun kurashlarda toblanganligini bilib oladilar. Bu esa ularda g'oyaviy-tarixiy hamda umuminsoniy e'tiqod va dunyoqarashning rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi. Bu orqali tarixiy voqealarni chuqur anglash, ularga munosabat bildirish, erkin, ijodiy fikrlaydigan ma'naviy, barkamol insonlarni tarbiyalashdek muhim vazifa amalga oshadi. Shu ma'noda mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalarda :

- ma'lumot berilib, yosh avlod ongida insoniyat uchun muhim bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy bilimlar asosida fuqarolikning fazilatlari, fuqaro pozitsiyasining sifatlari rivojlantiriladi;
- o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, hozirgi davr o'zbek davlatchiligining poydevori bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berilib, o'tmish tarixiga hurmat, e'tiqod, muhabbat yuksaltiriladi;
- o'zbek xalqining etnik shakllanishi, davrlar va taraqqiyot bosqichlarining uzviy bog'liqligi va davomiyligi haqida tasavvurlar hosil qilinadi;
- sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonning turli sohalari oqibatlari, unga qarshi xalqning vatanparvarlik jasoratlari haqida

ma’lumotlar berilib, Vatanimizning hozirgi taraqqiyotiga faol ishtirok etish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

- O‘zbekistonning mustaqillikka erishib, mamlakatda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasi asoslarini barpo etilishini ta’minlaganligi, Yangi O‘zbekistonni qurish va uni modernizatsiyalash jarayonlari to‘g‘risida axborot berilib, bu jarayonga yoshlarning faol ishtiroki talab qilinishi uqtiriladi. Bu masalalarga e’tibor qaratilishidan maqsad talabalarda o‘zbek xalqining tarixi, pozitsiyasi, milliy urf-odatlari, ilm-fan, vatan ravnaqiga hissa qo‘shgan o‘g‘lonlariga hurmatni, sadoqatni tarbiyalash, ular bilan faxrlanish, iftixor qilish orqali talaba-yoshlarni vatan fidoiysi, jasoratli fuqaro bo‘lishga undashdir.

Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlari tadqiqotimiz ob’ektlarida qo‘llanilishini nazarda tutib, modelda belgilangan pedagogik innovatsiya (ta’lim-tarbiyaning shakl, metod, usullari, vositalari)ni nazariy va amaliy mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq qilish uchun “Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” didaktik tizimi ishlab chiqildi va faoliyat shu tizim asosida loyihalashtirildi.

“Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” didaktik tizimidagi innovatsion-texnologik jihatlari har bir fan mazmunidagi mavzuni o‘qitishni nazarda tutadi. Bu jihatlar didaktik-texnologik tizimning mazmuniga kiritilgan o‘qitishning noan’anaviy shakllari, interfaol metodlar va kompyuter texnologiyasini qo‘llash bilan to‘ldirildi. Bu tizimning natijaviyligini tadqiqotimizda olib borilgan tajriba-sinov ishlari tasdiqladi. Endi innovatsion-texnologik jihatni ko‘rib chiqamiz :

1.Metodologik jihat. Bu jihat fanlar mazmunidagi fundamental g‘oyalar, o‘tmish allomalarining fuqarolik pozitsiyasi va barkamol inson hamda tabobat ilmi to‘g‘risidagi g‘oyalar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, diniy ta’limotlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Yangi O‘zbekiston mafkurasini yorituvchi ma’lumotlarni qamrab oladi.

2.Psixologik jihat. Bu jihat bo‘lajak siyosatshunoslarni o‘qitilayotgan fanlar mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasiga oid tushunchalarni anglashga ruhiy tayyorlashni, o‘qituvchi-talaba

munosabatlarida ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni, bunda mashg'ulot mazmunini ta'lim oluvchi-tarbiyalanuvchining qiziqishi, ehtiyojlari, o'quv motivlari, kasbga yo'nalganligi asosida tashkil qilishdan iborat bo'ladi.

3.Faoliyat-mazmun jihat. Bu jihat fanlar mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini muayyan hodisa, mavzular, bo'limlar, fanlarda ifodalanishini aniqlash va bog'liqligini yo'lga qo'yish hamda tushunchalarni o'rganishda o'qituvchi-talaba hamkorlik faoliyatini amalda qo'llashni nazarda tutish lozimligini ifodalaydi.

4.Tashkiliy-metodik jihat. Bu jihatni qo'llashda o'qituvchi fanlar mazmunidagi asosiy g'oyalar, ular bilan bog'liq fuqarolik pozitsiyasi tushunchalari va ularning mohiyati, mazmuni, funksiyalarini o'zlashtirish dasturini ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi va uni amalda qo'llashning aniq shakl, metod, usul va vositalarini yaratish, tanlash hamda ko'llashni nazarda tutishni ifodalaydi.

5.Amaliy jihat. Bu jihat o'rganilgan va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar asosida fuqarolik pozitsiyasi mazmunidagi tushunchalarni kasbiy faoliyatga, shaxsiy hayotda qo'llashni nazarda tutadi.

6.Mintaqaviy-xususiy jihat. Bu jihat ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari mazmunidagi hamda asosiy fundamental manbalarda ifodalangan fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini mintaqa va u manzildagi urf-odatlar, an'analar, milliy qadriyatlar, marosimlar mazmuni bilan qiyoslagan holda ularni talaba-yoshlarda tarbiyalashning ta'sirchan yo'llaridan unumli foydalanish kabi masalalarni qamrab oldi.

Innovatsion texnologiyaning bu jihatlari auditoriya mashg'ulotlari ta'sirchanligini, mazmundorligini, mahsuldorligini ta'minlashga xizmat qiladi va talabalarda quyidagi fazilatlarni tarkib topishiga yordam beradi:

- fuqarolik pozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalash va bu jamiyat nazarda tutgan fazilatlarni talabaning shaxsiy mulkiga aylantirishga ko'maklashish;
- yangi O'zbekistonning mafkurasini va uning fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish hamda me'yorlarining ahamiyatini anglashga aniq yo'llashni;

- tarixiy meros, ulug‘ mutafakkirlar, zamonamizning ilg‘or kishilari hayotining ma’naviy-madaniy merosini rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini bilib olishga;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri taraqiyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarning hozirgi davr uchun taraqqiyot uchun ahamiyatli tomonlarini anglab yetishga;

- gumanitar, ilmiy-falsafiy, ijtimoiy bilim, ko‘nikma, malakalar inson fuqarolik pozitsiyasining asosi va fuqarolik pozitsiyasining tamal toshi va muhim omili ekanligini bilib olishni;

- fuqarolik pozitsiyasida davlat va nodavlat tashkilotlar, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, mahalla, oila, ayrim insonlarning faolligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy-madaniy hayotining rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratilishi muqararligini tushunib yetish;

- “Men demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik pozitsiyasi asosini mustahkamlashda hamda Vatanimning ravnaq topishiga qanday hissa qo‘sha oldim” degan his-tuyg‘usining har bir talabada tarbiyalashga ko‘maklashish va h.k.

Tajriba-sinov jarayonlarida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni innovatsion texnologiyalar vositasida o‘qitish hamda uning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirib, bu fanlar mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini talabalar diqqatiga havola qilish va shu asosda bu tushuchalarini talaba-yoshlar tomonidan o‘zlashtirishni yo‘lga qo‘yilganligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan suhbatlar (professor-o‘qituvchilar, talabalar bilan), savol-javoblar, intervyular shuni ko‘rsatdiki, bunday tadbirlar ahyon-ahyonda tashkil qilinmasa, deyarli o‘tkazilmaydi. Bunday tadbirlarni hamda o‘quv-tarbiya ishlarini uyushtirishda professor-o‘qituvchilar muayyan ilmiy-metodik tayyorgarlikka ega bo‘lmaganliklari, pedagogik matbuotda bunday tavsiyalar, ko‘rsatmalar juda oz e’lon qilinganligi sababli uni tashkil qilishga qiynaladilar. Ana shu holatni inobatga olib, tadqiqotimiz ob’ektlaridagi oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o‘qitishni tashkil qilish va egallagan bilimlar yordamida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni amalga oshirish nazarda tutilib, bu yo‘nalishda mashg‘ulotlar tashkil qilindi. O‘tkazilgan mashg‘ulotlardan ayrimlarini “Siyosatshunoslik o‘qitish metodikasi”, “O‘zbekistonni rivojlantirish

strategiyasi. Fuqarolik pozitsiyasi”, “Pedagogika. Psixologiya” fanlarining mavzulari misolida namuna sifatida taqdim etamiz.

“Siyosatshunoslik o‘qitish metodikasi” fanini o‘rganish orqali talabalar O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining asoslaridan biri ekanligini, bu xalq, bu millat o‘z ona yeri, tuprog‘i, erki, ozodligi uchun kurashlarda toblanganligini bilib oladilar va talabalarning g‘oyaviy-tarixiy hamda umuminsoniy e’tiqod va dunyoqarashning shakllanishi uchun zamin tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda, siyosatshunoslik o‘qitish metodikasi fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda mazkur fanlarning imkoniyatlarini aniqlash va muammo nuqtai nazaridan talabalarning qiziqishlarini, mustaqil ijodiy fikrlashlarini inobatga olib, ularni madaniy muloqot yuritishga o‘rgatish ijobiy natijalarga olib keldi. Bunda ishbop o‘yinlar, musobaqa darslari, intellektual ring, teatrlashgan mashg‘ulotlar, guruhlarga bo‘linib ishlash, ijodkorlar tanlovlari, auksion darslar, bayt-baraklar, bahs-munozara darslari, ekskursiya darslari, mo‘’jizalar maydoni kabilar noan’anaviy darslar katta pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Biroq talaba-yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, talablarning ortayotgani, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jarayonida axborotlarning keskin kengayib borayotgani, buzg‘unchi kuchlarning targ‘ib qilish harakatlarining kuchayayotgani, qolaversa, mafkura poligonlarining yadro poligonlariga nisbatan ko‘proq kuchga ega bo‘layotgan bir davrda, faqat darsda oladigan bilimlarga tayanib, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalash qiyin ekanligini tadqiqotimiz natijalari ko‘rsatdi. Bunday sharoitda ta’lim muassasalarida faqatgina darsda emas, balki auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, uning yo‘nalishlarini talaba-yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib tarbiyalanishlariga qaratish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Zero, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’lim islohoti hujjatlarida ko‘rsatilgan vazifa-masalalarni, Respublika Prezidenti Farmonlari, ma’ruzalari va nutqlari, Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomalarida, Respublika Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining qarorlari, ko‘rsatmalarida, qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ilgari surilgan vazifalarni bajarishga

yo‘naltirilishi lozim. Shulardan eng muhimi, oliy ta’lim muassasalari talabalari ongiga Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish g‘oyasini singdirish hamda ularni barkamol mutaxassislar qilib tarbiyalash uchun tarbiyaviy-ta’limiy ishlarni yangi pog‘onaga ko‘tarishga ko‘maklashadigan ishlardan biri hisoblanadi. Chunonchi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonlari talaba qalbida insoniy fazilatlarni kamol toptirish bilan birga, hayot va turmush uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy bilimlar bo‘yicha to‘plagan tarjribalarni o‘rganishga, undan saboq olish fazilatlarini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-ma’rifiy ishlar talabalar dunyoqarashini kengaytirish, savodxoligini oshirish, bilim olishga qiziqish fan va asoslarini egallashga intilishni orttirish hamda shu ma’noda ularda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shularni inobatga olib, tadqiqotimiz jarayonida tajriba-sinov ob’ektlarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yo‘nalishini barkamol shaxsni, jumladan, talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlantirishga qaratish uchun kuyidagi ilmiy-pedagogik va tashkiliy-metodik jihatlarga tayanildi:

a) ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tashkiliy-pedagogik jihatlarini kuchaytirish, ya’ni o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning ta’sirlarini uyg‘unlashtirish, uzluksizligini ta’minlash, tadbirning maqsad va vazifalarini mazmun asosida belgilanishni yo‘lga qo‘yish, uni amalga oshirishning zamonaviy shakl, metod va vositalarini aniq belgilash, ya’ni tadbir o‘tqazishda texnologik yondashish;

b) o‘tkaziladigan tadbirlarni ta’lim-tarbiya qonuniyatlari, priinsiplariga bo‘ysindirilishini yo‘lga qo‘yish, boshqacha aytganda, tadbirning maqsadga yo‘nalganlik, faollik, ijodkorlik, mustaqillik, o‘yin, romantika, sub’ektivlik va tashabbuskorlikni rag‘batlantirish kabi qoidalarga asoslanib loyihalash;

v) ma’naviy-ma’rifiy ishlarni dars mashg‘ulotlarining davomi sifatida belgilab, ularning yo‘nalishlarini o‘quv vazifalarini bajarishga bo‘ysindirish, ularning uzviyligini ta’minlanish va pedagogik rahbarlikni amalga oshirish talablariga e’tibor qaratish va h.k.

Mazkur ilmiy-pedagogik, tashkiliy-metodik ishlar tizimida quyidagilarga tayanish maqsadga muvofiq deb qabul qilindi:

- shaxs fuqarolik pozitsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-siyosiy hayotning bosh omili hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning tayanch kuchi deb hisoblash;

- fuqarolik pozitsiyasi rivojlantirilayotgan talaba shaxsini oliy ijtimoiy pedagogik qadriyat deb bilish;

- har bir talabaning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash hamda ahloqiy-huquqiy savodxolikni e’tiborga olish;

- milliy an’ana, qadriyat va urf-odatlarni talaba fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning manbai deb hisoblash;

- talabalarning qiziqishi, hohishi va imkoniyatlarining mutanosibligini qaror toptirish;

- professor-o‘qituvchilar, murabbiylar va talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-biriga tayanish, izzatda bo‘lish hamda ijtimoiy-axloqiy qo‘llab-quvvatlash munosabatlarini shakllantirish va h.k.

Binobarin, ushbu yo‘nalishda davlatimiz rahbariyati mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-siyosiy sohalarda faoliyatni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Tadqiqotimiz jarayonida shulardan to‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga e’tibor qaratildi. Ushbu tashabbusni inobatga olib, tadqiqotimiz ob’ektlarida olib boriladigan auditoriyadan tashqari ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat ikki yo‘nalishda tashkillashtirildi:

1-yo‘nalish: Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar – Prezident ma’ruzalari, nutqlari, farmonlari, qarorlarini, Oliy majlis yig‘ilishilari materiallarini, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi farmoyishlari, qarorlarini, oliy o‘quv-yurti rektorati ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘limi ko‘rsatmalarini amalga oshirish, yil bayramlari (mustaqillik bayrami, o‘qituvchilar va murabbiylar kuni, konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, xotin-qizlar bayrami, Navro‘z bayrami, Xotira va qadrlash bayrami, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti bayramlarini), ulug‘ mutafakkirlar, fan arboblari, pozitsiya va adabiyot namoyondalari yubileylarini tashkillashtirish va o‘tkazish.

2-yo‘nalish: Tarbiyaviy ishlar – ma’naviyat soatlari, ma’naviyat kunlari, ijtimoiy foydali mehnat, shanbaliklar, turli tanlovlar, kitobxonlik soatlari, ustoz-murabbiylar faoliyati, mutaxassislik ilg‘orlari, keksa nuroniylar bilan uchrashuvlar, yoshlar ittifoqi rahbarlari bilan suhbatlar-mu’ruzalar, mahorat darslari, ilmiy, badiiy-adabiy va san’at anjumanlari va h.k.

Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tajriba-sinov ob'ektlarida tashkillashtiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy maqsad va vazifalari qilib kuyidagilar belgilandi:

Maqsad: Yangi O'zbekiston mafkurasi va fuqarolik jamiyati xususiyatlari to'g'risida talabalarda mukammal tasavvurlar hosil qilish va shu tasavvurlar yordamida ularda fuqarolik pozitsiyasi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish.

Vazifalar:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlari tizimida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident Farmonlari, Qarorlari, ma'ruzalari, nutqlari, risolalaridagi ta'lim-tarbiya, fuqarolik jamiyati, mamlakatni modernizatsiya qilish to'g'risida bildirilgan g'oyalarni, Fuqarolik Kodeksini mukammal o'rganishga erishish;
- bo'lajak siyosatshunoslarda tariximizning boy madaniy merosi, o'tmish allomalarining fuqarolik pozitsiyasi, komil inson to'g'risidagi ta'limotlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari, milliy merosimiz, bayramlarimizga hurmat, mustaqillik g'oyalariga sadoqatni tarbiyalash;
- bozor iqtisodiyotini chuqur tushunadigan, iqtisodiy islohotlarga faol ishtirok etadigan, fuqarolik pozitsiyasini qurishda o'z kuchi, bilimi, tajribasini ayamaydigan pozitsiyali fuqarolarni tayyorlash;
- Vatan tuyg'usi, el-yurt qayg'usi, sog'inchi, quvonchi bilan yonib yashaydigan mutaxassislarni tarbiyalash;
- milliy mafkurani, fuqarolik pozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini talaba-yoshlar ongiga singdirish orqali ularda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga erishish.

Ushbu maqsad va vazifalarni samarali hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligi hamda tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish, talaba-yoshlarni barkamol inson qilib voyaga yetkazish va ularda fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini rivojlantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning quyidagi tashkiliy-pedagogik asoslari loyihalashtirildi:

a) auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi ishlab chiqildi;

b) oliygoh ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya ishlari tizimida faoliyat olib boruvchi bloklar, bo'limlar, to'garaklar, uyushmalar va ularning faoliyat yo'nalishlari belgilandi;

v) amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va tarbiya ishlarining monitoringi olib borildi.

Tashkillashtirilgan tashkiliy-pedagogik faoliyat talaba-yoshlarda ijodkorlik hissi va kuch g'ayratini rivojlantirishga, o'z jamoasi, xalqi uchun foydali faoliyatga intilishini yo'lga qo'yishga xizmat qiluvchi o'zbek milliy urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari, halqimizning boy tarixiy o'tmishi hamda madaniy merosi tanlab olinib, ular turli-tuman suhbatlar, musobaqalar, kechalar, bellashuvlar kabi tadbirlarni tashkil qilish orqali amalga oshirildi. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni qayd etilgan bloklar faoliyati tizimida qamrab olish va faoliyatni amalga oshirish uchun muayyan pedogogik qonuniyatlar, qoidalar, talablarga rioya qilishga to'g'ri keladi. Shu bois, tadqiqotimiz jarayonida talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarni tashkil etish prinsiplariga asoslanildi. Chunonchi, prinsip – bu ma'naviy-marifiy tarbiya ishlarni maqsadiga, vazifalariga, yo'nalishiga, mazmuniga, uni tashkil etish shakliga, metodlariga, usullariga, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablarni ifodalovchi qoidalarni anglatuvchi pedagogik tushuncha. Mazkur qoidalar asosida tashkil etilgan faoliyat ijtimoiy faol va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Shularni inobatga olib, tadqiqot jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda kuyidagi prinsiplarga rioya qilndi:

a) ijtimoiy yo'nalganlik va maqsadga qaratilganlik prinsipi;

b) talabalar qiziqishi, tashabbusi, mustaqilligiga tayanish prinsipi;

v) tadbirlarning faollik va ijodkorlikka yo'nalganlik prinsipi;

g) ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining o'quv mashg'ulotlari bilan o'zaro bog'liqligi prinsipi;

d) ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining uzluksizligi va davomiyligi prinsipi;

j)ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchi manfaatining ustuvorligi prinsipi;

i)faoliyatli yondashuv prinsipi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi mazmunidan o'rin olgan bloklar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali talabalarda fuqarolik ma'daniyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan tashkiliy-pedogogik mexanizm yaratildi va bloklar faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirishni yo'lga qo'yishni ta'minladi:

Bunda: 1-bosqich talabalar qiziqishi va ehtiyojini oʻrganish bosqichi boʻlib, unda talaba fuqarolik pozitsiyasining rivojlanishini oilada, dastlabki taʼlim muassasalari (bogʻcha, umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi)da oʻrgangan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlari, bilimlari, axborotlar yordamida amalga oshishi mumkinligini nazarda tutadi. Oliy taʼlimning oʻquv-tarbiya jarayonida bu tasavvurlar mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. Yoshlarda ijtimoiy-gʻoyaviy dunyoqarash, iymon-eʼtiqod, maʼnaviy axloqiy fazilat, sogʻlom turmush tarzining hosil boʻlishini oila va jamiyatdagi maʼnaviy-axloqiy muhit, axloqiy-estetik tasavvurlar, hayotiy intilishlar va tajribalar tashkil qiladi. Shuning uchun talabalarda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar vositasida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda bu holatlarni eʼtiborga olish, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, talabini inobatga olib, bloklar faoliyatini yoʻlga qoʻyish maqsadga erishishni tezlashtiradi (bu ishlar 1-kursda tashkil etildi).

2-bosqichda talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda burch va masʼuliyatni his qilish, davlat ramzlari (bayrogʻi, tamgʻasi, madhiyasi, armiyasi, valyutasi)ni tan olish, ularga sodiq qolish rivojlantirildi.

Talabalikning dastlabki davrlaridan boshlab, ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimdagi har bir blok oʻz faoliyati yoʻnalishida ularda ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-madaniy maʼlumotlarni, bilimlarni singdirish orqali fuqarolik pozitsiyasining mazmuni, mohiyatini, funksiyalarini anglatuvchi tadbirlarni koʻpaytirish, bloklar faoliyatini, fuqarolik pozitsiyasining oʻziga xos xususiyatlarini targʻib qilishga yoʻnaltirish, pedogogik va metodik ishlarni maqsadli istiqbolini belgilash nazarda tutildi.

3-bosqichda talabalarning sogʻlom turmush tarzini belgilash, ijtimoiy foydali tadbirlar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport, ijodiy toʻgaraklarga qatnashish kabi maʼnaviy-maʼrifiy tarbiyaviy ishlar nazarda tutildi. Bunda professor-oʻqituvchilar talabalarda auditoriyadan tashqari faoliyatni tashkil etishlari, koʻrsatma berishlari, yoʻl-yoʻriq koʻrsatishlari yoʻlga qoʻyildi. Bu jarayonda subʼektning faoliyati: a) yoʻnalish; b) nazorat qilish; v) maslahat berish; g) korreksiyalash (tuzatish) dan iborat boʻldi.

4-bosqichda talabalarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganligini mustahkamlash va takomillashtirish ishlari amalga oshirildi. Zero, bu bosqichda talabalar mustaqilligining oshishi,

ijtimoiy-foydali mehnat, jamoat tashkilotlariga faol ishtirok etishi ularning fuqarolik pozitsiyasi va fuqarolik ma’suliyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Qayd qilib o‘tilgan bosqichlarning o‘ziga xosliklarini e’tibordan chiqarmaslik, talablarning yosh davri va psixologik xususiyatlariga tayanib, tadbirlar mazmunini ishlab chiqish, talabalarning tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirishga yordam berdi.

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlari yordamida rivojlantirishning, ikkinchi pedogogik mexanizmi “Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va o‘quv mashg‘ulotlari integratsiyasi” dasturi bo‘ldi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bunday aloqadorlik talabalarda birinchidan, fan asoslarini chuqurroq, mukammalroq o‘zlashtirishni ta’minlasa, ikkinchidan, o‘zlashtirilgan bilimlar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, uning murakkabligi, jozibadorligini o‘rgatadi. uchinchidan har bir talaba-yoshning ma’naviy tasavvurlari hamda shaxsiy-ruhiy fazilatlarining rivojlanishini jadallashtiradi.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish joizki, oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilib, talabalarning u yoki bu shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, ayniqsa, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik pozitsiyasini qurish (kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirish) bo‘yicha loyihalashtirilgan auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar innovatsion tarbiya texnologiyalarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, asosan innovatsion texnologiyaning didaktik xususiyati – o‘zaro muloqot, o‘zaro faoliyat yuritishni yo‘lga qo‘yadi. Shuning uchun texnologiya qo‘llanilganda tadbir jarayonida qatnashuvchilar o‘zaro muloqotga, o‘zaro faoliyatga kirishadilar va suhbat quradilar, bahs-munozara o‘tkazadilar. Muhokama qilinayotgan masalani tushunish, masala yuzasidan o‘z fikrlarini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Chunonchi, O‘.Tolipov, qayd etganidek, “Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda tarbiyalanuvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda yo‘naltirilgan pedogogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir” [105,37].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda talabalarning qiziqishi, rag‘bati, ichki

ehtiyoji, mustaqilligi, tajribasi, ishtirokchilarning yosh va individual-ruhiy xususiyatlari tadbir mavzusiga moslashtirilishi va loyihalashtirilishi zarur.

Innovatsion pedogogik texnologiyaga asoslangan faoliyat boʻlajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilib, shunga mos ravishda tadbir mavzulari belgilandi. Bu mavzular ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlaridan oʻquv mashgʻulotlarining davomi sifatida tanlandi. Belgilab olingan tadbirlarning mavzulari, rejasi, mazmuni, oʻtkazish vaqti va tartibi, maqsadi va vazifalari tajriba-sinov ishlari ishtirokchilariga, kuzatuvchilar guruhiga oldindan ma’lum qilindi.

Auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarining shakllari– ma’ruzalar, suhbatlar, teatrlashtirilgan badiiy kechalar, sport musobaqalari, ma’naviyat soati, axborot soati, ma’naviyat kunlari, konferensiya, bahs-munozara, matbuot konfrensiyasi, fan haftaligi, ma’naviyat olamiga sayohat, voizlar mushoirasi, siyosiy muhbirlar guruhi, yosh kitobxonlar mushoirasi, gʻoyalar bahsi, ijodkorlar kechasi va h.k.lardan iborat boʻlgan boʻlsa, oʻquv mashgʻulotlarining shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnologiyalaridan muammoli oʻqitish, integrallashgan (mujassamlashgan) oʻqitish, topshiriqli dars, bumerang texnologiyasi, oʻyinli texnologiyalar, kompyuterli oʻqitish kabi texnologiyalardan iborat boʻladi. Qoʻllanilgan metodlar boʻlsa, tushuntirish, oʻrgatish, ma’ruza-suhbat, maslahat-oʻgit, ibrat-namuna, aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, jamoatchilik fikri, istiqbol, munozara-muloqot, ma’qullash-undash, kichik guruhlarda ishlash, ragʻbatlantirish, olqishlash, yaxshilikka undash, gʻoyalar bahsi, dalillar, istiqbolni koʻrsatish fuqarolik pozitsiyasining maqsadi, vazifalari va unga erishish yoʻllarini tavsiya qilish, mehnatga yoʻllash, axborot-ma’rifiy va kommunikativ suhbat singari usullardan iborat boʻldi.

Bunday faoliyat fan mavzularining mazmunini toʻldirish, integratsion (fanlar mavzulari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) yondashuvlar yordamida fanlar hamda tadbirlar mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasi mezonlari aniqlab olinib, ularni boʻlajak siyosatshunoslarda rivojlantirishda quyidagi mezonlar nazarda tutildi:

- fuqarolik burchi, mas’uliyati, fuqaroviylik, faol fuqaroviylik, fuqarolik pozitsiyasiga ijtimoiy faol, siyosiy ongli, huquqiy bilimdon shaxs;

- fuqarolik pozitsiyasining mustaqil fikrlovchi, ijodkor, bunyodkor, tashabbuskor va erkin fuqarosi;

- milliy mafkura va demakratiya g‘oyalarini chuqur o‘zlashtirgan inson;

- yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyat va intellektual zakovatga ega bo‘lgan oliy ma’lumotli mutaxassis;

- milliy va umuminsoniy qadriyatga sodiq, ularni asrab avaylovchi, mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi kasb egasi;

- ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga faol ishtirok etib, tadbirkorlik, ishbilarmonlikni, yaratuvchilikni kasb qilib olgan yosh mutaxassis;

- ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan fuqaro;

- erkin raqobatga kirisha oladigan, munozara yuritish pozitsiyasiga ega mehnatkash;

- boy dunyoqarash, ijodiy tafakkur, kreativlik, kompetentlikka ega bo‘lgan xodim va h.k.

Ushbu mezonlardan kelib chiqib, bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanlari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar integratsiyasining yig‘ma dasturi mazmuniga bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga ko‘maklasha oladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar kiritildi. Jumladan, Buxoro davlat universitetida: “Qadimgi Sharq va Antik dunyo fuqarolari pozitsiyasi”, “Fozil shaharning fozil fuqarolari” (Abu Nasr Forobiy ta’limoti asosida), “Temur tuzuklarini o‘qib”, “Komil inson orzusidagi o‘ylar”(Alisher Navoiy asarlari misolida), “Istiqloling mangu bo‘lsin, ey ona Diyor” ijodiy-badiiy o‘yin, “Buyuk elning buyuk farzandi, bilib qo‘yki, seni Vatan kutmoqda” mavzusida ma’ruza-seminar, “Sog‘lom jamoada sog‘lom fikr tug‘iladi” nomli munozara, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish har bir yoshning fuqarolik burchi”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddas” nomli harbiy-badiiy kecha va uchrashuv, “Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin” kabi mavzularda suhbat, “Barkamol avlod – mustaqil mamlakat poydevori” mavzusida sport musobaqasi.

Tadqiqot jarayonida “Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va o‘quv mashg‘ulotlari integratsiyasi” dasturiga kiritilgan mavzular, namuna sifatida keltirilgan tadbirlar loyihalashtirildi va o‘tkazildi.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, auditoriyadan tashqari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar pedagogik jihatdan aniq va to‘g‘ri loyihalashtirilsa, maqsadga erishish oson bo‘lishini tajriba-sinov natijasi ko‘rsatdi:

- talaba tomonidan fuqarolik pozitsiyasi va fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘zlashtirildi, idrok etildi, qayta ishlandi;
- talaba-yoshlarda Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, vatanparvarlik tushunchalarining rivojlanishiga asos solindi;
- Ona-Vatanga, tug‘ilib o‘sgan yeriga, hududiga bo‘lgan hurmat-ehtirom, e’tiqod tuyg‘usiga aylanishi yo‘lga qo‘yildi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analarga bo‘lgan qiziqish ortdi;
- insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik tushunchalarining mazmun-mohiyati anglandi;
- ajdodlar shaxsiga, ta’limotiga, ijodiga mehr-muhabbat tuyg‘usi rivojlandi;
- milliy urf-odat va marosimlarimizga bo‘lgan hurmat ortdi;
- talabalarda o‘z ijodiy imkoniyatlarini erkin va mustaqil namoyon qilish ko‘nikmasi takomillashdi;
- talabalarda mantiqiy, ijodiy tafakkur va bilish faoliyati rivojlandi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish va o‘tkazishda kuyidagi talablarga e’tiborni qaratsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini tadqiqotimiz ko‘rsatdi. Jumladan:

1. Auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘quv yurtida yagona reja asosida tashkil qilinishi zarur.
2. Tadbirlarni yagona maqsad, g‘oyaviy yo‘nalishga qaratish kerak.
3. Har bir ma’naviy-ma’rifiy ish va tadbir aniq ijtimoiy maqsad va g‘oya asosida loyihalashtirilishi va o‘zida ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni qamrab olishi lozim.
4. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilayotganda talabalarning qiziqishi, ehtiyojlari, xohishlari, yosh va tayyorgarlik darajasi hamda tajribasi hisobga olinishi zarur.
5. Tadbirlar shu kunning talablaridan kelib chiqib, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi va Yangi O‘zbekistonni barpo etish muammolariga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

6. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida tanlanadigan badiiy asar, she’r, qo‘shiq, badiiy kompozitsiyalar hozirgi zamon – mustaqillik, milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lishi zarur.

7. Tadbir jarayonida talabalar o‘zlarini erkin tutishlari, mustaqil, ijodiy fikrlashlariga erishish muhim.

8. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish borasida auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning turli shakllaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi.

9. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida talabalarning mustaqilligi, tashabbuskorligini yo‘lga qo‘yish orqali talabalarning to‘liq faolligiga erishish hamda mashg‘ulot jarayonida ijodiy ma’naviy-tashkiliy muhitni yaratish muhim sanaladi.

10. Har bir tadbir mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasiga oid tushunchalarni talabaning o‘zini izlab topishiga yo‘llash orqali bo‘lajak siyosatshunoslarda izlanuvchanlik, topqirlik, zukkolik malakalarini shakllantirishga erishiladi.

11. Auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarning barkamol insonni tarbiyalashda muhim omil ekanligini aniqlash uchun, har bir tadbir mazmunini yoritish jarayonida talabada ishonch va e’tiqodni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar talabalarning hayotni tushunishga, uni chuqurroq bilishga o‘rgatib, ularda bilim, ishonch, e’tiqod, dunyoqarashni, fuqarolik pozitsiyasi va Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi asosida rivojlantirishga, ularda mustaqillik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, izlanuvchanlik, topqirlik, zukkolik kabi xislatlarni o‘stirishga imkon yaratadi. Auditoriyadan tashqari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida talabalar jamoa bo‘lib ishlashni va yashashni o‘rganadilar, shu bilan birga, ularda jamoatchilik fikriga bo‘ysunish, jamoatchilik fikri bilan hisoblashish, jamoa sharafi uchun kurashishga intilish malakalari rivojlanadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida talabalar fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarining mazmunini, holatlarni o‘z hayotlari bilan solishtiradilar va ijobiy tomonlarini o‘zlashtirib olishlari mumkinligini tadqiqotimiz natijalari ko‘rsatdi.

## Uchinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda, fuqarolik pozitsiyasining mazmunidan o‘rin olgan kompo-nentlar (tarkibiy qismlar) muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olinib, ularning falsafiy-pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Ayniqsa, shaxs fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi va rivojlanishida fuqarolik burchi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik majburiyati, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik e’tiqodi, fuqaroviylik, millatlararo muloqot pozitsiyasi, axloqiy-huquqiy pozitsiya kabi tarkibiy qismlarning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan.

2. Talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish murakkab pedagogik hodisa ekanligi, buning uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonini modernizatsiya qilish, uning yo‘nalishini jahon andazalari darajasiga ko‘tarish, fan, ishlab chiqarish, o‘quv predmetlari yaxlitligini ta’minlashni yo‘lga qo‘yib, ularni o‘qitishda tizimli, integratsion yondashishning afzallik tomonlari hamda nazariy va metodologik jihatlari yoritilgan.

3. Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar va ayrim ixtisoslik fanlarining imkoniyatlari katta ekanligini innobatga olib, ularni integrativ o‘qitishda bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqilib, unda ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuvlar, ularning tarkibiy tuzilmasi, ta’lim prinsiplari pedagogik texnologiyalarning shakli, metodi, usullari, vositalaridan foydalanish yo‘llari ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan va asoslangan.

4. Monografiyaning mazkur bobida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini innovatsion texnologiyalar vositasida rivojlan-tirishda ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini didaktik-texnologik tizimi ishlab chiqilib, unda tizimning innovatsion-texnologik mexanizimlari va didaktik-texnologik mazmuni yoritilgan. Innovatsion-texnologik hamda didaktik-texnologik tizim yordamida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlaridagi mavzularni o‘qitish jarayonida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo‘llari namuna sifatida keltirilgan.

# IV BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIK DARAJASI

## 3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi

Ilmiy – pedagogik manbalarda ta’kidlanishicha, har qanday tadqiqot ishining natijasi nazariy g‘oyalarning amaliy faoliyatdagi samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Shunga binoan, tadqiqotimiz jarayonida, uning maqsadi, predmeti, ob’ekti, vazifalari, mazmunidan kelib chiqib, birinchi bobda oliy o‘quv yurti talabalarida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, ikkinchi bobda muammoning pedagogik shart-sharoitlari asoslanib, ma’lum xulosalarga kelindi. Bunda manbalarni o‘rganish, tahlil qilish, tadqiq qilinayotgan muammoning amaldagi mavjud holatini o‘rganish, xulosalarga kelish, tadqiqotning tashkiliy-metodik asoslarini yaratish zaruriyatini tug‘dirdi. Bu zaruriyat tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlari bo‘ldi. Dastlab, tajriba-sinov ishlari mazmuniga faoliyatning maqsadi, vazifalari, amalga oshirish bosqichlari, ob’ektlari, sub’ektlari, manbalari, mezonlari va natijalari kiritildi.

Tadqiqotning bu jarayonida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari belgilab olindi. Tadqiqot muammosi yo‘nalishida tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari faoliyatni kuyidagi 3-bosqichda olib borish lozimligini ko‘rsatdi. Bular:

***Birinchi asoslovchi bosqich*** – bu bosqichda oliy o‘quv yurtlari talabalarining fuqarolik pozitsiyasi tushunchasini anglash darajasini aniqlash maqsadida talabalar, professor-o‘qituvchilar, guruh rahbarlari bilan davra suhbatlari, so‘rovnomalar o‘tkazish, intervyu olish ishlari amalga oshirildi.

Tajriba maydonlarining tajriba-sinov ishlarida ishtirok etuvchilarning soni belgilandi hamda ularning ilmiy-nazariy, ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, “Fuqaro”, “Pozitsiya”, “Fuqarolik pozitsiyasi”, “Fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish” tushunchalarining mohiyat-mazmunini anglash darajalarini aniqlandi. Shuningdek, bu bosqichda oliy o‘quv yurtlari talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam bera oladigan o‘quv-metodik majmualar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlandi hamda tajriba-sinov ishlarini muntazam,

tizimli, izchil, maqsadga muvofiq olib borish uchun mas’sul mutasaddilar tarkibi belgilandi.

***Ikkinchi tasdiqlovchi bosqich*** - bu bosqichda tadqiqot muammosining holati o‘rganilib, tajriba ishlari uchun tajriba va nazorat guruhlari belgilandi. Ushbu guruhlar uchun reja, dastur, tajribaviy ishlanmalar tayyorlandi. Tajriba-sinov hususiyatidan kelib chiqib, nazorat va tajriba guruhlarida kuzatish olib borildi. Ishlab chiqilgan metodik hamda uslubiy tavsiyalar sinovdan o‘tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlar, auditoriyadan tashqari ma’naviy va ma’rifiy ishlar, hamda ular mazmunidagi ma’lumotlarning talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganilib, ilmiy–pedagogik metodlar yordamida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib va ularni talabalar tomonidan anglaganlik darajalari aniqlandi.

***Uchinchi – shakllantiruvchi yakuniy bosqich***. Bu bosqichda tadqiqotimiz maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi va ularni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan talablar asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi. Shuningdek, mazkur bosqichda olingan natijalarning pedagogik samaradorligi aniqlandi, uni takomillashtirish uchun umumiy xulosalarga kelinib, tavsiyalar tayyorlandi. Tajriba guruhlarida kuzatishlar olib borildi. Tayyorlangan metodika hamda uslubiy tavsiyalar sinovdan o‘tkazildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari, auditoriyadan tashqari ma’naviy va ma’rifiy ishlar, milliy va ular mazmunidagi ma’lumotlarning bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi hamda ilmiy-pedagogik metodlar yordamida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik mezonlari, fuqarolik pozitsiyasining mazmunini, bilimlarni o‘zlashtirish darajalari aniqlandi.

Faoliyatning birinchi asoslovchi bosqichida tajriba-sinov ishlarini izchil, muntazam, tadqiqotning ilmiy farazi asosida olib borish maqsadida ob’ekt (tajriba maydoni), TSI sub’ektlari, oliy o‘quv yurtida o‘qitiladigan va ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarning soni va nomi belgilab olindi. Tanlangan fanlar talabalardan olingan intervyu,

so‘rovnomalar yordamida aniqlandi. Zero, bu fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos.

Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari o‘quv mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari ishlar orqali amalga oshirilishi rejalashtirildi. Buning uchun dastlab quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb topildi:

1. Fanlarning mavzulari hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaviy tadbirlar mazmunidagi ma’lumotlarda ifodalangan fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini talabalarning anglab olishlariga ko‘maklashish.

2. Fuqarolik pozitsiyasi barkamol avlod tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotini ta’minlashda muhim omil ekanligini talabalar ongiga yetkazish

3. Har bir insonda fuqarolik pozitsiyasi rivojlangan bo‘lishi lozimligi va u shakllangan taqdirdagina har qanday inson ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyotning faol ishtirokchisi bo‘lishi mumkinligini talabalar e’tiboriga xavola qilish.

4. O‘rganiladigan ma’lumotlar fuqarolik pozitsiyasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan chuqur anglashiga yordam bera olishi va shu asosda, har bir talaba o‘zida fukarolik pozitsiyasini rivojlantirishi mumkinligini tushuntirish talabalarda hosil qilish.

5. O‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar har bir talabada fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishi mumkinligiga ishonch his-tuyg‘usini tarbiyalash va h.k.

Ushbu malakalarni maqsadga muvofiq hal etish hamda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini shakllantirishga qaratilayotgan e’tiborni o‘rganish maqsadida tadqiqodimiz ob’ektlari Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabalari bilan so‘rovnomalar o‘tkazildi.

So‘rovnomada keltirilgan *“Siz ishlayotgan oliygoh va fakultetda Yangi O‘zbekistonni qurish va fuqarolik pozitsiyasi asoslarini rivojlantirish uchun o‘quv-tarbiya ishlari qanday yo‘lga quyilgan?”* degan savolga dekan muovinlaridan 26 foizi talabalarga fan asoslarni chuqur o‘rgatish, tarbiyaviy tadbirlar ta’sirchanligini oshirish, talabalarni yot g‘oyalardan asrash, deb javob bergan bo‘lsalar, professor-o‘qituvchilar, guruh rahbarlaridan 32,8 foizi esa talabalarning

huquqiy savodxonliklarini oshirish, milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatni demokratlashtirish deb javob qaytarganlar. 10 foizi esa yoshlarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va insonparvarlik xis-tuyg‘usini tarbiyalashdan iborat deb javob berganlar. 28 foiz professor-o‘qituvchilar va guruh rahbarlari umumiy so‘zlar bilan chegaralanganlar, xolos.

16 foizi esa o‘z fikrlarini ifodalashga qiynalishgan, 11,2 foiz respondentlar javob berishmagan.

*“Siz ishlayotgan oliygohda o‘quv-tarbiya jarayoni, talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ishlari qanday yo‘lga qo‘yilgan?”* degan savolga ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan muovinlari, guruh rahbarlari va fan o‘qituvchilaridan 44,6 foiz mashg‘ulotlar jarayonida, ma’naviyat soatlarda deb javob bergan bo‘lsa, 15,0 foizi oila, mahalla orqali, 25,0 foiz respondentlar maxsus tashkil etilgan seminarlarda, deb fikr bildirishgan. 14,6 foizi to‘liq javob bera olishmagan.

So‘rovnomadagi *“Siz o‘qitayotgan fan talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantira oladimi?”* degan savolga professor-o‘qituvchilardan 28 foizi talabalarda fuqarolik burchi, xis-tuyg‘usi, mas’uliyatini tarbiyalaydi, deb javob bergan bo‘lsa, 28,2 foiz sub’ektlar har bir mashg‘ulot jarayonida talabalarga fuqarolik tarbiyasi to‘g‘risida gapirib, uni to‘g‘ri izohlash kerak, deb fikr bildirishgan. So‘rovnomaga qatnashganlardan 43,2 foizi bu savolga aniq to‘g‘ri javob bera olmaganlar va ayrimlari betaraf qolganlar.

Guruh rahbarlariga *“Guruhingiz talabalarida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun tarbiyaning qanday shakl, metod va vositalaridan foydalanasiz?”* degan savolga 26,4 foiz guruh rahbarlari ma’naviy tarbiya, ma’naviy pozitsiyaga mavzularni dars soatlarida targ‘ib qilish kerak deb, 29,6 foizi tarbiya ishlarini aniq yo‘lga qo‘yish orqali talabalarga fuqarolik burchi, mas’uliyati, fuqarolik tarbiyasi to‘g‘risida doim gapirib turish kerak, deb fikr bildirishgan, 44 foiz guruh rahbarlari esa bu savolga javob berishga qiynalishgan va ayrimlari noto‘g‘ri fikr bildirganlar.

Savollarga olingan javoblar bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlarini yanada takomillashtirish uchun mutaxassislar quyidagi vazifalarni amalga oshirishga e’tiborni qaratishlari lozimligi qayd etildi.

Yuqoridagi vazifalarni tadqiqotimizning ilmiy farazi asosida maqsadli bajarilishini ta'minlash, ya'ni oliy-o'quv yurti talabalarida fuqarolik pozitsiyasi fazilatlarini rivojlantirish uchun tajriba-sinov ishlarining har bir bosqichida muayyan pedagogik talab va qoidalar (prinsiplar)ga rioya qilishga e'tibor qaratildi. Bular:

1. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-madaniy hayotda hamda mamlakatda fuqarolik pozitsiyasi asoslarini tarkib toptirish xususiyati bilan aloqadorligiga.

2. Talabalar shaxsining ijtimoiy yo'nalganligiga (qiziqish, ixtisoslikka bo'lgan ijobiy munosabati, ota-onalar, xalq, tengdoshlariga bo'lgan g'amxo'rligi, burch, mas'uliyat, majburiyatni his etish,iymon e'tiqodini mustahkamlashdagi intilishi, faoliyatning maqsadga yo'nalganligi)ga.

3. Tajriba-sinov ishlarining aniqligiga, uning taraqqiyot maqsadi, vazifalari asosida belgilanganligiga.

4. Talabalar o'quv-biluv faoliyatining, ijtimoiy foydali faoliyat, mehnat, tarbiyaviy ishlarga ishtirok etishi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini nazorat qilishi va o'ziga-o'ziga baho bera olish darajasi bilan bog'likligiga.

5. Talabalarning ruhiy irodaviy xususiyatlari – iroda kuchi, faoliyat yo'nalishi, maqsadga intilishi, o'qish va mehnatga munosabati, faollik darajasi, intizomi, huquqiy-ahloqiy savodxonligi, tartibi, milliy g'urur, iftixor kabi ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni ko'rsata bilish qobiliyatiga.

6. O'quv-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning, aniq maqsadga qaratilganligiga.

7. Tajriba sinov ishlariga jalb etilgan professor-o'qituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilarning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasi, fan asoslarini o'zlashtirganlik darajalariga.

8. Talabalarning tarbiyalanganlik darajasi (fuqarolik burchi, mas'uliyati, majburiyatini aniq xis etishi, xuquqiy-ahloqiy bilimi, qarashlari, ishonchi, or-nomusi iymon-e'tiqodi, kamtarlik, insonparvarlik, mehnarsevarlik, ijodkorlik, ishbilarmonlk kabi fazilatlarni namoyon eta olish)ga.

9. Bo'lajak siyosatshunoslarning o'z faoliyatidagi muvafaqiyatlarini oldindan ko'ra olish, muvaffaqiyatsizlikni aql bilan bartaraf eta bunig uchun olish, sabr- qanoatli bo'la olishiga.

10. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarini muntazam, izchil, uzluksiz, tizimli va maqsadga muvofiq tarzda olib borish natija samaradorligining kafolatlangan asosi degan qoidasiga.

11. Tajriba-sinov ishlaridagi ayrim nosozliklardan hayiqmay, uni qayta oʻrganish va loyihalashtirish qoidasiga.

12. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda talaba, ma’muriyat, professor-oʻqituvchilar, murabbiylar oʻrtasidagi muloqot pozitsiyasini aniq yoʻlga qoʻyish va oʻquv yurti, mahalla, jamoa, tashkilotlar oʻrtasidagi xamkorlikni insonparvarlik, demokratiya qonunlarining toʻliq amalga oshirilishiga.

Qayd etilgan qoida prinsiplar asosida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish amaliy faoliyatda sinalgan ta’lim-tarbiyaning pedagogik kuzatish, pedagogik eksperiment, davra suhbatlari, test soʻrovnomalari, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, nuqsonlarni oʻrganish va tuzatishlar kiritish trening-konferensiya, ekskursiya, ma’ruza, seminar kabi shakllaridan hamda oʻrgatish, mashq qildirish, maslahat, tanbeh berish, ogohlantirish, ibrat-namuna, jamoatchilik fikri, istiqbol kabi metodlardan, shuningdek, vaqtli ma’lumot materiallari, badiiy oʻqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish, ilmiy va falsafiy adabiyotlar oʻqish milliy-ma’naviy va tarixiy meros kabi vositalardan oʻrinli foydalanish, tajriba-sinov ishlarimizning samarasini ta’minlay oldi.

Oliy oʻquv yurti talabalarida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarimizning navbatdagi yoʻnalishi oliygoxlarida oʻqitiladigan oʻquv fanlarini aniqlash va aniqlangan fanlar mazmunidan kelib chiqib, tadqiqotimiz muammosini yorqinroq va aniqroq ifodalashga qaratilgan mavzularni belgilashdan iborat boʻldi. Bu turkum oʻquv fanlaridan “Siyosatshunoslik oʻqitish metodikasi”, “Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik pozitsiyasi” kabi fanlar va ular mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasi haqida ma’lumot beruvchi mavzular kiritildi. Bu fanlarni tanlashdan asosiy maqsad, ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, madaniyay-ma’rifiy va ma’naviy hayot, shaxs kamoloti va uning taraqqiyot yoʻli, mamlakatda demokratik huquqiy davlatni qurish, uni rivojlantirib, fuqarolik pozitsiyasi asoslarini shakllantirishga yoʻnaltirish toʻgʻrisida kengroq ma’lumotlar bera olishi va bu ma’lumotlar yordamida talabalarda asoslarini tarbiyalash uchun koʻproq imkoniyatlarga ega, ekanligidir.

Tajriba-sinov ishlarimizning maqsadi va vazifalariga ko‘ra auditoriyada boshlangan ishlar pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarda davom ettirildi. Bu tadbirlar talabalarda fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega ekanligini tajriba-sinov ishlari namoyish etdi. Ushbu tadbirlarning ta’sir darajasi talabalarning qiziqishlari, hohish-istaklari, ehtiyojlari, o‘quv yurtining shart-sharoitlari tadbirlar tashkilotchilarining layoqati, sub’ektlarning, kasbiy mahorati, ijodkorligi, maqsadni to‘g‘ri ko‘zlay olish qobiliyatiga ham bog‘liq ekanligi tadqiqot jarayonida ma’lum bo‘ldi. Ushbuni inobatga olib tibbiyet oliy o‘quv yurti talabalarida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan auditoriyada boshlangan ishlarini auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda davom ettirish va bu jarayonning imkoniyatlaridan mukammal foydalangan holda talabalarni ijtimoiy-foydali faoliyatini tashkil etish ularda ilmiy duyonqarash, ma’naviy-ahloqiy salohiyatni yuksaltirishga xarakat qilindi. Bu tadbirlar ma’ruza, ma’ruza-suhbat, ma’ruza-bahs, anjuman, amaliy mashq, rolli o‘yinlar, munozara shaklida va tanqidiy fikrlash, fikrlar hujumi, bilmaganigni bilib ol kabi pedagogik-psixologik metodlar yordamida amalga oshirildi. O‘tkazilgan tadbirlarda asosiy e’tibor ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonuniyatlarini anglash asosida ruhiy, nazariy, amaliy faoliyatni tashkil etishga qaratilib, tadbir mavzusi doirasida talabalarning ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarining shakllanishini ta’minlash hamda fuqarolik pozitsiyasining chuqurlashuvi va mukammalashuvi uchun asos bo‘lib xizmat qila oldi.

Talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni ta’minlaydigan auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta’limdagi auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida dastlabki o‘rganilgan ma’lumotlar, tasavvurlarning mustahkamlanishi, yangilanishi, rivojlanishi yo‘lga qo‘yildi.

Ma’lumki, talabalarda ijtimoiy-g‘oyaviy dunyoqarash, iymon e’tiqod, ma’naviy-ahloqiy fazilat, fuqarolik his-tuyg‘usi, sog‘lom turmush tarzining tarkib topishida oila va jamiyatdagi ma’naviy-madaniy muhit muhim o‘rin tutadi. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida bular inobatga olindi, chetda qolmadi. Bu esa tajribaning mazmunini faollashtirdi.

Ikkinchi bosqichda talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda ularning burch, mas'uliyat, majburiyatni qanchalik xis qilishlari, davlat ramzlari (bayroq, tamg'a, madhiya, milliy valyuta, armiya)ni tan olishlari va ularga hurmat bajo keltirishlari hamda bu ramzlarga sodiq qolishlarini tarbiyalashga e'tibor qaratildi. Shuningdek, ushbu bosqichda talabalikning dastlabki davrlaridan boshlab, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy ma'lumotlar beruvchi tadbirlarga jalb etish, ushbu tadbirlar talabalarning fuqarolik pozitsiyasining mazmun-mohiyatini, funksiyalarini, anglatuvchi yo'nalishni kuchaytirishga qaratilgan pedagogik ishlar amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda talabalarning sog'lom turmush tarzini belgilovchi, ularni ijtimoiy foydali faoliyati, barkamolligini ta'minlovchi tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish amalga oshirildi. Bu bosqichda tadbir mutasaddilarining faoliyati:

a) yo'nalish berish; b) nazorat qilish; v) maslahat berish; g) korreksiyalash (tuzatishlar kiritish)dan iborat bo'ldi.

To'rtinchi bosqichda auditoriyadan tashqari tadbirlar jarayonida talabalarning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi bilimlari, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda takomillashtirish ishlari, amaliy faoliyati yo'nalishini tashkil etdi. Talabalar mustaqilligi, faolligi tashabbuskorligini oshirish uchun imkoniyat yaratildi. Bu imkoniyatlar talabalarning fuqarolik burchi, fuqarolik mas'uliyati, fuqarolik tafakkurini boyitishga xizmat qila oldi. Mutasaddi sub'ektlar bu bosqichda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va uni yoshlarda tarbiyalash bo'yicha ko'rsatmalar, tavsiyalar ishlab chiqa oladigan bo'ldilar.

Demak, auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar yordamida amalga oshirilgan pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak siyosatshunoslarda: a) fuqarolik pozitsiyasining xususiyatlari va jamiyat a'zolarining shaxsida fuqarolik pozitsiyasi fazilatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojini uyg'otishga erishildi; b) auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarga talabalarning faol, mustaqil, tashabbus bilan ishtirok etishlari yo'lga quyildi; v) fuqarolik pozitsiyasi tushunchasi va u bilan bog'lik bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-ahloqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini hosil qilishga erishildi; g) ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunida bilimlarni auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy,

tarbiyaviy tadbirlar jarayonidagi ma’lumotlar bilan bog‘lash ishlari yo‘lga qo‘yildi.

O‘tkazilgan auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarining natijalari to‘g‘risida bobning keyingi paragrafida so‘z yuritilgan.

## 4.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari

Tadqiqot ishimizning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazidan kelib chiqib, oldingi paragrafda ixtiyoriy tanlab olingan, oliy ta’lim muassasalarida ishlab chiqilgan metodika, ya’ni bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlarini tajriba-sinovda o‘quv-tarbiya va auditoriyadan tashqari faoliyat jarayonida amalga oshirdik.

Endi amalga oshirilgan metodikaning natijaviyligi va samaradorlik darajasini ushbu paragrafda ko‘rib chiqamiz.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida tadqiqot ob’ektlarimizdagi talaba-respondentlar ixtiyoriy ravishda nazorat guruhi va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhlarida faoliyat an’anaviy, odatdagi tarzda tashkil etildi. Tajriba guruhida o‘quv mashg‘ulotlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ishlab chiqilgan dastur, maqsadli dastur talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo‘nalishida uyushtirildi.

Tajriba guruhida tadqiqot doirasida “Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” modeli, modelda belgilangan ijtimoiy zaruriyat va tadqiqot maqsadini amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarga zamonaviy yondashuvlar, ta’lim prinsiplariga tayanib faoliyatni yo‘lga qo‘yish, o‘quv-tarbiya va auditoriyadan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, ma’lumot beruvchi vositalar (kompyuter texnologiyalar)ni keng jalb etish, tarbiyaviy va targ‘ibot ommaviy tadbirlarga keng jalb etish ishlari tashkil etildi va amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida faoliyat fuqarolik pozitsiyasi tarkibiy qismidan o‘rin olgan fazilatlarni talabalarda rivojlanganligini kuyidagimezonlari asosida belgilash nazarda tutildi:

- huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida ma’lumotga egalik va ularning mazmunini aniq anglash;
- fuqarolik pozitsiyasi shaxslariga mos va xos hisoblangan fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik burchi, fuqarolik majburiyati, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik e’tiqodi, ahloqiy-huquqiy ong kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash va amalda qo‘llay olish;
- davlat ramzlari (bayroq, madhiya, tamg‘a, armiya, valyuta), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Prezidenti faoliyatining mohiyatini anglash va ular bilan fahrlanish tuyg‘usiga egalik;
- o‘quv yurtidagi ijtimoiy-ma’naviy hayotga faol ishtirok etish va tashabbuskorlik namunasini ko‘rsata olish;
- o‘quv yurtining jamoa ishlariga, ijtimoiy-foydali mehnatga ijobiy munosabatni, o‘qituvchilari, kursdoshlari, do‘stlari bilan hamkorlikda jo‘shqinligini namoyish eta olish;
- ongli intizom, fuqarolik faolligi va millatlararo muloqot pozitsiyasini, fuqaroviylikni namoyish eta olish;
- jamiyatga, o‘qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga burch va majburiyat bilan yondasha olish, topshirilgan vazifani mas’uliyat bilan bajarishga intilish;
- jamiyatning axloqiy-huquqiy me’yorlarini mukammal bilish va ularga muntazam amal qilishga odatlanish;
- milliy an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar, ma’naviy merosni qadrlay olish tuyg‘usiga ega bo‘lish;
- xulq-atvor qoidalari, ma’naviy-axloqiy salohiyat, intellektual barkamollik ko‘nikmalari to‘g‘risidagi tasavvurlarga ega bo‘lish va h.k.

Tadqiqot jarayonida ob’ektlari Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tajriba-sinov jarayoniga jalb qilingan respondentlarning fuqarolik pozitsiyasi tarkibiy qismlarini bilish darajalari yuqorida qayd etib o‘tilgan mezonlar asosida ishlab chiqildi. Barcha respondent talabalar tajriba guruhi – 240 nafar, nazorat guruhi – 224 nafar tajriba-sinov ishlariga jalb qilinib, statistik-matematik, so‘rovnoma, anketa savollariga javoblar, suhbat, intervyu olish, test olish, tahlil va kuzatish

kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanib, tajribada sinovdan o‘tkazildi.

Tajriba-sinov ishlari 2021 yil fevral oyidan 2023 yil mart oyidagi davr ichida olib borildi va uch bosqichni tashkil etdi.

**Birinchi bosqich: (**buni biz oldingi faslda asoslovchi bosqich deb nomladik) 2021 yil fevral oyidan 2022 yilning fevral oyigacha bo‘lgan davrni qamrab oldi. Bu davrda mavzu doirasida fuqarolik pozitsiyasi tushunchasi, uning mazmunini ifodalovchi falsafa, pozitsiyashunoslik, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, pedagogika, psixologiyaga oid adabiyotlar o‘rganildi, pedagogik tadqiqot bazasi, ob’ektlari, sub’ektlari belgilandi. Bu bosqichda muammo mavzusiga yaqin bo‘lgan ilmiy-nazariy ta’limotlar, ommaviy holat o‘rganildi va tahlil qilindi. “Fuqarolik”, “Pozitsiya” tushunchalarining, tanlab olingan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunidagi mavzularda ifodalangan filosofik, sotsiologik, politologik, pedagogik, psixologik jihatlari o‘rganilib, tahlil qilindi. Bu yillarda fuqarolik pozitsiyasi tushunchasini ifodalovchi va unga yaqin bo‘lgan atamalar hamda ularga berilgan izohlar, ta’riflar, lug‘atlar, ensiklopediyalardagi ma’lumotlar doirasida to‘plandi va o‘rganildi. Shuningdek, fuqarolik pozitsiyasi tushunchasiga mamlakatimiz, MDH, xorijlik psixologlarning baholari, qarashlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘plandi va ular omil sifatida sharhlandi. Shu bilan bir qatorda, fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyat Sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik ta’limoti tizimida o‘rganildi va tadqiqotning asosi sifatida qabul qilindi.

O‘rganilgan, tahlil qilingan ilmiy-nazariy va metodologik materiallar respondent o‘qituvchi-professorlar hamda talabalar bilan muhokama qilindi. Mazkur bosqichning oxirida ushbu materiallardan foydalangan holda talabalarning fuqarolik pozitsiyasi tushunchasini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadida savol-javoblar, test nazorati uyushtirilib, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajalari aniqlandi. Ushbu faoliyat reyting nazorati shaklida tashkil qilinib:

1. 100-85 - yuqori daraja (5 a’lo baho);
2. 85-71 – o‘rta daraja (4 yaxshi baho);
3. 70-55 – past daraja ( 3 – o‘rta baho) – tarzida ko‘rib chiqildi. Uning natijasini kuyidagi jadvalda kuzatish mumkin (4.2.1- jadval).

**Jadval-4.2.1.**

**Tadqiqotning dastlabki bosqichida bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi tushunchasi mazmun-mohiyatini anglash ko‘rsatkichlari**

| **Guruhlar** | **Talabalar soni** | | **Fuqarolik pozitsiyasi tushunchasini anglash darajasi** | |
|---|---|---|---|---|
| | **a’lo** | **yaxshi** | **o‘rta** | **past** |
| Tajriba | 240 | 62 | 72 | 114 |
| Nazorat | 224 | 58 | 70 | 96 |

Ushbu tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ishlarini davr va zamonaviy pedagogik paradigma asosida tashkil qilish uchun o‘quv-tarbiya ishlarini zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash zarurdir. Bu faoliyat tadqiqotimizning ikkinchi – tasdiqlovchi deb nomlangan bosqichida amalga oshirildi.

**Ikkinchi bosqich:** 2022 yil fevraldan 2023 yil fevral oyi davrlarini qamrab oldi. Bu davrda keng ko‘lamda tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan maxsus metodika asosida faoliyat olib borildi. Maxsus metodika ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarini integrativ o‘qitish asosida muayyan mavzular bo‘yicha ma’ruza va seminarlar tashkil etildi. Buning uchun “Ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni integrativ o‘qitish jarayonida bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish modeli” ishlab chiqildi. Unda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-siyosiy hayot talablaridan kelib chiqib, ijtimoiy buyurtma maqsad belgilandi va ular asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalarga zamonaviy yondashuvlar va ta’lim prinsiplariga amal qilgan holda mashg‘ulotlar tashkil qilindi va o‘tkazildi.

Ma’lumki, bugungi kunda davr va ta’lim islohotlari talablariga ko‘ra, barcha fanlar singari oliy ta’lim maktablarida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq deb tan olingan. Zero, innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyati – bilim oluvchilarni mustaqil ishlash, izlanish, ijodiy fikrlash, tashabbus va ijodkorlikni namoyon

etishga qaratilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning xozirgi davrdagi didaktik xususiyatlari, kuyidagilar:

- birinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim oluvchining imkoniyalarini birinchi o‘rinda qo‘yishini inobatga olishni nazarda tutish;
- ikkinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonini tizimli, texnologik, muammoli-modulli, akmeologik, akseologik faoliyatli yondashuvlar asosida tashkil etish ishlarini amalga oshirish;
- uchinchidan, o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarini, ayniqsa, ma’ruza va seminar darslarining maqsadlarini oldindan aniqlashtirish, buning uchun, tashxis tizimini tuzish va jarayonni amalga ko‘llanishi, ya’ni kechishini, faoliyatni doimo nazorat qilish jarayonlarini oldindan loyihalashtirib olishga da’vat etish;
- to‘rtinchidan, ya’ni ta’lim vositalarini va axborot texnologiya usullaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish ishlarini ta’minlandi.

Pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini innovatsion ta’lim-tarbiya texnologiyalari deb atash zamonaviy didaktika fanida qabul qilingan bo‘lib, “Innovatsion pedagogika” terminining mazmunini pedagogik tajribalarni keng yoyish, ta’lim-tarbiya jarayonini yangilash, yangilik kiritish, yangilashni, nimadir o‘zlashtirish ma’nolarini anglatuvchi pedagogik fenomen sifatida XX asrning 20-30 yillarida G‘arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘ldi. Shu sabab bilan pedagogika fanida innovatsion ta’lim texnologiyasining pedagogik texnologiyalar deb nomlanuvchi shakli pedagogik jarayonga hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishni nazarda tutib, qayd etilgan ta’lim-tarbiya jarayonini interaktiv usullardan foydalanishni yo‘lga qo‘ydi, axborot texnologiyalari esa radio, televideniye, elektron aloqa, kompyuter grafikasi vositalarini tashkil etdi va faoliyatga keng qo‘llanila boshladi.

Biz tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalaridan Siyosatshunoslik o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda – muammoli ta’lim, “insert” strategiyasi, FSMU texnologiyasi, ma’ruza-suhbat, ma’ruza-munozara, axborot-vizualli ma’ruza kabi shakllardan hamda “Aqliy xujum”, “Tanqidiy fikrlash”, “Namoyish”, “Qora quti”, “Beshinchisi ortiqcha”, “4x4x4(5\5) “Munozara”, “Kichik guruhlarda ishlash” kabi interfaol usullari va kompyuter grafikasidan tajriba guruhlarida olib borilgan mashg‘ulotlarda foydalandik.

Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida rivojlantirish uchun “Auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi” joriy qilinib, unda mutassadilar vazifalari, foydalanadigan manbalar belgilandi va tadqiqot jarayoniga tatbiq etildi. Shuningdek, bu yo‘nalishda “Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va o‘quv ma’lumotlari integratsiyasi” dasturi ishlab chiqilib, faoliyatga joriy qilindi. Faoliyat jarayonining natijaviyligiga va asosli bo‘lishiga e’tibor qaratildi.

**Uchinchi bosqich:** 2023 yil fevral oyidan 2023 yil martgacha. Bu bosqich yakunlovchi hisoblanib, bu davrda bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan amaliy faoliyat yakunlari umumlashtirildi va asosiy natijalar tahlil etilib, samaradorlik darajasi aniqlandi. Bu bosqichda auditoriya va auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida fuqarolik pozitsiyasining rivojlanganlik darajalari muayyan topshiriqlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlari, ma’lumotlari, axborotlari natijasida talabalarda o‘zlashtirishlari qiyoslandi. Talabalarga tadqiqotning dastlabki va yakuniy bosqichida tavsiya etilgan topshiriqlar:

1-topshiriq: Fuqarolik pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va belgilari qaysi fanlar mazmunida, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning qaysi shakllarida o‘z ifodasini topgan, deb hisoblaysiz? Fikringizni o‘qigan adabiyotlaringiz, manbalar, lug‘atlardan foydalanib asoslang.

2-topshiriq: Davlat ramzlari deganda qanday ramzlar inobatga olingan, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy-siyosiy hayot, inson kamolotidagi o‘rni qaysi mezonlar orqali o‘lchanadi?

3-topshiriq: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar, marosimlar, yil bayramlari har qanday insonda qanday his-tuyg‘ularni, ma’naviy-ma’rifiy bilimdonlikni, axloqiy-huquqiy savodxonlikni talab qiladi? Ularni bilish, mazmunini anglash hammaga kerakli degan talabni qanday izohlagan bo‘lardingiz?

4-topshiriq: Ma’naviyat, pozitsiya, ma’rifat, siyosat kabi tushunchalarni davlat, jamiyat, inson barkamolligidagi o‘rnini aniqlang. Bu tushunchalarning hozirgi Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitidagi ahamiyati qay darajada? Fikrlaringizni manbalar asosida dalillang.

5-topshiriq: Fuqarolik pozitsiyasining tarkibiy qismlariga, soha mutassadilari, tadqiqotchilar, olimlar, fuqarolik burchi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik munosabati, ahloqiy-huquqiy pozitsiya,

fuqaroviylik, fuqarolik dunyoqarash, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik e'tiqodi, fuqaroviy ong, faol fuqaroviylikni, ijtimoiy faollik va siyosiy bilimdonlikni, millatlararo muloqot pozitsiyasini kiritadilar. Bunga munosabatingiz qanday? Bu tushunchalarni to‘ldirish uchun yana qanday komponentlarni qo‘shish talab etiladi?

6-topshiriq: Vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, o‘z millatiga sadoqat, mehnatsevarlik, yaratuvchilik, tadbirkorlik, mehr-shafqat, e'tiqod, iymon-diyonat, poklik va halollik, vafodorlik, milliy o‘zlikni anglashni shaxsning qanday mezonlari deb hisoblash mumkin? Ular inson uchun keraklimi?

7-topshiriq: Huquqiy savodxonlik, qonunga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat, xalq oldidagi majburiyat, millat oldidagi mas'uliyatni fuqaroning qanday xususiyatlari deb atash qabul qilingan? Fikringizni asoslang.

8-topshiriq: Shaxs fuqarolik pozitsiyasining omillari va vositalari degan fanda tushuncha mavjud. Qanday omillar va vositalar fuqarolik pozitsiyasini har insonda shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi? Buning uchun nima talab etiladi?

Mazkur topshiriqlarning natijasini tadqiqotimiz jarayonida tadqiqot ob'ektlaridagi respondent-talabalaridan olingan javoblarning 4.2.2-jadvaldagi son va sifat tahlilida ko‘rish mumkin (respondent-talabalar soniga nisbatan foiz xisobida).

**4.2.2-jadval**

**Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta'lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga doir topshiriqlar bo‘yicha o‘zlashtirishning qiyosiy darajalari**

| Bosqichlar | Guruhlar va ko‘rsatkichlar | Nazorat guruhi | | | Tajriba guruhi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | To‘liq izohlaganlar | Qisman izohlaganlar | Izohlay olmmaganlar | Tuliq izohlaganlar | Qisman izoxlaganlar | Izohlay olmaganlar |
| Dastlabki bosqich | | 39.8 | 44.0 | 17.2 | 40.2 | 39.6 | 20.2 |
| Yakuniy bosqich | | 42.2 | 41.0 | 16.8 | 75.2 | 14.8 | 10.0 |

Jadvalda shu narsa ko‘zga tashlanadiki, tajribani yakuniy bosqichida topshiriqlarni bajarish va fuqarolik pozitsiyasi mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilimi tajribaning dastlabki bosqichiga nisbatan ma’lum darajada o‘sgan. Bu tajriba – sinov ishlari jarayonida tajriba guruhlari uchun ishlab chiqilgan va amalda qo‘llangan maxsus metodikaning to‘g‘ri belgilanganligidan dalolat beradi. Talabalar ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari mazmunidagi mavzularda ifodalangan fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarni mashg‘ulotlar innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etilganligi sababli tajriba ishining yakuniy bosqichida teranroq anglay olganlar. Talabalarning ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlariga, innovatsion pedagogik texnologiyalarga munosabatlari tubdan o‘zgargan, ular fanlar mazmunidagi mavzularni kelajak faoliyati uchun, hayot uchun, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun kerakli ma’lumotlarni to‘play olganlar, ular o‘z fikr-mulohazalarida kelajakda egallagan bilimlari yordamida barkamol insonlar, yuksak darajadagi mutaxassislar bo‘lib yetishishlari mumkinligini ta’kidlaganlar.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tajriba-sinov ishlarining ob’ektlari sifatida belgilangan Buxoro davlat universiteti, ob’ektlari Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ta’lim maskanlarining 464 nafar talabalari jalb etilgan bo‘lib, ularning fuqarolik pozitsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyatini bilishi, tushunchalar mazmunidagi sifatlarning inson uchun kelajak ijtimoiy-ma’naviy hayot uchun, taraqqiyot uchun ahamiyatli jihatlarini anglashlari so‘rovnomalar, test yordamida aniqlanganligi to‘g‘risida mazkur bobning birinchi faslida so‘z yuritilgan edi.

Tajriba-sinovning yakunlovchi bosqichida mashg‘ulotlar (nazariy, amaliy) va ma’naviy-ma’rifiy ishlar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari (kompyuter grafikasi)dan foydalanib o‘tkazilgandan so‘ng tajribaguruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhi bilan (3.2.) qiyoslaganda, tajriba guruhida natija yuqori ekanligini kuzatdik. Masalan, tajriba-sinov ishlarining yakunida to‘liq izohlaganlar 42.2% tashkil qilgan bo‘lsa, tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 75,2% dan iborat bo‘lgan. Nazorat guruhida ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari mazmunidagi fuqarolik pozitsiyasi tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglash, ularning ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rnini

anglab yetish ancha past. Chunki bu guruhda fanni o‘qitish maqsadli metodika emas, an’anaviy metodika asosida olib borilgan.

Tajriba guruhlarida esa aniq va maqsadli metoika asosida faoliyat tashkil etilganligi sababli, respondent-talabalarning qo‘yilgan topshiriqlarni bajarishlari, tavsiya etilgan savollarga bergan javoblaridan namoyon bo‘ldiki, ular o‘zlariga yuklatilgan vazifani aniq biladilar va uni bajara oladilar, shuningdek, o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yish, unga erishishni uddalaydilar. Fan asoslarini puxta o‘zlashtirishga, tafakkur va dunyoqarashlarini rivojlantirishga, fuqarolik pozitsiyasining mazmun-mohiyatini aniq tushunadilar va uni o‘zlarida rivojlantirish uchun qiziqish va intilishni namoyon eta olganlar:

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha tadbirlarning natijalariga asoslanib ta’kidlash joizki, nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhidagi respondent-talabalarda fuqarolik pozitsiyasining, fuqarolik burchi, ongi, mas’uliyati, tafakkuri, tasavuri, e’tiqodi, odob-axloq va madaniy xulq me’yorlari kabi sifatlarining mazmun-mohiyatini anglash va ularni o‘zlarida rivojlantirishga intilish ancha yuqori. Buni nazorat va tajriba guruhlarining tajriba-sinov ishlari yakunidagi ko‘rsatkichlarda kuzatish mumkin (qarang: jadval – 4.2.3).

**4.2.3-jadval.**

**Yakunlovchi tajriba-sinov natilari**

| Guruhlar | Respondent talabalar | Ko‘rsatkichlar darajasi | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yuqori | o‘rta | quyi |
| Tajriba (n) | 240 | 118 | 81 | 41 |
| Nazorat(m) | 224 | 23 | 78 | 123 |

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, tadqiqotning yakunlovich tajriba-sinov bosqichida tajriba guruhida yuqori ko‘rsatkich 118 - kishini tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida 23 kishini tashkil qilmoqda. Bu tajriba guruhi talabalarida fuqarolik pozitsiyasini ancha rivojlanganligidan dalolat beradi va tadqiqotning to‘g‘ri tashkil etilganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, fuqarolik pozitsiyasining mazmun mohiyatiga oid bilimlar bo‘lajak siyosatshunoslar ongi va tasavvurlarini rivojlantira borib, ularda o‘z-o‘zini boshqarishi, o‘z faoliyatining mazmuniga mas’uliyat bilan javob berish, egallagan bilim,

ko‘nikma, malakalarni va ijobiy tarbiyaviy fazilatlarni amaliyotda qo‘llash imkonini yaratdi.

Ushbu xulosalarning ilmiy tasdiqlanganligini 4.2.4-, 4.2.5-, 4.2.6- – jadvaldagi eksperiment natijalari ham tasdiqlaydi.

**4.2.4-jadval**

**Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish dinamikasi**

| Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik mezoni | Tajriba guruhi (240 nafar respondent) | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | yuqori | | o‘rtacha | | quyi | |
| | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. | T.a. | T.s. |
| 1.Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida ma’lumotga egalik va ularning mazmunini aniq anglash | 28 | **119** | 90 | **82** | 122 | **39** |
| 2.Davlat ramzlari (bayroq, madhiya, tamg‘a, armiya, valyuta), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Prezidenti faoliyatini yangilash va ular bilan faxrlanish. | 24 | **117** | 92 | **80** | 124 | **43** |
| 3.O‘quv yurtidagi ijtimoiy-ma’naviy hayotda tashabbuskorlik namunasini ko‘rsata olish | 23 | **116** | 91 | **81** | 126 | **43** |
| 4.O‘quv yurtining jamoa ish lariga, ijtimoiy foydali mehnatga va do‘stlar, tengdosh lar bilan hamkorlikda jo‘sh qinlikni ifodalay olish. | 29 | **120** | 89 | **78** | 122 | **42** |
| 5.O‘qishga, mehnatga, shaxsiy hayotga mas’uliyat va majburiyat bilan yondasha olish, topshirilgan vazifani burch asosida bajarish. | 26 | **118** | 93 | **84** | 121 | **38** |
| 6.Fuqarolik, fuqarolik e’tiqodi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik ongi va fuqaroviylik tushunchalarining mazmun- mohiyatini chuqur anglashi va ularga amal qilish. | 25 | **119** | 88 | **80** | 127 | **41** |
| 7.Milliy an’analar, urf- odatlar, qadriyatlarni qadrlay olish tuyg‘usini o‘zida tarbiyalash | 27 | **117** | 93 | **83** | 120 | **40** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 8.Jamiyatning, o‘quv yurtning axloqiy-huquqiy me’yorlari, talablari va qoidalariga rioya etish. | 28 | **115** | 90 | **82** | 122 | **42** |
| 9.Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasining xususiyatlari, o‘ziga xos belgilari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish. | 24 | **121** | 92 | **79** | 124 | **40** |
| Umumiy o‘rtacha | 26 | **118** | 91 | **81** | 123 | **41** |

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so‘nggida.

**4.2.5-jadval**

**Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish dinamikasi**

| **Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik mezoni** | **Nazorat guruhi (224 nafar respondent)** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **yuqori** | | **o‘rtacha** | | quyi | |
| | **T.a.** | **T.s.** | **T.a.** | **T.s.** | **T.a.** | **T.s.** |
| 1.Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida ma’lumotga egalik va ular ning mazmunini aniq anglash | 22 | **19** | 75 | **82** | 127 | **123** |
| 2.Davlat ramzlari (bayroq, madhiya, tamg‘a, armiya, valyuta), O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Prezidenti faoliyatini yangilash va ular bilan faxrlanish. | 21 | **27** | 77 | **80** | 126 | **117** |
| 3.O‘quv yurtidagi ijtimoiy- ma’naviy hayotda tashabbuskorlik namunasini ko‘rsata olish | 20 | **23** | 78 | **81** | 126 | **120** |
| 4.O‘quv yurtining jamoa ish lariga, ijtimoiy foydali mehnatga va do‘stlar, tengdosh lar bilan hamkorlikda jo‘sh qinlikni ifodalay olish. | 24 | **25** | 74 | **75** | 126 | **124** |
| 5.O‘qishga, mehnatga, shaxsiy hayotga mas’uliyat va majburiyat bilan yondasha olish, topshirilgan vazifani burch asosida bajarish. | 18 | **21** | 73 | **76** | 133 | **127** |
| 6.Fuqarolik, fuqarolik e’ti qodi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik ongi va fuqaroviylik | 19 | **20** | 79 | **80** | 126 | **124** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| tushunchalarining mazmun- mohiyatini chuqur anglashi va ularga amal qilish. | | | | | | |
| 7.Milliy an'analar, urf- odatlar, qadriyatlarni qadrlay olish tuyg'usini o'zida tarbiyalash | 23 | **22** | 78 | **78** | 123 | **124** |
| 8.Jamiyatning, o'quv yurtning axloqiy-huquqiy me'yorlari, talablari va qoidalariga rioya etish. | 20 | **24** | **74** | **77** | **127** | **123** |
| 9.Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasining xususiyatlari, o'ziga xos belgilari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. | 22 | **24** | **76** | **77** | **126** | **123** |
| Umumiy o'rtacha | 21 | **23** | 76 | **78** | 127 | **123** |

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so'nggida.

Keltirilgan jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan bo'lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasi sifatlarini rivojlantirish mezonlarining barchasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Yuqoridagi jadvallar asosida nazorat va tajriba guruhlari talabalarining milliy qadriyatlarni o'zlashtirganlik darajasi bo'yicha yakuniy bosqich natijalari keltirilgan( 4.2.6-jadval).

**4.2.6-jadval**

**Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning qiyosiy tahlili (son va foizlarda)**

| Guruhlar | Talabalar soni | O'zlashtirish natijalari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yuqori | o'rtacha | quyi |
| Tajriba guruhlarida | 240 | 118 / 49 | 81 / 34 | 41 / 17 |
| Nazorat guruhlarida | 224 | 23 / 10 | 78 / 35 | 123 / 55 |

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhi talabalarida nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni ob'ektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni

amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va ob’ektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi.

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.




| | Назорат гуруҳи | | Тажриба гуруҳи | |
|---|---|---|---|---|
| Юқори | 23 | | 118 | |
| Ўртача | 78 | | 81 | |
| Қуйи | 123 | | 41 | |

**4.2.2-rasm. Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish diagrammasi**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan. Chizilgan diagrammalarning xar biri statistik jadval normal taqsimotga ega bo‘lgan bosh to‘plamlardan olinganligi xaqidagi faraz-gipotezani oldinga surish mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Endi 4.2. 6 - jadval ma’lumotlarini matematik statistik tahlil qilamiz.

Tajriba guruhining baholash ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda $X_i$ ,$n_i$ lar va shu kabi nazorat guruhining baholash ko‘rsatkichlari va talabalar sonini mos ravishda $Y_j$ ,$m_j$ lar orqali belgilab, statistik guruhlangan variatsion qatorlar tuziladi. Shuningdek, yuqori ko‘rsatkichni 5 ball bilan, o‘rta ko‘rsatkichni esa 4 ball bilan va quyi ko‘rsatkichni 3 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba-sinov ishlaridan tajriba guruhidagi talabalar soni n=240 nafar, nazorat guruhidagi talabalar soni m=224 nafar bo'lib, biz bu sonlarni $X_i$ va $Y_i$ variantlarga mos statistik tanlanmalar hajmlari deb qaraymiz. Demak, 3.1-jadvaldan quyidagi ikki variatsion qatorlarni tuzib olamiz ( $n = n_1 + n_2 + n_3$ va $m = m_1 + m_2 + m_3$ ):

Bu yerda ham yuqoridagidek belgilash kiritamiz:

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(6)\begin{cases} X_i & 5; & 4 & 3; \\ n_i & 118; & 81; & 41; \end{cases} \quad n = \sum_{i=1}^{3} n_i = 240$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$(2)\begin{cases} X_i & 5; & 4 & 3; \\ n_i & 23; & 78; & 123; \end{cases} \quad m = \sum_{j=1}^{3} m_j = 224$$

Statistik tahlil o'tkazishni qulaylashtirish maqsadida yuqoridagi variatsion qatorlardan $n_i$ va $m_j$ takroriylik (chastota)larni mos statistik ehtimollik formulalari $p_i = \frac{n_i}{n}$ va $q_j = \frac{m_j}{m}$ asosida hisoblaymiz.

$$(8)\begin{cases} X_i & 5; & 4 & 3; \\ n_i & 0{,}49; & 0{,}34; & 0{,}17; \end{cases} \quad \sum_{i=1}^{3} p_i = 1$$

$$(9)\begin{cases} Y_j & 5; & 4; & 3; \\ m_j & 0{,}10; & 0{,}35; & 0{,}55; \end{cases} \quad \sum_{j=1}^{3} q_j = 1$$

Statistik tahlilni har ikki guruh bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\overline{X} = \sum_{i=1}^{n=3} P_i X_i = 0{,}49 \cdot 5 + 0{,}34 \cdot 4 + 0{,}17 \cdot 3 = 2{,}45 + 1{,}36 + 0{,}51 = 4{,}32$$

Foizda $\overline{X}\% = \frac{4{,}32}{5} \cdot 100\% = 86{,}4\%$

$$\overline{Y} = \sum_{j=1}^{m=3} q_j Y_j = 0{,}10 \cdot 5 + 0{,}35 \cdot 4 + 0{,}55 \cdot 3 = 0{,}50 + 1{,}40 + 1{,}65 = 3{,}55$$

Foizda $\overline{Y}\% = \frac{3{,}55}{5} \cdot 100\% = 71\%$

Demak, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish (86,4–71) %=15,4 % ga yuqori ekan.

O'zlashtirishni aniqlash jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni aniqlash maqsadida dastlab dispersiya va o'rtacha kvadratik chetlanishlarni aniqlaymiz.

Dispersiyalar:

$$S_x^2=\sum_{i=1}^{n=3}P_iX_i^2-(\overline{X})^2=0,41\cdot5^2+0,33\cdot4^2+0,26\cdot3^2-4,15^2=0,49\cdot25+0,34\cdot16+0,17\cdot9-4,32^2=$$
$$=12,25+5,44+1,53-18,6624=0,5576$$
$$S_y^2=\sum_{j=1}^{m=3}q_jY_j^2-(\overline{Y})^2=0,10\cdot5^2+0,35\cdot4^2+0,55\cdot3^2-3,55^2=0,10\cdot25+0,35\cdot16+0,55\cdot9-3,55^2=$$
$$=2,5+5,6+4,95-12,6024=0,4475$$

O‘rtacha kvadratik chetlanishlar esa:

$$S_x=\sqrt{0,5576}\approx0,75\quad S_y=\sqrt{0,4475}\approx0,67$$

Bu xatoliklarning o‘rta qiymatlarga nisbatan og‘ish foizlarini variatsiya koeffitsiyentlari orqali hisoblaymiz.

Buni yanada aniqroq ko‘rsatish maqsadida har ikki statistik tanlanma bo‘yicha o‘rta qiymat aniqliklarini biz variatsiya koeffitsiyentlari orqali, ya’ni $C_x$ va $C_u$ formula orqali hisoblaymiz:

$$C_x=\frac{S_x}{\sqrt{n}\cdot\overline{x}}\cdot100\%=\frac{0,75\cdot100\%}{\sqrt{240}\cdot4,32}=\frac{75\%}{15,49\cdot4,32}=\frac{75\%}{66,9168}\approx1,12\%$$

$$C_y=\frac{S_y}{\sqrt{m}\cdot\overline{y}}\cdot100\%=\frac{0,67\cdot100\%}{\sqrt{224}\cdot3,55}=\frac{67\%}{14,97\cdot3,55}=\frac{67\%}{53,1435}\approx1,26\%$$

Har ikki xatolik ko‘rsatkichlari mumkin hisoblangan 5% lik chegaradan yetarli darajada kam ekan. Bu esa tajriba-sinov ishlari qoniqarli o‘tganligini bildiradi.

Endi biz har ikki statistik tanlanmalarni nazariy o‘rta qiymatlari tengligi haqidagi $H_0:\ a_X=a_Y$ gipotezani Styudent mezoni yordamida tekshiramiz.

Shu maqsadda, mos statistikani hisoblaymiz:

$$T_{n,m}=\frac{\left|\overline{X}-\overline{Y}\right|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n}+\frac{S_y^2}{m}}}=\frac{|4,32-3,55|}{\sqrt{\frac{0,5576}{240}+\frac{0,4475}{224}}}=\frac{0,77}{0,065}\approx11,85$$

Ehtimollik uchun statistik alomatning qiymatdorlik darajasini

$\alpha$ = 0,05 deb olsak, va r = n+m-2 ozodlik darajalari soni bo‘yicha jadvaldan $t_{кр}(\alpha=0,05;462)=1,96$ kritik qiymat topiladi.

$T_{эмп}=11,85>1,96=t_{кр}(0,05;462)$ bo‘lgani uchun biz $H_0$ gipotezani rad etib,

$\overline{X}>\overline{Y}$ munosabatlarni e’tiborga olgan holda $a_x>a_y$, ya’ni tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari , doimo o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan katta bo‘lar ekan, degan xulosa qila olamiz.

Nihoyat, biz $X_i$ va $Y_i$ statistik tanlanmalarning taqsimot qonunlari tengligi haqida $K : F_x = F_y$ gipotezani tekshirish uchun Pirson mezonidan foydalanamiz.

$$X^2_{n,m} = \frac{1}{N \cdot M} \cdot \sum_{i=1}^{k} \frac{(n_i M - m_i N)^2}{n_i + m_i}.$$

Bu maqsadda quyidagi jadvalni tuzib olamiz:

**4.2.7-jadval**

| **Ballar / Guruxlar** | **5** | **4** | **3** |
|---|---|---|---|
| Tajriba guruhi | 118 | 81 | 41 |
| Nazorat guruhi | 23 | 78 | 123 |

Pirson statistikasini hisoblaymiz:

$$X^2_{n,m} = \frac{1}{240 \cdot 224} \cdot \left( \frac{(118 \cdot 224 - 23 \cdot 240)^2}{118 + 23} + \frac{(81 \cdot 224 - 78 \cdot 240)^2}{81 + 78} + \frac{(41 \cdot 224 - 123 \cdot 240)^2}{41 + 123} \right). \approx 104,64$$

Pirson mezonining ozodlik darajasi ballar sonidan 1ga kamdir: k=3-1=2, bu k=2 ga mos 95% lik kritik nuqta $Z_{кр}(0,95) = 5,99$

Ammo, $X^2_{n,m} = 104,64 > 5,99 = Z_{k,p}(0,95)$

Demak, K gipoteza ham rad etilar ekan. Bu esa, tajriba guruhlaridagi va nazorat guruhlaridagi o‘qitish metodikalarining farqlanishi tasodifiy emas, balki qonuniy bo‘lib, doimo o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelar ekan.

Endi baholashning samaradorlik ko‘rsatkichini aniqlash uchun ishonchli intervalni topamiz:

$$\Delta_x = t_y \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} = 1,96 \cdot \frac{0,75}{\sqrt{240}} = 1,96 \cdot \frac{0,75}{15,49} = \frac{1,47}{15,49} \approx 0,09$$

ga teng, nazorat guruhida esa:

$$\Delta_x = t_y \cdot \frac{S_y}{\sqrt{m}} = 1,96 \cdot \frac{0,67}{\sqrt{224}} = 1,96 \cdot \frac{0,67}{14,97} = \frac{1,3132}{14,97} \approx 0,09$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\overline{X} - t_{кр} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \le a_x \le \overline{X} + t_{кр} \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

$4,32 - 0,09 \le a_x \le 4,32 + 0,09$ $\qquad$ $4,23 \le a_x \le 4,41$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\overline{Y} - t_{\kappa p} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{m}} \le a_y \le \overline{Y} + t_{\kappa p} \cdot \frac{S_y}{\sqrt{m}}$$

$$3{,}55 - 0{,}09 \le a_y \le 3{,}55 + 0{,}09 \qquad 3{,}46 \le a_y \le 3{,}64$$

Buni geometrik tasvirlasak:




Bundan x=0,05 qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhidagi o‘rtacha baho nazorat guruhidagi o‘rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik tahlilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma’lum bo‘ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda tajriba yakunida statistik ko‘rsatkichlarning o‘rta qiymati, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

**4.2.8-jadval**

| $\overline{X}$ | $\overline{Y}$ | $S_x^2$ | $S_y^2$ | $C_x$ | $C_y$ | $T_{x,y}$ | $K$ | $X_{n,m}^2$ | $\Delta_x$ | $\Delta_y$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4,32 | 3,55 | 0,75 | 0,67 | 1,12 | 1,26 | 11,85 | 462 | 104,64 | 0,09 | 0,09 |

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum $\overline{X}$=4,32; $\overline{Y}$=3,55; $\Delta_x = 0,09; \Delta_y = 0,09$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\delta} = \frac{\left(\overline{X} - \Delta_x\right)}{\left(\overline{Y} + \Delta_y\right)} = \frac{4,32 - 0,09}{3,55 + 0,09} = \frac{4,23}{3,64} \approx 1,16 > 1;$$

Bilish darajasini ko‘rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\delta\partial\delta} = (\overline{X} - \Delta_x) - (\overline{Y} - \Delta_y) = (4,32 - 0,09) - (3,55 - 0,09) = 4,23 - 3,46 = 0,77 > 0$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi bilan va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligi bilan ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekan.

Olingan natajalar shundan dalolat beradiki, tajriba guruhi respondentlarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlanganlik sifatlari

nazariy guruhi respondentlariga nisbatdan ancha yaxshi natijaga ega bo‘lib, ko‘rsatkichlar ancha yuqori. Bu tadqiqot ishimizning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazini amaliyotga tatbiq qilish nuqtai nazaridan, ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan metodikaning to‘g‘ri belgilanganligini ko‘rsatadi. Natija nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi samaradorligi 15,4 foizga oshganligidan dalolat beradi. Ilmiy-tadqiqot natijasida rejalashtirilgan barcha vazifalar hal etilib, quyidagi xulosalarga kelindi.

## To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar

1.Tajriba-sinov ishlarining mazmunini aniq va pedagogik talablar asosida loyihalashtirilganligi sababli qo‘yilgan maqsadga erishilganligi aniqlandi.

2.Tajriba-sinov ishlarining faoliyat bosqichlari va har bir asosida amalga oshiriladigan pedagogik vazifalar, ularni yechish yo‘llari to‘g‘ri belgilanganligi asoslandi.

3.Tadqiqot jarayonida tadqiqot ob’ektlari (talabalar) va sub’ektlari (mutasaddi xodimlar, professor-o‘qituvchilar)ning funksiyalari to‘g‘ri belgilanib, faoliyati auditoriya mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarning natijalari tajriba-sinov ishlari yordamida aniqlanganligi va tadqiqot oldiga qo‘yilgan maqsadga erishilganligi aniqlandi.

4.Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish maqsadidan kelib chiqib, tanlab olingan ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviy tarbiya texnologiyalari asosida talabalarning hohishlari, qiziqishlari, bilim darajalarini hisobga olib tashkillashtirilganligi hamda ular ko‘zlangan natijani berganligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlanganligi ko‘rsatildi.

# UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

1. O‘zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun zarur bo‘lgan fuqarolik pozitsiyasi o‘z mazmun-mohiyati bilan shaxsning ijobiy sifatlari hisoblangan mehr-shafqat, iymon-e’tiqod, adolat, poklik, hallolik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi tuyg‘ularni o‘zida mujassamlashtirgan talabalarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi, ongi, did-farosati, ideali, tafakkurida namoyon bo‘lishi, rivojlanishi bo‘lajak mutaxassislarning nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mumkinligi aniqlandi.

2. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti asosidagi fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy demokratik davlat qurish sharoitida “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining mazmun-mohiyatini chuqur anglash va uni amalga oshishini ta’minlashda har bir talaba-yoshda fuqarolik burchi, fuqarolik mas’uliyati, fuqarolik e’tiqodi, millatlararo muloqot pozitsiyasi, vatanparvarlik kabi tushunchalar to‘g‘risidagi bilimlarni kuchaytirish asos bo‘lib xizmat bo‘lishi dalillandi.

3. Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni maqsadli, o‘z takomiliga yetkazib amalga oshishi uchun, uning ijtimoiy-siyosiy faollik, madaniy-ma’rifiy tayyorgarlik, ruhiy-individual funksiyalarining bajarilishini ta’minlash asosida ularning kasbiy kreativlik, konstruktiv, innovatsion malakalarini rivojlantirish. Bu malakalar asosida talabalarda qat’iylik, mustaqillik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, qanoatlilik, adolat doirasida ish tutish kabi sifatlarning takomillashishiga manba bo‘lishi aniqlandi.

4. Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasi fazilatlarini rivojlantirish yo‘nalishida tashkil etiladigan auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish jarayonida inovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqiladigan modellar, texnologik xaritalar, didaktik tizimni belgilangan maqsad va vazifalar asosida tayyorlash natijani kafolatlash asosi ekanligi tadqiqot yakunida dalillandi.

5. Ixtisoslik fanlar va auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarning imkoniyati cheksizligi inobatga olinib, tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalar vositasida mazkur fanlarni o‘qitish

jarayonining didaktik tizimi ishlab chiqilib, ulardan foydalangan holda fanlar mazmunidan talabalarga fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida bilim, ko‘nikma, malakalarni, insoniy his-tuyg‘u, e’tiqodni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi mavzularni ularning diqqatlariga havola qilish kafolatlangan natijalarni berishi isbotlandi.

6. Talabalarning fuqarolik his-tuyg‘ulari, fuqarolik pozitsiyasini, fuqaroviyligini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi “Auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi hamda “Bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va o‘quv mashg‘ulotlari integratsiyasi” dasturi mazmunidagi tadbirlar yordamida talabalarda: birinchidan, bo‘sh vaqtlarini mazmunli, maroqli, foydali o‘tkazish.

Ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy hayot, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot bosqichlari, yo‘nalishlarini chuqurroq, mukammalroq o‘zlashtirish.Uchinchidan, o‘zlashtirilgan bilimlar orqali mehr-muruvvat, vijdon, or-nomus, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vatanparvarlik, tabiat, jamiyatdagi go‘zallikni sevish, ardoqlash, ko‘paytirish, yovuzlikka murosasizlik, iroda, matonat kabi fuqarolik pozitsiyasi fazilatlarini tarbiyalashni jadallashtirish muqarrarligi asoslandi.

Tadqiqot natijasi va yuqoridagi xulosalar bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha kuyidagi **tavsiyalarni** ishlab chiqishga da’vat etdi:

- talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan fanlararo bog‘lanishni muntazam yo‘lga qo‘yib, fanlar mazmunidagi muammoga oid mavzularni o‘qitishda bir-biriga yaqinligini ta’minlash va ularning aloqadorligini amalga oshirish bo‘yicha ilmiy -metodik qo‘llanmalar yaratish;
- huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik pozitsiyasi to‘g‘risida chuqur ma’lumot bera olishini hamda bu fanlar jamiyat ma’naviyati, mafkurasi, pozitsiyasi, axloqi, ideallari, siyosati kabi masalalarni yoritishini inobatga olib, ularning talabalarda fuqarolik pozitsiyasi e’tiqodi, dunyoqarashini rivojlantirishning manbai, deb e’tiborga olib, fanlarni o‘qitishni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishbo‘yicha metodik qo‘llanmalar yozishni yo‘lga qo‘yish;
- talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun mazkur fanlar va tadbirlarning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish

maqsadida ular integrsiyalashuviniyo‘lga qo‘yish va o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish;

- talabalarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun, fuqarolik pozitsiyasi tushunchasi, mazmun-mohiyati, funksiyalari, qonuniyatlari, tamoyillari, tizimi, o‘quv-tarbiya jarayoni to‘g‘risida bilimlarni kuchaytirish maqsadida o‘qituvchilarni qurollantirish uchun maxsus kurs joriy qilish, dasturi va o‘quv uslubiy majmua yaratish;

- bo‘lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy, ommabop adabiyotlar majmuasini yaratish hamda muammo bo‘yicha oliygohlarda fundamental ilmiy tadqiqot ishlarini joriy qilish.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


## I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: “O‘zbekiston”, 1998. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr URK-637 www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. www.lex.uz
4. Mirziyoyev Sh. M. Ilm fan yutuqlari-taraqqiyotning muhim omili. Ma’rifat. 2016. 31 dekabr.(104 son, 6 b.)
5. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017. - 48 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. - 104 b.
7. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2016. - 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. - 488 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi boskichga ko‘taramiz. –T: “O‘zbekiston” NMIU. 2018. –592 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni www.lex.uz
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz

## II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

12. Valeyeva R. Uchebno-issledovatelskaya rabota studentov – sredstvo samorealizatsii lichnosti. / R. Valeyeva, S. Usova // Vыssheye obrazovaniye v Rossii. - 2006. - № 9. - S. 91-94.
13. Vlasova Ye.A. Professionalnoye samorazvitiye buduщix sotsialnыx pedagogov. Monografiya. Balashov, 2009. – 116 s.
14. Gamidov A. Pyedagogicheskiye osnovы formirovaniya kulturы mejnatsionalnogo obщeniya u studentov vuzov. Sbornik trudov konferensii. 2019. -181 s

15. Disterverg A. Rukovodstvo k obrazovaniyu nemetskix uchiteley // Narodnoye obrazovaniye, 2001. - № 1. 11-16 s.
16. Jumayev M.E. O‘qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik-matematik tayyorgarlik. Monografiya.T.: “Fan”, 2009. - 240 bet.
17. Musayev U. Integratsiya darajalari // Xalq ta’limi. – 2002. - № 6.- B. 5-6.
18. Moore A. Teaching and Learning Pedagogy, Curriculum and Culture. London and New York. 2012.
19. Nurullayeva Sh.U. Bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlash tizimi // Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘. №2. Nөkis — 2021. 19-22-b.
20. Nurullayeva Sh.U. Zamonaviy o‘qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari // Xalq ta’limi. №3. 2021 y. 6-9-b.
21. Rajabov A.U. Sinergetika - fan va ta’limda integrativ holatlarning metodologik asosi sifatida // Mug‘allim ham uzluksiz bilimlendiriu. – Nukus, 2019. – № 6/1. B. 95-98.
22. Rajabov A.U. Determination of the quality of mastering an Integrative course and the level of methodological and mathematical training of a graduate. // European journal of Resarch and Reflection in Educational Sciences Volume 8 Number 8, 2020 ISSN 2056-5852 pp. 135-137.
23. Rajabov A.U. Talabalarning o‘quv-biluv jarayonida kasbiy tayyorgarlik motivatsiyasini rivojlantirish. // Jamiyat va innovatsiyalar – Obщestvo i innovatsii – Society and innovations. Special Issue – 11 (2021) / ISSN 2181-1415 pp. 416-418.
24. Chapayev N.K. Integrativno-selostnыy podxod k professionalnomu obrazovaniyu / N.K. Chapayev // Razvitiye professionalno-texnicheskogo obrazovaniya na Urale: teoriya i praktika: sbornik materialov regionalnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, Yekaterinburg, 3–4 okt., 2005 g. / pod red. M.L. Vaynshteyna. Yekaterinburg: Izd-vo Instituta razvitiya obrazovaniya, 2007. S. 112–117.
25. Chapayev N.K. Integrativno-selostnыy podxod k razvitiyu cheloveka v ezotericheskoy pedagogike / N.K. Chapayev, I.P. Vereщagina // Lichnostno razvivayuщeye professionalnoye obrazovaniye: materialы 5-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii: v 4 chastyax. Yekaterinburg: Izd-vo Ros. gos. prof.-ped. un-ta, 2005. Ch. 4. S. 57–61.
26. Chapayev N.K. Integrativno-selostnыy podxod kak evristicheskoye osnovaniye podgotovki sotsialno-kompetentnostnыx spetsialistov v injenerno-pedagogicheskom vuze / N.K. Chapayev, J.V. Nurutdinova // Obrazovaniye i nauka. 2009. № 5 (62). S. 53–62.

27. Chapayev N.K. Integratsiya pedagogicheskogo i texnicheskogo znaniya v pedagogike proftexobrazovaniya / N.K. Chapayev. Sverdlovsk: Izd-vo Sverdl. inj.-ped. in-ta, 1992. 224 s.

28. Shvetsova S.T. Integrirovannыe metodiko-matematicheskiye zadaniya dlya studentov pedagogicheskix kolledjey / S.T. Shvetsova // Nachalnaya shkola. 1994. № 5. S. 65–67.

29. Haken H. Principles of Brain Functionung. Cinergetic Approuch to Brain Activity, Behavior and Cognition. B., 1996. 296 p.

30. Spiegel H. Mathematik im Studium des Lehramts Primarstufe: Eine Informationsbroschure für Studienanfänger //Journal für Mathematik-Didaktik, 17 (1996), H 2, S. 151-160.

31. Wunder D. Gesellschaftspolitik und Schule //Die Deutsche Schule/ - 1999/ - 91, №1. - S. 11-19.

### III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

32. Abduqodirov A. va b “Kays-stadi” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba T.: “ Tafakkur qanoti”, 2012. - 131 bet.

33. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fan. dok. diss... . -Toshkent: TDPU, 2006. - 263 bet.

34. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. - Toshkent, 2003.-276 b.

35. Amosova P.V. Metodiko-matematicheskaya podgotovka studentov pedagogicheskix fakultetov k razvitiyu tvorcheskoy lichnosti shkolnika pri obuchenii matematike: Diss... dok. ped. nauk., Astraxan, 1999. - 410 s.

36. Anarkulova G.M. Nauchno-metodicheskiye osnovы professionalnoy podgotovki spetsialistov dlya selskogo xozyaystva. Avtoref.diss.k.p.n. -T., 2003.-22; 19.

37. Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar. - 5111700 -DTS. O’zDSt 2691:2013 y.

38. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped.fan.dokt. diss. avtoref. - T., 2007. – 37 b.

38. Baturina G.I. Puti integratsii nauchno-pedagogicheskix znaniy / G.I. Baturina // Integrativnыe protsessы v pedagogicheskoy nauke i praktike kommunisticheskogo vospitaniya i obrazovaniya: sbornik nauchnыx trudov. Moskva: Izd-vo Akad. ped. nauk, 1983. S. 4–27. s. 5.

39. Belyayeva A.P. Didakticheskiye prinsipы professionalnoy podgotovki v proftexuchiliщax: metodicheskoye posobiye / A.P. Belyayeva. Moskva: Vыsshaya shkola, 1991. 208 s. s. 43.

40. Belkin A.S. Teoriya i praktika vitagennogo obucheniya s holograficheskim metodom proyeksiy / A.S. Belkin. Yekaterinburg: Izd-vo Ural. gos. ped. in-ta, 1997. 12 s.

41. Berulava M.N. Integratsiya soderjaniya obrazovaniya / M.N. Berulava. Moskva: Pedagogika, 1993. 172 s.]

42. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika. – M.: «Piter», 2007. – S. 104.

43. Vыgotskiy L.S. Etyudы po istorii povedeniya: Obezyana. Primitiv. Rebenok / L.S. Vыgotskiy, A.R. Luriya. Moskva: Pedago- gika-Press, 1993. 224 s.

45. Gachev G.D. Kniga udivleniy, ili Yestestvoznaniye glazami gumanitariya, ili Obrazы v nauke / G.D. Gachev. Moskva: Pedagogika, 1991. 272 s.

44. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika (darslik). –T.: "Fan va texnologiyalar",2007.-288 b.

45. Ibragimov G.X. Kasb ta'limi tizimida milliy istiqlol g'oyasi asosida talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish: Ped. fan. dokt. diss.... avtoreferati.- T, 2005.-46 b.

46. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar – Toshkent, "Sharq", 1998 . -239 b.

47. Imomova M.G. Pedagogicheskiye osnovы ispolzovaniya natsionalnыx sennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme. Avtoreferat, diss. dok. ped. nauk.- T, 1998.- 43s.

48. Ismoilova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari ("Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida"): pedagogika fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006 .- 47 b.

49. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi-o'qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) – T.: "Iste'dod", 2010.- 141 b.

50. Ishmuxamedov R., Yuldashev N. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma ) –T.:2013. – 279 b.

51. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A.Pedagogik texnologiya asoslari. (Xalq ta'limi xodimlari uchun o'quv qo'llanma).- T.: "O'qituvchi", 2004.- 103 b.

52. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – T.: "O'qituvchi"

53. Yo'ldoshev S. va boshqa Ajdodlarimiz merosi mafkuramiz gavhari: (Umumiy ta'lim maktablari akademik litsey, kasb-hunar kollejlari

o‘qituvchilari va talabalari uchun qo‘llanma) S.Yo‘ldoshev., M.Qodirov., M.Usmonovlar: Mas’ul muharrir M.Qodirov - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr, 2001. - 160 b.

54. Karakovskiy V.A. Haqiqiy inson tarbiyalaylik. T.: “O‘qituvchi”,1992. -160 b.

55. Keyzerov N.M.Politicheskaya i pravovaya kultura // Uchebnoye posobiye M.: logos. 2001. – 213 s.

56. Knyazov A,M. Grajdanstvennost kak ob’ekt vospitaniya // A.M. Knyazev// Molodej i obщestvo. -2006. - №1.-62-68 s.

57. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opыta. M.: Znaniye, 1989. - 80 s.

58. Leontev A.N. Deyatelnost, soznaniye, lichnost. – [ tekst ] A.N.Leontev .- M.: Smыsl; izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2004. – 352 s.

59. Lixachyov B.T. Pedagogika: Kurs leksiy // Uchebnoye posobiye dlya studentov pedagog. ucheb. zavedeniy i slushateley IPK i FPK. – 4-ye izd. Pererab. i dop. – M.: Yurayt, 2000. - 523 s.

60. Madaniyatshunoslik (Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun qo‘llanma). Nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir-falsafa doktori dotsent M.Abdullayev “Farg‘ona” nashriyoti, 1997. - 180 b.

61. Maksimova V.N. Mejpredmetnыe svyazi v protsesse obucheniya.- M.: Prosveщeniya,1982.-192 s.

62. Markaryan E.S. Teoriya kulturы i sovremennaya nauka // E.S.Markaryan.- M.:Mыsl, 1983.- 283 s.

63. Mahkamov U.I. Talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.

64. Mahmudov M.X. Ta’limni didaktik loyihalash prinsiplari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. - 60 b.

65. Maxmudov R. Huquq va madaniyat. –T.: “O‘zbekiston”, 1993. - 56 b.

66. Maxmutova G. I. Oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni ma’naviy shakllantirishning pedagogik xususiyatlari - ped.fan. nomz.diss. avtoreferati.-T.,-22 b.

67. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: “Akademiya”, 2007. – 352 b.

68. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi: Umumta’lim maktablari uchun. – T.: O‘qituvchi 1996. - 192 b.

69. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘qituvchilarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan. d-ri...diss. – T. fan, 1993. TDPI, 1993, –364 b.

70. Izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M. Abdullayev., M.Abdullayeva., F. Abdullayeva., G.Abdurazoqova va boshqalar; R.Ro'ziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashr / - T.: "Sharq", 2006 .- 528 b.
71. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullayeva., F. Abdullayeva., G. Abdurazzoqova va boshqa; A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda. – T.: "Sharq", 2000.- 320 b.
72. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T.: "Fan", 1993. - 56 b.
73. Navoiy A. Mahbub-ul qulub (Qalblar sevgilisi). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 112 b.
74. Navoiy A. Lison-ut tayr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 112 b.
75. Nishonova S.U. Sharq uyg'onish davri fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. d-ri. Ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. – T. 1998. -288b
76. Olimov Sh. Kasb-xunar kollejlari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. – T.: "Fan", 2007. - 164 b.
77. Olimov Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2014. - 218 b.
78. Omelechkin O.V. Grajdanskaya kultura :Avtoref. diss. doktora filosof.nauk. 23.00.03 / O.V. Omelechkin; spb. Gos.un-t. – spb., 1997. – 21 s
79. Ortiqov N. Ma'naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T.: Toshkent, "O'zbekiston" 1997. - 127 b.
80. Otamurotov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari: O'quv qo'llanma. – T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. - 213 b.
81. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, Nasaf, 2000. - 80 b.
82. Rayimov Sh. Talabalarda ogohlik va fidoyilik madaniyatini shakllantirish (Uslubiy qo'llanma). – T.: "Fan", 2007.- 38 b
83. Pedagogika. (A.Q.Munavvarov umumiy tahriri ostida) – T.: "O'qituvchi", 1996. - 270 b.
84. Pedagogika. Ucheb. posobiye dlya studentov ped. institutov. / Yu.K. Babanskiy, V.A. Slastyonin, N.A.Sorokin i dr; pod red. Yu.K.Babanskogo. 2-ye izd., dop i pererab. – M.: "Prosвещеniye", 1988 .- 479 s.
85. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun

darslik / M.X. Toxtaxodjayeva., S.Nishonova., J.Hasanboyev., M.Usbonboyeva., S.Madiyarova., A. Qobilbekova., N.Nishonova., N.Sayidahmedov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. - 400 b.

86. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: “Noshir”, 2011. - 456 b.

87. Pedagogika: Ucheb. Posobiye dlya studentov pedagogicheskix vuzov i pedagogicheskix kolledjey. Pod red. P.I.Pidkasistogo. – Moskva, Pedagogicheskoye obshestvo Rossii, 2000.- 690 s.

88. Pedagogika tarixi: Hoshimov K., Nishonova S. Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

89. Podlasыy I.P. Pedagogika: Novy kurs: Ucheb. Dlya studentov vsh.ucheb. zavedeniy: V k kn. – M: Umant. Izd. Sentr VLADOS, 2002- kn.2: Protsess vospitaniya.- 256 s.

90. Razumnыy V.A. Metodika vospitaniya esteticheskoy kulturы lichnosti. Posobiye dlya rabotnikov klubnыx uchrejdeniy. – M.: 1995. -73 s.

91. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1999.- 72 b.

92. Reznik Yu.M. Grajdanskoye obщestvo kak ob’ekt sotsiologicheskogo poznaniya /Yu M.Reznik //Vestnik moskovskogo universiteta. Seriya 18. – 1998.- №2. 30-40 s.

93. Ro‘ziyeva D.I. Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish – T.: “Fan”, 2007. - 191. b.

94. Rubeynshteyen S.L. Osnova obщey psixologii. – V 2- x t .– M.: Pedagogika, 1989. T.1. – 480 s.

95. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003.- 172 b.

96. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari K.Hoshimovning umumiy tahririda – T.: O‘qituvchi 1995 y.- 208 b.

97. Savotina N.A. Grajdanskoye vospitaniye : Traditsii i sovremennыe trebovaniya / N.A. Savotina // Pedagogika. – 2002. - №4. – s. 28-40.

98. Selevko G.K. Sovremenne obrazovatelne texnologii. Uchebnoye posobiye. M.: “Narodnoye obrazovaniye”, 1998.- 256 s.

99. Solovev A. Kultura grajdanstvennosti. K novoy paradigme / A.Solovev //Svobod. Mыsl 2002. -№7 18-30 s.

100. Slastyonin V.A. i dr. Pedagogika: Uchebnoye posobiye dlya stud. vыssh. ped. ucheb. zavedeniy / V.A.Slastyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov;

pod red. V.A.Slastyonina. – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2002. - 576 s.

101. Temur tuzuklari. Forschadan A.Sog‘iniy va H.K.Aromov tarj; B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. - 144 b.

102. Tohirova N. Fukarolik madaniyati-huquqiy madaniyat poydevori // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – T.: 2003. 3-4-son- 87-91 b.

103. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (O‘quv qo‘llanma). – T.: “Fan”, 2006. - 262 b.

104. To‘lanov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. - 236 b.

105. Umarov B.J., Olimov Sh.Sh. Oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya asoslari. T.: “Fan” nashriyoti 2004. - 86 b.

106. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik / Q.Usmonov, M.Saidov, S.Burxonova: O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Istiqlol-moliya”, 2006. - 520 b.

107. Usmonboyeva M.H. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish (VIII-IX sinflar misolida): Pedagogika fan. nomz. diss. avtoreferati. – T.: 2000. - 23 b.

108. Ushinskiy K.D. Asarlar. T.8. – M.: LPN RSFSR, PFA nashriyoti, 1950. -774 b.

109. Falsafa: (O‘quv ko‘llanma) E.Yu.Yusupovaning umumiy tahriri ostida. – T.; “Sharq”, 1999. - 496 b.

110. Falsafa qisqacha izohli lug‘at / Mualliflar: M.N.Abdullayeva., M.Abdurashidov., U.Abilov va boshqalar.: Mas’ul muharrir: A.Jalilov. – T.: “Sharq”, 2004. - 384 b.

111. Falsafa: Qomusiy lug‘at: (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. -496 b.

112. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogika texnologiyalar.– T.: “Fan”, 2000. -128 b

113. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: 1993. - 224b.

114. Filonov G.N. Grajdanskoye vospitaniye : realnost i tendensii razvitiya

[ tekst] G.N.Filonov // Pedagogika, 2002. - №10. – s. 24-29.

115. Xayrullayev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. – T.:1998. -163 b.

116. Hakimov X.N. Talaba shaxsini shakllantirishda,jismoniy va ma’naviy axloqiy tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik shart-

sharoitlari. Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati:2019. -27 b.

117. Xo‘jayev B.Q. Fuqarolik madaniyatining mohiyati va uning shaxs kamolotidagi o‘rni // J. Pedagogik mahorat,-2006 №3, 3-6 b.

118. Xo‘jayev B.Q. Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish. //J. Xalq ta’limi,-2006, №5, 18-22 b.

119. Xo‘jayev B.Q. Fuqarolik madaniyatini shakllantirish zaruriy ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.// J. Uzluksiz ta’lim.-2006,-№5.-92-94b.

120. Xo‘jayev B.Q. Uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsda fuqarolik madaniyatini tarkib toptirish. // J. Uzluksiz ta’lim.-2007.-№1,.32-34 b.

121. Xo‘jayev B.Q. Fuqarolik jamiyati va shaxs fuqarolik madaniyati // J.Pedagogik mahorat, 2008, №1, 3-10 b.

122. Xo‘jayev B.Q. Jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida talaba-yoshlarda fuqarolik madaniyatini rivojlantirish. // J. Pedagogik mahorat--, -2017, №3, 7-13 b.

123. Xo‘jayev B.Q., Olimov Sh.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Buxoro, Yoqub Dovud, 2004. - 164 b.

124. Choriyev A.Ch. Pedagogikaning fanlararo aloqasi va badiiy adabiyot bilan o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlari (Kadrlarlar tayyorlash milliy modelida fan komponenti asosida): Ped. fan. dok. diss. -T.: 2003. – 348 b.

125. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: “Sharq”, 2003. - 512 b.

126. Sharipova S.B. “ Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida madaniy dunyoqarashni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.Toshkent, 2000. – 153 b.

127. Egamberdiyeva N.M. Atrof-muhit ta’sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari (pedagogika kollejlari misolida): ped.,fan.,nom., diss., avtoreferati. – T.: 2004. - 23 b.

128. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. – T.: “Ma’naviyat”, 2002. - 240 b.

129. Yuzlikayev F.R. Intensifikatsiya protsessa didakticheskoy rodgotovki buduщyego uchitelya v pedagogicheskom institute. Monografiya – T.: “Fan”, 1995.- 203 b.

130. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari . T.: “Universitet”, 1998 – 184 b.

131. O‘tamurodov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. – T.: “Turon-Zamin” 2017. - 195 b.

132. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma/ M. Qirg‘izboyev umumiy tahriri ostida. Andijon davlat universiteti. -T. Navro‘z nashriyoti, 2014. – 400 b.

133. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 3- jild. Gidrofiliya. Zebralar. Tahrir hay’ati ; M. Aminov., B. Axmedov va b. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” . Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.

134. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. IV t.( M harfini qarang)

135. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: gnezisi,shakllanishi va rivojlanishi. – T.: “O‘zbekiston”. -

136. Qurbonov Sh. Tarbiya tizimining mas’uliyati // Xalq so‘zi, 2005. 7-sentabr,3-bet.

137. G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi.-T.: O‘qituvchi nashr.,1997. - b.

138. Hasanboyev., M.Haydarov., O.Hasanboyeva., N.Usmonov. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009. – 672 b

139. Y.Lingart. Protsess i struktura chelovecheskogo ucheniya. M.: 1970, 75 s.

140. Almond G ., Verba S. The Civic Culture.-N.Y., 1963.-458 p.

141. Eckstein H.A. Culturalist Theory of Political Change//American Politikal Scienice Review – N-82-1988 –pp. 245-289

142. Lokhart C. Political Culture and Political change//Culture Matters/Essay in Honor of Aaron Wildawsky. Boudler, 1997. – 370p.

143. Shils E. The Virtue of Civility; Sel. Essays on liberalism, tradition,a civil society.- Indianapolis.- Ed. By Crosby S. Liberty Fund, 1997.-XV, 395p.

# MUNDARIJA

**Kirish ... 3**
**I bob. Siyosiy ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari ... 8**
1.1. Siyosiy falsafiy ta’limotlarda integratsion yondashuv mazmuni 8
1.2. Siyosiy ta’limni integratsiyalash turlari va didaktik tamoyillari ... 22
1.3. Integrativ yondashuv asosida siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabalarida fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyaning o‘ziga xos aspektlari ... 33
Birinchi bob yuzasidan xulosalar ... 48
**II bob. Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy asoslari ... 50**
2.1. Bo‘lajak siyosatshunoslarning fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish usullari ... 50
2.2. Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning istiqbollari ... 64
II bob bo‘yicha xulosa ... 88
**III bob. Integrativ yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi ... 90**
2.1. Binar-dialogli integrativ ma’ruzalarni tashkil etish metodikasi 90
3.2. Talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish modeli ... 99
3.2. Integrativ amaliy mashg‘ulotlarda talabalarda fuqarolik pozitsiyasi va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyalari ... 113
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa ... 135
**IV bob. Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning samaradorlik darajasi ... 136**
3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.. 136
4.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari ... 144
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar ... 161
**Umumiy xulosalar va tavsiyalar ... 162**
**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ... 165**

**RUSTAM JUMAYEV**

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

**MONOGRAFIYA**


| | |
|---|---|
| *Muharrir:* | *A. Qalandarov* |
| *Texnik muharrir:* | *G. Samiyeva* |
| *Musahhih:* | *Sh. Qahhorov* |
| *Sahifalovchi:* | *M. Bafoyeva* |

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 24.05.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qogʻozi. Bosma tobogʻi 11,0. Adadi 100. Buyurtma №255.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ
"Durdona" nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol koʻchasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol koʻchasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

ISBN 978-9943-9580-5-0